

URUSH AYOLLAR ISHI EMAS

SVETLANA
ALEKSIYEVICH

Hujjatli qissa



JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

SVETLANA ALEKSIYEVICH

**URUSH AYOLLAR ISHI
EMAS**

Hujjatli qissa



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojjiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

Mirpo'lat MIRZO va Abduhamid PARDAYEV

Belarus yozuvchisi Svetlana Alekxiyevichning „Urush ayollar ishi emas“ hujjatlari qissasida Ikkinchiji Jahon Urushi o'zinimgan bor dahshatlari bilan namoyon bo'lgan. Ahamiyatli jihat shundaki, muallif bu asarini urushda qatnashgan qahramon ayollar tilidan yozib oliban ma'lumotlari asosida yozgan.

Mazkur hujjatlari qissani erinmay o'qib chiqing. U sizda badiiy asardan ko'ra iliqroq taassurot qoldirishi aniq. Chunki kitobni mutolaa qilish davomida siz go'yo urush qahramonlari bilan yuzma-yuz suhbatlashganday bo'lasiz. Bugungi tinch-omon kunlarimizga shukronalar aytasiz.

N A S H R I Y O T D A N

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madamyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrat bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madamy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, bivor badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga misbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tamshib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo-nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jiddligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, itilyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanishi yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butsatti, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarni o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyl, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddimov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlasliga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayirli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyimgi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

URUSH AYOLLAR ISHI EMAS

Ayollar bilan bog‘liq tushunchalarimizning barchasi „mehr-shafqatli“, degan so‘zga jo bo‘ladi. Singil, rafqa, do‘sit, ona – bu yuksak ta’riflar negizi, inohiyati ham mehr-shafqatdan iborat emasmi? Ayol – hayot baxsh etadi, hayotni ko‘z qorachig‘iday asraydi, ayol va hayot – inushtarak.

XX asrning eng dahshatli urushida ayol askarga aylandi. U nafaqat yaralanganlarmi qutqardi, ularning jarohatlarini bog‘ladi, balki merganlar miltig‘idan o‘q uzdi, bombardimon qildi, ko‘priklarni portlatdi, razvedkaga qatnadi, „til“ tutib keldi. Ayol, o‘ldirdi. O‘z zaminiga, o‘z uyiga, bolalarining ustiga shafqatsizlik bilan bos-tirib kelgan ashaddiy dushmanni o‘ldirdi. „O‘ldirish – ayollarning ishi emas“, deya e’tirof etadi mazkur kitob qahramonlaridan biri, ayni so‘zlarga urushning butun dahshati va shafqatsizligini jo etibdi. Boshqa bir ayol esa taslim bo‘lgan Reyxstag devorlariga shunday deb yozadi: „Men, Sofya Kunsevich, Berlinga urushni mahv etish uchun keldim“. Bu G‘alaba mehrobiga tortiq qilingan buyuk qurbanlik edi. Bu bezavol jasorat bo‘lib, uning butun teranligini osoyishta hayot bag‘rida kechayotgan yillar mobaynida his qilamiz.

Nikolay Rerixning¹ 1945-yil may-iyunda yozilgan va Markaziy davlat arxivining fashistlarga qarshi Slavyan qo'mitasida saqlanayotgan xatlaridan birida shunday jum-lalar bor: „Oksford lug'ati ayrim rus so'zlariga qonuniy tus berdi, endilikda ular dunyo miqyosida e'tirof etiladi; jum-ladan, lug'atga tarjima qilib bo'lmaydigan, ko'p ma'no-li „podvig“, ya'ni „jasorat“ so'zi qo'shildi. Har qancha ajablanarli bo'lmasin, Yevropadagi birorta xalqning tilida mazmunan unga yaqin bironta ham so'z yo'q...“ Agar qachonlardir jahon xalqlari tilida ruscha „podvig“ so'zi ham ommalashsa, bunda sovet ayoli urush yillarida ko'rsatgan jasorat ham alohida o'rinn tutadi; zotan, ayollar urush or-tida mardona mehnat qildilar, bolalarni saqlah qoldilar va erkaklar bilan birga Vatanni himoya qildilar.

...Odamlarning hasratlari va xotiralari yastangan uzundan uzun qayg'uli yo'l bo'ylah to'rt yildan buyon mashaqqatli safar qilayotirman. Tibbiyat xodimlari, alo-qachilar, sapyorlar, uchuvchilar, merganlar, o'qchilar, zenitchilar, siyosiy xodimlar, kavaleristlar, tankchilar, desantchilar, dengizchilar, yo'l harakatini tartibga soluvchilar, haydovchilar, dala kir yuvish-hammom otryadlarining oddiy askarlari, oshpazlar, novvoylar, xul-las, frontda turli vazifalarni bajargan ayollarning yuzlab xotiralari yozib olindi, partizan va qo'poruvchi xotinqizlarning guvohliklari to'plandi. „Og'a-inilari, tur-mush o'rtoqlari, otalari singari xotin-qizlar ham puxta o'zlashtirmagan harbiy ixtisoslikning topilishi dargu-mon“, – deb yozgandi sobiq Ittifoq marshali A.I. Yermenko. Ularning orasida tank batalyonining yoshlar yetakchisi ham, og'ir tanklarning mexanik-haydovchilari

¹(Nikolay Rerix (1874–1947) – rossiyalik musavvir, faylasuf, yozuvchi va arxeolog (Izohlar tarjimonlarniki).

ham, piyoda qo'shinlar safida esa – pulemyot rotasining komandiri, avtomatchilar ham bo'lgan. Holbuki, ayollar ilgari bunday ish bilan shug'ullanmagan.

Komsomol yo'llanmasi bilan qariyb 500 ming qiz armiyaga safarbar qilingan, ularning 200 mingi yoshlar tashkilotining a'zosi edi. Yoshlar tomonidan yo'llangan barcha qizlarning yetmis foizi harakatdagi qo'shinlar safida bo'lgan. Urush yillarida turli qo'shinlar safida frontda hammasi bo'lib 800 mingdan ortiq xotin-qiz ishtirok etgan...

Partizanlar harakati yalpi tus oldi. Faqat Belorussiyadagi partizan otryadlarida qariyb 60 ming jasoratl xotin-qiz bo'lgan. Ularning har to'rttadan bittasi Belorussiya zamindagi fashistlar tomonidan yondirilgan yoki o'ldirilgan...

Raqamlar – shunday. Biz ularni bilamiz. Raqamlar ortida esa urush tamomila izdan chiqqargan taqdirlar, umrlar joy olgan: kimdir yaqinlarini yo'qotgan, kimdir sog'lig'ini boy bergen, qaysi bir ayol yolg'izlikka giriftor bo'lgan, boz ustiga chidab bo'lmaydigan urush xotiralari. Bular haqida biz oz bilamiz.

„Biz qachon tug'ilganimizdan qat'i nazar ayni qirq birinchi yilda barchamizning ko'zimiz ochilgan“, – deb yozgandi menga o'z xatida zenitchi Klara Semyonovna Tixonovich. Men qirq birinchi yilning qizlari haqida hikoya qilmoqchiman, aniqrog'i, ular bevosita boshdan kechirgan urush to'g'risida o'zlari aytib beradilar.

„Bu xotiralarni umrim mobaynida qalbimda saqlab keldim. Kechasi uyg'onib ketasan-da, ko'zlarining ochib yotaverasan. Ba'zida o'ylayman: barcha xotiralarni o'zim bilan birga narigi dunyoga olib ketaman, hech kim bilmaydi, juda dahshatli voqealar...“ (Emiliya Alekseyevna Nikolayeva, partizan).

„...Bu xotiralarni kimgadir so‘zlab berish mumkinligidan, bizning ham davrimiz kelganidan juda xursandman...“ (*Tamara Illarionovna Davidovich, katta serjant, haydovchi*).

„Sodir bo‘lgan voqealarning hammasini sizga so‘zlab bergandan keyin yana el qatori yashay olmayman. Kasal bo‘lib qolaman. Men urushdan omon qaytdim, lekin yaralangan edim, uzoq paytgacha tuzalmadim, nihoyat, o‘zimga o‘zim dedim: „Bularning barchasini unutish kerak, yo‘qsa, hech qachon sog‘aymayman. Siz shu qadar yoshsizki, urush dahshatlarini so‘zlab, sizning ko‘nglingizni xira qilgim kelmayapti...“ (*Lyubov Zaxarovna Novik, starshina, tibbiyot xodimasi*).

„Erkak bardosh bera olardi. Axir, u erkak kishi. Ayollar barchasiga qanday bardosh bergenini o‘zim ham anglay olmayman. Endilikda eslaganim hamono meni dahshat chulg‘ab oladi, urushda esa hammasiga chidardim: urush qurboni bilan yonma-yon uxlardim, o‘zim o‘q otardim, qon ko‘lmaklarini ham ko‘rganman, qordagi qonning o‘tkir hidi hamon dimog‘imdan ketmaydi... Bularni gapiryapman-u, ko‘nglim ozyapti... U kezlarda esa hammasini uddalardim. Nabiramga hikoya qila boshlagandim, kellmim meni to‘xtatdi: „Bularning yosh qizaloqqa nima keragi bor?..“ Ma’suma qizaloq voyaga yetmoqda... U ulg‘ayib ona bo‘ladi... Shu tariqa birovga og‘iz ocha olmayman...

Biz ularni shunday avaylaymiz, keyin esa bizning qismatimizni farzandlarimiz juda oz biladilar-a, deya ajablana-miz...“ (*Tamara Mixaylovna Stepanova, serjant, mernan*).

....Dugonam va men kinoteatrga bordik, u bilan qirq yildan buyon do‘stmiz, urushda maxfiy ish olib borganmiz. Kinoga chipta olaylik desak, navbatda tur-

ganlar juda ko'p. Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisi guvohnomasi dugonamning cho'ntagida ekan, kassa yoniga borib, uni ko'rsatdi. Chamasi, o'n to'rt yoshlardagi qizaloq esa ta'na qilganday dedi: „Sizlar ayol boshingiz bilan nahotki jang qilgansizlar? Bu guvohnomani qaysi karomatingiz uchun berishgan ekan-a?“ Boshqa odamlar, albatta, bizni navbatsiz o'tkazib yuborishdi. Lekin kino ko'rgani kelmadik. Chunki bezgakka chalinganday titray boshlagandik... „(Vera Grigorevna Sedova, yashirin ishlar qatnashchisi).

Men ham urushdan keyin tug'ilganman, bu paytga kelib okoplarni o't-o'lanlar qoplagan, askarlarning transheyalari chang bilan to'lgan, blindajlar vayron bo'lgan, o'rmonlarda qolgan askarlarning kaskalari esa zanglagan edi. Biroq urush halokatli nafasi bilan mening hayotimga ham raxna solmadimi? Biz hamon urush bilan o'ziga xos hisob-kitobga ega avlodlar jumlasiga kiramiz. Urushda o'n bitta qarindoshimdan judo bo'lganman: onamning otasi, ukrain bobom Petro, Budapesht ostonalariда mangu uyquga ketgan, otamning onasi, belorus Yevdokiya buvim esa partizanlar qamali chog'ida ochlik va terlamadan vafot etgan, uzoq qarindoshlarimizning ikki oilasini farzandlari bilan birga Gomel oblastining Petrikovsk tumanidagi men uchun qadrdon Komarovich qishlog'ida fashistlar bir kulbada yoqib yuborishgan, otamning akasi Ivan amakim esa ko'ngilli sifatida urushga ketib, qirq birinchi yilda dom-daraksiz yo'qolgan.

Mening „urushim“ ham to'rt yildan buyon davom etayotir. Qayta-qayta dahshatga tushganman. Ne hasratlarga duchor bo'lmadim. Yolg'on gapirib nima qilaman – bu mening qo'limdan keladigan ish emasdi. Eshitganlarimning barchasini unutishga urinmadim. Biroq buning ud-

dasidan chiqa olmadim. O'tgan davr mobaynida kundalik tutdim, undagi qaydlarni ham qissaga kiritishga qaror qildim. His-tuyg'ularim, boshimdan kechirganlarim, hatto izlanishlarimning jo'g'rofiyasi ham kundaliklarimda aks etgan: mamlakatming turli chekkalaridagi yuzdan ortiq shahar, qo'rg'on, qishloqlarda bo'lganman. „Men his qilyapman“, „Men qiyalyapman“, „Men shubhalanyapman“, deb o'z kitoblmda yozishga haqlimanmi, deya, rostini aytsam, uzoq vaqt ikkilandim. Urush ishtirokchilarining tuyg'ulari va iztiroblari oldida mening tuyg'ularim, meming izardorlarim nimaga ham arziydi? Tuyg'ularim, shubhalarim va izlanishlarim aks etgan kundalik biron odamda qiziqish uyg'otadimi? Lekin xatjiddarda hujjatlar ko'paygani sayin ishonchim ham qat'iy tus oldi: hujjat jamlangan ma'lumotlarga emas, balki ularni to'plagan odam ma'lum bo'sagima muayyan qimmat kasb etadi. His-hayajondan xoli xotiraning o'zi yo'q, har bir ma'lumotda uni qayd etgan insonning oshkora yoki pinhona kechinmalari aks etgan. Ayni kechinmalar ham oradan bir necha yil o'tgandan keyin o'ziga xos hujjat tusini olgan.

Tarixan shunday tarkib topganki, bizning urush bilan bog'liq xotiralarimiz ham, tasavvurlarimiz ham erkak-cha tusga ega. Bu o'z-o'zidan tushunarli: asosan, erkaklar jang qilgan, lekin ayni shu jihat urush haqidagi bilimlarimiz yetarli emasligini ham ko'rsatadi. Ikkinci Jahon urushida qatnashgan xotin-qizlar to'g'risida talay xotira kitobiari yozilgan bo'lib, shularning o'ziyoq tarixan favqulodda hodisa ro'y bergamiga bizlarni ishontiradi. Butun insoniyat tarixi mobaynida urushda hech qachon bunchalik ko'p ayollar ishtirok etmagan. O'tmishda otliq askar qiz Nadejda Durova, partizan ayol

Vasilisa Kojan kabi sanoqli siymolar bo‘lgan, fuqarolar urushi yillarida Qizil armiya saflarida ayollar bo‘lgan, lekin ular, asosan, shafqat hamshiralari va shifokorlar edi. Ikkinchı Jahon urushi yillarida sovet xotin-qizlari o‘z Vatanini ommaviy himoya qilganiga butun dunyo guvoh bo‘ldi.

A.S. Pushkin „Sovremennik“ jurnalida Nadejda Durovanimg xotiralaridan parcha e’lon qilar ekan, so‘zboshida shunday qayd etgandi: „Bimoyidek asilzoda oiladan chiqqan yosh qiz qanday tuyg‘ular og‘ushida o‘z uydigan, jinsidan kechib, hatto erkaklarni ham cho‘chitadi-gan zahmat va majburiyatlarni zimmasiga olgancha jang maydonida paydo bo‘lgan? Yana Napoleon qo‘sishnlariga qarshi jang maydomda! Uni bunga nima undagan? Pin-hona oilaviy nadomatlarmi? Balandparvoz orzularmi? Balki, tug‘ma tavakkalchilikdir? Yoki muhabbatmi?..“ Bu o‘rinda so‘z faqat bitta g‘ayrioddiy qismat haqida borardi, shu bois turlichcha taxmin qilsa bo‘lardi. Qurolli kuchlar safida sakkiz yuz ming xotin-qiz ishtirok etganda, yana ham ko‘prog‘i jang maydonlariga talpingan sharoitda esa manzara butunlay o‘zgaradi.

Ular jangga otlandilar, zotan, „Biz bilan Vatan – bir tan-u bir jonmiz“ (*Tixonovich K.S., zenitchi*). Janglarda ishtirok etishlari uchun ularga imkomiyat berdilar, chunki tarozi pallasiga xalq, mamlakat taqdiri qo‘yilgandi. Xalq ham, mamlakat ham halokat yoqasiga kelib qolgandi.

Bu kitobda qanday ma'lumotlar qay qoidalarga binanjan jamlangan? Mashhur mergan ayollar ham, mashhur uchuvchi-yu partizan qizlar ham hikoya qilmaydilar, ular haqida talay kitoblar yozilgan, men ularni ongli ravishda chetlab o‘tdim. „Biz urushda ishtirok etgan oddiy qizlarmiz, biz kabilar juda ko‘p“ – bunday e’tiroflarni

qayta-qayta eshitganman. Lekin aynan ularning huzuriga oshiqdim, ularni izladim. Biz ardoqlaydigan xalq xotirasi aynan ularning idrokida saqlanadi. „Biz ayollarning nigohi bilan nazar solsang, urush dahshatning ham dahshati ekamiga ishonch hosil qilasan“, – degan edi serjant, saninstruktor Aleksandra Iosifovna Mishutina. Urushni boshdan kechirgan, so'ng turmushga chiqqan, uch farzand ko'rgan, endilikda esa nabiralarini tarbiyalayotgan oddiy ayolning ayni shu so'zlarida mazkur kitobning bosh g'oyasi mujassam.

Optikada „yorug'lik kuchi“ degan atama bor; bu – obyektivning mo'ljalga olingen tasvirni yaxshi-yomon muhrlash qobiliyati. Ayollarning urush bilan bog'liq xotiralari ham tuyg'ularning tarangligi, iztiroblarning teranllgiga ko'ra benazir „yorug'lik kuchi“ga ega. Ularning xotiralari jo'shqin, ehtirosli, tafsilotlarga boy, zotan, ayni tafsilotlar tufayli har qanday hujjat alohida qimmat kasb etadi.

Aloqachi Antonina Fyodorovna Valegjaninova Stalingrad ostonalarida jang qilgan. Shiddatli janglarmi esga olar ekan, boshidan kechirgan tuyg'ularni hadeganda ta'riflab bera olmadi, keyin esa ularning barchasini yagona timsolga jamladi: „Bitta jang yodimga tushdi. Juda ko'p odam nobud bo'lgandi... Omoch bilan yer qaziganda kartoshkalarga o'xshab har yoqda sochilib yotishardi. Poyonsiz keng dala... Ketib borayotgan joyida yiqilib jon taslim qilishgan... Ularni kartoshkalar-day... Hatto insonni tuyoqlari bilan bosib o'tmaydigan aqlii jonivorlar – otlar ham o'liklardan tap tortmaydigan bo'lib qolishgandi...“ *Partizan Valentina Pavlovna Kojemyakina* xotirasida esa quyidagi voqeа muhrlanib qolgan: „Urushning dastlabki kunlari, bizning harbiy

qismlarimiz og‘ir janglar bilan chekinmoqda, ularni kuzatish uchun butun qishloq ahli ko‘chaga chiqqan, onalarning yonida qizlar ham turibdi. Yonimizdan o‘tib borayotgan keksa askar uyimizning ro‘parasida to‘xtab, onamming oldida boshi yerga tekkudek ta’zim qilib dedi: „Bizlarni kechirgin, onaxon... Qizingni esa avayla. O‘tinaman, avayla qizingni!“ O‘sanda o‘n olti yoshda edim, o‘rilgan sochlarmi uzundan uzun...“ U yana bir voqeani esladi, yaralangan dastlabki askar boshida yig‘lar ekan, u jon taslim qilish oldidan vasiyat qiladi: „O‘zingni asragin, qizim. Hali farzandlar tug‘ishing kerak... Qancha erkaklar nobud bo‘layotganini ko‘ryapsan-ku...“

Odatda, erkaklar e’tibor bermaydigan urush lavhalari ayollarning xotirasida qoladi. Agar erkaklarni urush xatti-harakatlari o‘z domiga tortgan bo‘lsa, ayollar o‘ziga xos psixologiyasi bilan uni o‘zgacha his qilgan va boshdan kechirgan: bombardimonlar, halokatlar, iztiroblar – ayol uchun urush faqat mana shulardan iborat emas. Ayol psixologik va fiziologik – jismoniy va ma’naviy o‘ziga xoshklari tufayli urushni kuchliroq his qilgan, diydasi qattiq urushni boshdan kechirish unga oson bo‘lmagan. Ayollar eslab qolgan, urush do‘zaxidan olib chiqqan xotiralar bugungi kunda shoyon ma’naviy tajribaga, beqiyos insoniy imkoniyatlar tajribasiga aylandi, biz bu tajribani unutmasligimiz kerak.

Harbiy va maxsus materiallar, balki, bu hikoyalarda oz bo‘lar (muallif o‘z oldiga bunday maqsad qo‘ymagan), lekin fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani ta’milagan materiallar unda keragidan ham ortiq bo‘ladi. Zotan, butun xalq zafar qozonishi uchun har bir odam shaxsan g‘alaba qilishi talab qilingandi.

Ular – urush qatnashchilari hall tirik. Lekin inson umri qisqa, uni faqat xotira uzaytira oladi, faqat xotira vaqtni yenga oladi. Beomon urushni boshdan kechirgan, unda g‘alaba qozongan odamlar o‘zlari qo‘lga kiritgan zafarning va boshdan kechirgan voqealar ming ahamiyatini bugun anglamoqdalar. Ular bizga yordam berishga tayyor. Men turli oilalarda yupqa va qalin maktab dastalarini qayta-qayta qo‘lga olganman, ular farzandlar va nabiralar uchun to‘ldirilgan va qoldirilgan. Buva yoki buvidan qolgan bunday meros begona qo‘llarga istamasdan topshirilgan, buni hamisha bir xil izohlashardi: „Bular farzandlarimizga xotira bo‘lib qolsin deymiz...“, „Sizga nusxa ko‘chirib beraman, aslini esa o‘g‘lim uchun asrab qo‘yaman...“

Lekin hamma ham xotira yozmaydi. Ko‘plab xotiralar boy beriladi, izsiz yo‘qoladi. Unutiladi. Agar urushni esdan chiqarmasak, unga nisbatan nafrat ortadi. Agar urush unutilsa, yangisi boshlanadi. Qadimiy hikmat bu.

Ayollarning jamlangan xotiralaridagi urush qiyofasi ayollarga xos ma’sumalikdan yiroq. Bular guvohlik – o‘tmishdagi fashizmga, bugungi fashizmga va kelajakdagi fashizmga aybnoma sifatida yangraydi. Onalar, singillar, rafiqalar fashizmni ayblaydi. Fashizmi ayol ayblaydi.

Ulardan biri ro‘paramda o‘tiribdi, onasi urush arafasida „ko‘chada yolg‘iz yurishga yoshlik qilasan“, deb hatto buvisining uyiga hamrohsiz jo‘natishdan xavfsiragan, oradan ikki oy o‘tgach, mana shu navnihol qizaloq frontga ketgan. Saninstruktor bo‘lgan, Smolenskdan Pragaga qadar janglarda qatnashgan. Yigirma ikki yoshda uyga qaytib kelgan, tengdoshlari endigina bo‘y yetgan qizlar, u esa butkul o‘zgacha hayotni bosh-

dan kechirgan, ko'plab voqealarning guvohi bo'lgan urush qatnashchisi: uch marta yaralangan, bittasi og'ir jarohat – ko'krak qafasi sohasida, ikki marta kontuziya bo'lgan, ikkinchi kontuziyadan keyin, ko'milib qolgan okop ichidan qazib olganlaridan so'ng sochiari qorday oqarib ketgan. Lekin ayollarga xos hayotni boshlash kerak: yana yengli ko'yaklar kiyishni o'rganishi, erga tegishi, bola tug'ishi kerak. Erkaklar urushdan nogiron bo'lib qaytganidan qat'i nazar oila qurishgan. Urushdan keyin ayollar qismati ko'pincha fojiali tus olardi. Ularning yoshligini ham, erlarim ham urush tortib olgan; ular bilan tengdosh yigitlarning oz qismi urushdan qaytib kelgan. Ular hisobotlarsiz ham buni bilishardi, chunki toptalgan jang maydonlarida yer tishlab yotgan yigitlarni unutishmagan edi va dengizchilar kamzulini kiygan bu alpqoinat yigitlar ortiq o'rnidan turmaydi, ular – otalar, erlar, aka-ukalar-u kuyovlar birodarlar qabristonlarida mangu qoladilar, degan fikrga sira ko'nika ohmasdilar. „Behisob odamlar yaralangandi, dunyoda yaralanmagan odam qolmaganday edi...“ (Anastasiya Sergeyevna Demchenko, katta serjant, hamshira).

Qisqasi, qirq birinchi yillarning qizlari qanday edi, ular frontga qanday jo'nagan? Ularning hayot yo'llari bo'ylah birga odimlaymiz.

„Eslashni istamayman...“

Minsk chekkasida urushdan keyin qurilgan eski uch qavatli uy, devorlari bo'ylab yasmin guli bo'y cho'zgan. To'rt yil davom etgan va men shu satrlarni yozayotgan ayni pallada ham to'xtamagan izlanishlar shu uydan boshlandi. Rostini aystsam, bunday bo'llshi o'shanda xayolimga ham kelmagandi.

Minsk shahridagi „Udarnik“ yo‘l mashinalari zavodida keksa hisobchi Mariya Ivanovna Morozovani nafaqaga kuzatganlari haqida gazetada bositgan chog‘roq maqolani o‘qib, shu uyga kelgandim. Maqolada yozilishicha, bu ayol urushda mengan bo‘lgan, o‘n bitta jango-var orden-medal olgan. Bu ayolning jangovar ixtisosligi osoyishta turmush paytidagi kasbi bilan sira qovushmas edi. Lekin aynan mana shu ziddiyatda 1941–1945-yillarda kimlar askar bo‘lgan, degan savolga javob topdim.

...Gazetada bositgan xira suratiga sira o‘xshamaydigan, uzun sochlarini boshiga chambarak qilib o‘rab olgan istarasi issiq mushtdekkina ayol katta o‘rindiqda yastangancha o‘tirarkan, yuzini qo‘llari bilan berkitib dedi:

— Yo‘q, yo‘q, eslashni istamayman... Asabim dosh bermaydi. Urush to‘g‘risidagi filmlarni ko‘rishga ham bardoshim yetmaydi... — Keyin so‘radi: — Men bilan suhbatalashish shartmi? Erim bilan gaplasha qoling, qoyil latib gapirib beradi... Komandirlar, generallarning ismi, harbiy qismlarning raqamlari – bari yodida. Men esa hammasini eslay olmayman. Faqat boshimdan o‘tganlari ni eslayman. Yuragimga muhrlangan voqealarni...

„Magnitofonni o‘chirib qo‘ying“, deb iltimos qildi:

— Sizning ko‘zlariningizga qarab hikoya qilish oson, magnitofon esa xalaqit beradi.

Lekin bir necha daqiqadan keyin magnitofonni unutdi...

Mariya Ivanovna Morozova (Ivanushkina), yefreytor, mengan:

„Bizning qishlog‘imiz o‘rnida hozir Moskvaning Proletar tumani joylashgan. Urush boshianganda hali o‘n olti yoshga ham to‘limgandim. Jamoa xo‘jali giga qatnab, hisobchilik kurslarini tugatgach, ishlay

boshladim. Bir vaqtning o‘zida harbiy bo‘lim qoshi-dagi kurslarda shug‘ullanardim. Bu kurslarda jangovar quroldan o‘q otishni o‘rgatishardi. To‘garakda qirqa qiz shug‘ullanardik. Bizning qishlog‘imizdan – to‘rtta, qo‘shni qishloqdan – beshta, qisqasi, har bir qishloqdan bor edi. Aytganimday, faqat qizlardan iborat to‘garak... Qo‘liga qurol olishga yaraydigan erkaklarning hammasi urushga ketib bo‘lgandi...

Tez orada Markaziy qo‘mitaning komsomollar va yoshlarga da’vati chiqdi, dushman Moskva ostonalariga kelib qolgan, Vatanim himoya qilish kerak edi. Faqat men emas, barcha qizlar frontga otlanish istagini bildirdilar. Mening otam allaqachon janglarda ishtirok etayotgandi. Faqat biz shunday fikrdamiz, deb yanglishibmiz... Harbiy bo‘limga kelsak, bizga o‘xshagan qizlar juda ko‘p ekan. Safimizdan qizlarni birma-bir saralab olishdi. Eng avvalo, albatta, mustahkam sog‘lik talab qilinardi. Bolaligimda tez-tez dardga chalinib, zaif bo‘lganim uchun meni olishmasa kerak, deb qo‘rqqanman. Qolaversa, frontga boradigan qizdan keyin uyda boshqa farzand qolmasa ham rad etishardi, onam qarovsiz qoldirib bo‘lmassi. Mening esa ikki singlim va ikki ukam bor edi, mendan ancha yosh bo‘lishsa ham hisobga o‘tar-di-da. Lekin yana bir muammo – xo‘jalikdan hamma ketgan, dalada ishlaydigan odamning o‘zi yo‘q edi, shu bois xo‘jalik raisi bizga ruxsat berishni istamasdi. Xul-las, bizni olishmadи. Hammamiz tuman yoshlari qo‘mitasiga bordik, u yerda ham iltimosimiz yerda qoldi.

Biz butun tumandan vakil bo‘lib viloyat yoshlari qo‘mitasiga yo‘l oldik. Iltimosimizni yana rad etishdi. Nihoyat, axir Moskvada yashaymiz-ku, deb yoshlari Markaziy qo‘mitasiga borishga qaror qildik. Ichimizdan

qaysi birimiz jur'at bilan murojaat qilamiz, deb o'yga toldik. Qo'mltada yolg'iz o'zimiz bo'lamiz, deb o'yla-gandik, u yerda esa yo'lakka odam sig'maydi, kotibning yaqiniga yo'lab bo'lmaydi. Butun Ittifoqdan yoshlар kelgan, bosqinni boshdan kechirgan, nobud bo'lgan ya-qin qarindosh-urug'lari uchun qasos olishga shaylangan yoshlар ko'pchilik edi.

Nihoyat, kechga borib kotibga uchradik. Bizdan so'-rashdi: „Miltiq otish qo'lingizdan kelmasa, frontga borib nima qilasizlar?“ Biz otishni o'rganib olganimizni aytdik... „Qayerda?.. Qanday qilib?.. Yaradorlarning yaralarini bog'lash ham qo'lingizdan keladimi?“ Harbiy bo'lim qoshidagi to'garakda tuman shifokori bizga yaralarni bog'lashni o'rgatgandi. Bizning qo'limizdan ancha ish kelardi, qolaversa, yolg'iz o'zimiz emas, yana qirq kishi bor, hammamizning qo'limizdan o'q otish ham, dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish ham keladi, deb aytdik. „Mayli, hozircha sabr qilinglar. Sizlarning masalangiz ijobiy hal qilinadi“. Haqiqatan ham, oradan ikki kun o'tgach, frontga yo'llanma oldik...

Darhol harbiy bo'limga keldik, bizni bir eshikdan kiritib, boshqasidan chiqarishdi: chirolyi o'rilgan sochimni hamisha ko'z-ko'z qilardim. Tashqariga chiqqanimda sochim kalta qirqilgandi... Ko'ylakmi ham gimnastyor-kaga almashtirdik. Ko'ylagimni ham, kokillarimni ham onamga berishga ulgurmadi... Onam sendan nimadir esdalik bo'lib qolsin, juda o'tingandi... Egnimizga gim-nastyorka, boshimizga pilotka kiydirishdi-da, qo'limizga yo'l to'rvasini tutqazib, yuk poezdiga o'tqazishdi...

Bizni qaysi qismga qo'shishlarini ham, qayerga yubo-rishlarini ham bilmasdik. Aynan mma qilishimizning de-yarli ahamiyati yo'q edi. Faqat frontda bo'lsak, bas. Bar-

cha jang qilayotir – biz ham jang qilamiz. Shchelkovo stansiyaga yetib keldik, uning yaqinida ayollar menganlik maktabi bor ekan. Bizni shu maktabga joylashtirishdi.

O'qish boshlandi. Garnizon xizmati, intizom nizomi, məqoblanish, kimyoviy himoyalanish kabi nizom-larni o'rgandik. Barcha qizlar astoydil g'ayrat qilishdi. Menganlar miltig'ini ko'zimizni yumib qismlarga ajratib, yana yig'ishni o'zlashtirdik, shamolning tezligini, nishonning harakatlanishini, nishongacha masofani aniqlashni, o'ra kovlashni, yer bag'irlab emaklashni – barcha-barchasimi eplay oladigan bo'ldik. Kursni tugatishda o'q uzish va safda yurish imtihonlarini „a'lo“ baholarga topshirdim. Eng qiyini, hech esimdan chiqmaydi, „trevoga“ e'lon qilingan zahoti besh daqiqaning ichida o'rindan turib, tayyor holda safda turish edi. Fursatni boy bermaslik, tez tayyor bo'lish uchun bir-ikki o'lcham katta etik olardik. Ba'zida yalangoyoq bilan etikni kiyib olib, safga turib olardik. Bitta qizning oyog'ini sovuq urishiga bir baxya qolgan. Starshlna bilib qolib, dakki bergan, keym bizga paytavani qanday o'rashni o'rgatdi. Boshimizda turib olib, o'shqirardi: „Fritslarning o'qlariga uchmaslik uchun sizlarni qanday tarbiyalasam ekan-a?“

Nihoyat, frontga yetib keldik. Orsha¹ bo'sag-asidamiz... Oltmis ikkinchi o'qchi diviziya... Kechagidek yodimda, komandir polkovnik Borodkin bizga ko'zi tushib ranjidi: menga qizlarni ro'para qilishibdi-yu... Lekin keyin xonasiga taklif qilib, tushlik bilan siyladi. Yonidagi adyutantiga yuzlandi: „Choy bilan ichish uchun shirinlik yo'qmi?“ Endi biz ranjidik: hizni kim deb o'ylayapti? Jang qilish uchun kelganmiz axir... U bizga askarlar

¹Orsha – Belorussiyadagi shahar nomi.

emas, qizlardek muomala qilayotgandi. Yoshimizga ko‘ra qizi qatori edik. „Sizlar bilan nima ham qillardim, qizaloqlarim?“ – u bizni shunday hafsalasizlik bilan kutildi. Biz esa o‘zimizni allaqachon jangchi hisoblay boshlagandik...

Ertasiga bizdan o‘q otish, joylarda niqoblanishni amalda ko‘rsatish talab qilindi. Hatto erkak merganlardan ham yaxshiroq o‘q otdik, ularni frontning oldingi marrasidan ikki kunlik kurslarga chiaqirishgandi. Keyin esa joylarda niqoblanish... Polkovnik kelib maydonni ko‘zdan kechira boshladi va do‘ppaygan joyning ustiga turib oldi – uning ko‘zi hech vaqoni payqamasdi. Daf’atan uning oyog‘i ostidagi do‘nglik tilga kirdi: „Voy, o‘rtoq polkovnik, ortiq chiday olmayman, juda og‘ir ekansiz“. Hamma baralla kulib yubordi. Shu darajada yaxshi niqoblanish mumkinligini polkovnik xayoliga ham keltirmagan ekan. „Qizaloqlar degan so‘zimni qaytarib olaman“, – dedi u. Lekin har safar oldingi marraga otlanganimizda iztirobga tushar, bizdan xavotirlanar, ehtirot bo‘linglar, bo‘larbo‘lmasga tavakkal qilaver manglar, deb tayinlardi.

Birinchi marta „ov“ga (merganlarda bu shunday atladi) chiqdik, sheringim Masha Kozlova edi. Yer bag‘irlab yashirinib yotibmiz: men kuzatyapman, Masha miltig‘ini shay ushlab olgan. Birdan Masha menga dedi:

– Ot, otsang-chi! Nemisni ko‘rmayapsanmi?..

Men javob qaytardim:

– Men kuzatyapman. O‘zing ot!

– Kim otishini hal qilguniniizcha, – deydi u, – nemis g‘oyib bo‘ladi.

Men esa e’tiroz bildiraman:

– Avval o‘q otish xaritasini tuzishimiz, imorat-u, qayin qayerda joylashganini aniq bilib olishimiz kerak...

Masha menga jahl qila boshladı.

– Maktabdagidek qog'ozlarni pesh qilmoqchimisan? Men qog'ozbozlikka emas, jang qilish uchun kelganman!

– Jang qilish uchun kelgan bo'lsang, otmaysanmi?

Ikkalamiz gap talashyapmiz. Bu orada nemis ofitseri, haqiqatan ham askarlarga ko'rsatmalar berardi. Arava keldi, askarlar qandaydir yukni qo'lma-qo'l uzata boshlashdi. Ofitser esa biroz turib, nimadir degach, g'oyib bo'ldi. Biz esa tortishyapmiz. Ofitser yana ikki marta ko'rindi, yana fursatni boy bersak, uni qo'ldan chiqarishlmizni angladim. Uchlnchi bor paydo bo'lganda, – ko'z ochib-yumguncha ko'rinar, yana g'oyib bo'lardi – otishga ahd qildim. Ahd qildimu ko'nglimdan bir fikr kechdi: dushman bo'lsa hamki bu axir odam... Kutilmaga qo'llarim qaltiray boshladı, butun tanam titrab, seskanib ketdim. Qandaydir qo'rquv... Yog'och nishonlardan ko'ra tirik odamga qarata o'q uzish qiyin edi. Lekin o'zimni qo'lga olib, tepkini bosdim... U qo'llarini silkitib yiqildi. O'ldimiyo'qmi, bilmayman. Biroq battar titray boshladim, vujudimni allaqanday qo'rquv qamrab oldi: men odam o'ldirdim...

Qaytib kelgach, boshdan kechirganlarimm gapi-rib bergenimdan keyin yig'ilish o'tkazildi. Yoshlar yetakchisi Klava Ivanova zo'r berib menga uqtirardi: „Ularga rahm qilish kerak emas, nafratlanish kerak...“ Uning otasini fashistlar o'ldirgandi. Jo'r bo'lib ashula ayta boshiasak, yalingansimon derdi: „Qizlar, ashula ko'ngilga sig'maydi, avval g'alaba qozonaylik, keyin istagancha kuylayverasizlar“.

Bir necha kundan keyin Mariya Ivanovna qo'ng'iroq qilib, quroldosh dugonasi Klavdiya Grigorevna Kroxi-

naning uyiga taklif qildi. Qizlarning askarga aylanishi – hatto dushmanhi o'ldirishi oson kechmaganiga oid hikoyalarga yana qulqututaman.

Klavdiya Grigorevna Kroxina, katta serjant, mengan:

„Biz yotib oldik, men kuzatyapman. Bitta nemis boshini ko'targamini ko'rdim. Tepkim bosdim va u yi-qildi. Ishonsangiz, a'zoyi badanim titray boshladidi. Yig-lab yubordim. Nishonga beparvo o'q uzgandim, bu yerda esa nahotki odam o'ldirgan bo'lsam?..

Keyin bu o'tib ketdi. O'sha voqeа shunday bo'lgan edi: sharqiy Prussiyaning chog'roq shaharchasi ichidan o'tib borardik. Yo'l bo'yida oddiy imoratmi-uymi, bilib bo'lmasdi, yonib kul bo'lgan, faqat cho'g'lar qolgandi. Ana shu cho'g'lar orasida odam suyaklari, ularning orasida cho'g'langan yulduzchalar ko'zga tashlanardi, bu yerda bizning yaradorlarimiz yoki asirlarni yoqib yuborishgandi... Shundan so'ng qancha dushmanni o'ldirmay, sira ham achinmaganman. O'zimiznikilarning kuygan ustuxonlarini ko'rgach, o'zimizni qo'lga ololmadik, faqat nafrat va qasos olish tuyg'usi bizni qamrab olgandi.

...Urushdan sochlarim oqarib qaytganman. Yigirma bir yoshdaman-u sochlarim qorday oppoq. Jarohatim ham bor, kontuziya bo'lгandim, bir qulog'im yaxshi eshitmasdi. Onam bag'rini katta ochib kutib oldi: „Sog-omon qaytishingga ishongan edim. Seni kecha-yu kunduz duo qildim“. Akam frontda halok bo'pti. Onamming ko'zyoshlari tinmasdi:

– Endi qiz tug'sang ham, o'g'il tug'sang ham, maylli, tug'sang, bas. U-ku erkak edi, Vatanni himoya qilish uming burchi, sen axir qiz bolasan.

Men faqat bir narsani takrorlardim, yarador bo'lгandan ko'ra o'lganim yaxshi, nogiron ayol kimga ham kerak?

Men belorus emasman, meni bu yoqqa erim olib kelgan, asli Chelyabinsk viloyatidanman, xullas, bizda qandaydir kon ishlari olib borilardi. Portlatish ishlari, asosan, tunda bajarilardi, portlatishlar boshlangan hamono o'mimdan irg'ib turib, shinelimga yopishardim va o'zimni duch kelgan tomonga urardim. Onam meni tutib olib, bag'riga bosar, yosh boladay ovutardi.

Xona issiq, lekin Mariya Ivanovna og'ir movut ro'molga o'ranib olgan – eti uvushmoqda edi. Suhbatni u davom ettirdi:

– Razvedkachilarimiz nemis ofitserlaridan birini asir olishdi va u qo'l ostidagi ko'plab askarlar halok bo'lganini, hammasi boshidan yaralanganini ajablanib gapirib berdi. G'animning boshini hamma ham mishonga olavermaydi, deb ta'kidladi. „Mening shuncha askarimni o'ldirgan merganni ko'rsatinglar, – deb iltimos qildi. – Talaygina qo'shimcha kuchiar kelgandi, kuniga o'ntadan askarimdan ayrildim“. Polk komandiri esa shunday javob berdi: „Afsuski, uni ko'rsata olmayman, bu mergan qizning ishi, u halok bo'ldi“. Bu Sasha Shlyaxova edi. U merganlarning o'zaro otishuvida halok bo'ldi. Qizil sharfi bechoraning boshiga yetdi. Bu sharfni u juda yaxshi ko'rardi. Qizil sharf esa qorda yaqqol ko'zga tashlanadi. Nemis ofitseri bu mergan qizning ishi ekanini eshitgach, boshini egib mima deyishni ham bilmay qoldi...

Biz juft-juft bo'lib „ovga“ chiqardik, tong qorong'isidan shomgacha, yakka odamga qiyin, ko'zlar yoshlana boshlaydi, qo'llar toliqadi, diqqat bilan tikilaverganindan butun tanang uvushib qoladi. Qishda, aymqsa, og'ir. Bag'ringni berib yotganidan ostingdagi qor eriy boshiaydi. Tong g'ira-shira yorishgani hamon qismidan chiqib, shom tushganda qaytardik. O'n ikki

soatlab, hatto undan ham ko'proq vaqt mobaynida qorda yotardik yoki daraxtlarning ustiga, hiron imorat yo vayrona uyning tomiga chiqib olib, dushman qayerda ekanimizni payqamasligi uchun berkinib olgancha kuzatardik. Imkon boricha yaqinroq joylashishga harakat qilardik: nemislar joylashgan transheyalargacha bo'lган masofa yetti yuz, sakkiz yuz, ba'zida besh yuz metrcha bo'lardi.

Qayerdan bunchalar jur'atli bo'lganimizni o'zim ham bilmayman. Ayol zoti hech askar bo'lmasin-da. Sizga bir voqeani aytib beraman...

Biz hujumga o'tdik, shiddat bilan olg'a borardik. Hujum qila turib holdan toydik, ta'minot ortda qolib ketdi: o'q-dorilar tugadi, oziq-ovqat ham sob bo'ldi, dala oshxonamiz ham snaryad tegib ishdan chiqdi. Uch kundirki, qotgan non bilan qanoatlanamiz, tillarimiz shilinib ketganidan kalimaga kelmaydi. Mening sherigim halok bo'ldi, men yangi sherigim bilan oldinga intillardim. Daf'atan „betaraf“ maydonda toychoqqa ko'zimiz tushdi. Shunaqa bejirimki, dumi moniqday... Go'yo hech qanday xavf-xatar yo'qday, urush bo'lmayotganday yayrab yuribdi. Um ko'rib nemislar ham bezovta bo'lib qolishdi. Bizning askarlarimiz ham attang, deganday o'zaro gap qotishardi:

- Qochib ketadi. Mazali sho'rva bo'lardi-da...
- Bu joydan avtomatning o'qi yetmaydi...
- Ular bizni ko'rib qolishdi.
- Merganlar kelishyapti. Hozir boplashadi... Qani, qizlar!..

Nima qilamiz? Men o'ylyashga ham ulgurmadi. Nishonga olib o'q uzdim. Toychoqning oyoqlari bukilib, yerga quladi. Ingichka kishnaganimi shamol olib keldi.

Nihoyat, o'zimga keldim: nima qilib qo'ydim? Shunday chiroyli toychoqni o'ldirdim, qozonga tiqdim! Ortimda kimdir piqillayotganim eshitdim. O'girilsam, yangi sherigim.

– Senga nima bo'ldi? – deb so'radmin.
 – Bechora toychoq... – ikki ko'zi to'la yosh.
 – Voy, senday rahmdildan o'rgildim! Biz uch kundan buyon ochmiz. Hali hech kim bilan vidolashganing yo'q, barcha quroq-aslaha bilan, buming ustiga ochdan och kuniga o'ttiz kilometrlab masofani ko'rdim demay bosib o'tmagansan, shuning uchun rahming kelyapti. Oldin fritslarni quvib chiqarishimiz kerak, undan keyin ko'ngilga kelganini qilaveramiz...

Askarlarga nazar tashlayman, hozirgina meni qutqulab, qichqirib, iltimos qilishayotgandi. Hech kim men tomonga qaramaydi, e'tibor ham bermaydi, hamma o'z ishi bilan band. O'z holimga tashlab qo'yishganday. O'tirib yig'lay boshlasam ham parvo qilishmaydiganday. Go'yo men o'ta shafqatsiz kimsaman-uduch kelgan jonzotni o'ldirish menga cho't emasday. Men esa bolaligimdan jonzotlarni yaxshi ko'rardim. Boshlang'ich sinflarda o'qib yurganimda sigirimiz kassal bo'lib qoldi, keyin uni so'yishdi. Men ikki kun yig'laganman. Shunchalar yig'laganmanki, hatto biron korhol bo'lmasin, deb onam xavotirga tushlb qolgan. Bu yerda esa himoyasiz toyga qarata o'q uzzdim.

Shomda kechki ovqat keltirishdi. Oshpazlarning tilidan bol tomadi: „Yashavor, mergan... Bugun nihoyat, go'shtli ovqat pishirdik...“ Oldimizga tovoqlarni qo'yib chiqib ketishdi. Qizlar esa mum tishlaganday jim o'tirishar, hech kim ovqatga qo'l uzatmasdi. Hammasini tushunib, ko'zimga yosh olib yerto'ladan chiqdim... Qiz-

lar ortimdan ergashib, menga taskin bera boshladi. Ni-hoyat, hamma qo‘liga qoshiq olib, ovqatlanishga kirishdi... Shunaqasi ham bo‘lgan...

Tunda, albatta, gaplashib yetamiz. Nimalar haqida deysizmi? Albatta har kim o‘z uyi, onasi haqida gapirardi, kimdir jang qilayotgan otasi yoki akasini eslardi. Urushdan keyin nima ish qilishimiz haqida ham suhbatlashardik. Qanday turmushga chiqamiz, erimizga xush yoqarmikanmiz? Kapitanimiz esa hazillashardi:

– Eh, qizlar-ey! Bir-biringizdan qolishmaysiz, lekin urushdan keyin hamma ham sizlarga uylanavermaydi. Chunki juda mergansizlar, hatto likop hilan manglayni aniq nishonga olib, o‘ldirib qo‘yishingiz hech gap emas.

Men erimni urushda uchratganman, bitta polkda bo‘lganmiz. U ikki marta yaralangan, kontuziya bo‘lgan. Urushda boshdan oxirigacha qatnashgan, bir umr harbiy bo‘lgan. Asabim tarang ekanini unga tushuntirishming hojati yo‘q. Baland ovoz bilan gapira boshlasam yoki e’tibor bermaydi, yo sukut saqlaydi. O’ttiz yildan buyon birga yashaymiz, oramizdan qil ham o’tmaydi. Ikki farzandni voyaga yetkazdik, oliy ma’lumotli qildik.

Sizga yana nimalarni so‘zlab bersam ekan... Urushdan keyin Moskvaga qaytib keldim. Moskvadan bizning uyimizgacha avval mashinada, keyin esa piyoda bir necha kilometr yo‘l bosish kerak. U yerlarda hozir metro qatnaydi, ilgari esa olchazor bog‘lar, chuqur jarliklar bo‘lardi. Bitta jarlik juda katta bo‘lib, undan o’tishim kerak edi. Bu yerga yetib kelguncha qorong‘i tushib qoldi. Tabiiyki, men jarlikdan o‘tgani qo‘rqdim. Nima qilishni bilmay turib qoldim: ortimga qaytib tong otishini kutaymi yoki yurak yutib jarlikdan o‘taymi? Hozir o‘ylasam, kulgim qistaydi – butun frontni bosib o’tdim,

nimalarni ko'rmadim: necha marta o'lim bilan yuzma-yuz keldim, boshqa dahshatlarning guvohi bo'ldim, bu yerda esa jarlikdan o'tishga yuragim dov berma-yapti. Ma'lum bo'lishicha, urush siyratimizni o'zgartira olmabdi. Germaniyadan uyga qaytar ekanmiz, vagonda kimningdir yo'l xaltasidan sichqon sakrab chiqdi, vagondagi qizlarning hammasi tipirchilab qoldi, yuqori o'rindiqdagi qizlar ham polga uchib tushdilar. Biz bilan birga kelayotgan kapitan esa o'z ko'ziga ishongisi kelmasdi: „Har biringizning ko'ksingizni orden-medallar bezah turibdi-yu, sichqondan qo'rqasizlar-a“.

Baxtimga yuk mashinasi yaqinlashib kela boshladi. Qo'limni ko'targan edim, mashina to'xtadi.

– Mem Dyakovskiyga tashlab o'tmaysizmi? – deb iltimos qildim.

– Men ham Dyakovskiygacha boraman, – deb kului haydovchi yigit.

Men haydovchiming yoniga joylashdim, yigitcha jomadonimni mashina kuzoviga tashladi va biz yo'lga tushdik. Egnimdag'i harbiy libos, ko'ksimdag'i nishon-larga ko'zi tushdi. Qiziqib savol berdi:

– Qancha nemisni yer tishlatding?

Men xotirjam javob berdim:

– Yetmish beshta.

U esa biroz istehzo bilan:

– Aldama, balki, bittasini ham ko'rmagandirsan?

Men daf'atan uni tanib qoldim:

– Kolka Chijov? Senmisan? Senga galstuk taqqanim esingdami?

– Urushdan oldin maktabda bir muddat kashshoflar yetakchisi bo'lgandim.

– Maruska, nahotki sen?

— Menman...

— Rostdanmi? — mashina tormozini bosdi.

— Uyimgacha eltib qo‘ymaysanmi, nima uchun yarim yo‘lda tormozni bosyapsan? — Ko‘zimda yosh o‘ynaydi, qarasam, uning ham ko‘zlarida yosh. Antiqa uchrashuv!

Bizning uyga yetib keldik, u jomadonimni olib, onamning qoshiga yugurdi:

— Chiqa qoling, qizingizni olib keldim!

Qaytib kelganimizdan keyin hammasini boshidan boshlashga to‘g‘ri keldi. Frontda uch yil faqat etik kiyganmiz, yana tuflida yurishni o‘rgandik. Belimizda qayish, xipcha qomatimiz hamisha tik, ko‘ylagimiz qopday osilib turganday, o‘zingni noqulay sezasan. Frontda yubka kiyishni xayolimizga ham keltirmasdik, shim kiyishga o‘rganib qolgandik, kechqurun yuvib, ostimizga to‘sab yotardik, ertalab dazmollanganday tekis bo‘lib qolardi. To‘g‘ri, to‘la qurimas edi, shuning uchun sovuqqa chiqsak, qirov bilan qoplanardi. Uyda esa tuqli va ko‘ylakda ko‘chaga chiqasan, ofitserni uchratib qolsang, beixtiyor, qo‘lingni chakkangga qo‘yib harbiychasiga salomlashishga chog‘lanasan. Urushda hech narsa sotib olmaslikka ham o‘rganib qolgandik, bu yerda do‘kondan keragicha non olib, haqini to‘lashni unutasan. Sotuvchi tanib qolgan emasmi, hammasini tushunib, andisha qilib indamay qo‘ya qoladi, sen esa nonning pulini to‘lamay chiqib ketasan. Keyin esingga tushib xijolat bo‘lasan, ertasiga kelib kechirim so‘rasan, yana nimadir xarid qilib, bir yo‘la barchasining haqini to‘laysan. Sotuvchilar bizdan ranjimas, gap nimada ekamini bilishardi...“

Suhbatdoshim xayolga toladi. Bu o‘rinda har qanday savol ortiqcha.

„...Yana esimda qolgan. Quloq soling. Urush juda uzoq davom etdi... Biroq qushlarni ham, gullarni ham eslay olmayman. Ular, albatta, bo‘lgan, lekin hech biri yodimda qolmagan. Ana shunaqa... G‘alati-a?..

Biz faqat yaqinda, sakkiz yil avval dugonamiz Mashenka Alximovani topdik. Artilleriya diviziya-sining komandiri jangda jarohatlanadi, Masha esa um qutqarish uchun eniaklab ketadi. Yonginasida snaryad portlaydi. Komandir halok bo‘ladi, Masha esa ikkala oyog‘idan ajraydi. Um medsanbatga eltar ekanmiz, yalinardi: „Qizlar, meni otib tashlanglar... Bu ahvolda kimga keragim bor?..“ Shunchalar o‘tindiki... Uni gospitalga jo‘natishdi, biz esa hujumni davom ettirdik. Shu asno uning izini yo‘qotdik. Biz uning qayerda ekani-yu, taqdiri qanday kechganini bilmasdik. Qayerga murojaat qilsak ham aniq javob topa olmadik. Bizga Moskva shahridagi 73-maktabning izquvarlari yordam berishdi. Ular Mashani nogironlar uyidan topishdi. Masha o‘tgan yillar mobaynida turli gospitallarda davolangan, o‘nlab jarrohlik muolajalarini boshdan kechiribdi. Tirik ekanini onasiga bildirmagan... Tasavvur qilyapsizmi? Mana sizga urush... Biz uni o‘zimizning uchrashuvga olib keldik. U rayosatda o‘tirgancha yig‘lardi. Keyin uni onasi bilan uchrashtirdik. Ular oradan o‘ttiz yil o‘tgan-dan keyin uchrashdi...

Urush hozir ham tushlarimizga kirib chiqadi. Ko‘zingni ochasan-u, tirik ekaningga ishonmaysan... Hech eslagim kelmaydi...“

Eski movut ro‘molga o‘ralib olgan mushtdekkina bu ayolning ko‘nglidan kechayotgan iztirobiarni his qilaman. „Qizalog‘im...“ deya iliq kaftini uzatib men bilan xayrleshadi.

Men yana yo'lga tushaman. Tamomila o'zgarib qolgandayman. Quyidagi so'zlarni eslab, yuragim uvushadi: „Urushdan omon kelganing bilan ruhan bemor bo'lib qolasan. Endi o'ylayman: oyog'im yoki qo'llimdan yaralanganim ma'qul edi, har holda biron joyim simillab bo'lsa ham og'rigan bo'lardi. Ruhiy xastalikning esa davosi yo'qday... Biz axir, urushga juda yosh ketganmiz... Endigina rasta bo'lgan qizlar... Urush yillari mobaynida esa hatto voyaga yetdik...“

*Kimlardir urushdan qaytmadi, evoh,
Qismat qahri qattiq, menda yo'q gunoh.
Kimdir yoshi katta, kimdir navqiron –
Manguga ko'z yumgan, balki bo'lsam mard
Ular menga hozir bo'lardi hamdard, –
To abad yurakni o'rtar shu armon...*

Aleksandr Tvardovskiy e'tirof etganidek, mening yuragimni ham armon o'rtaydi. Binobarin, frontda qatnashgan qizlarmi izlayman, ularning hikoyalarini daf-tarlarga, magnitofon kassetalariga yozib olaveraman, ular bilan birga ixtirob chekish asnosida umid bilan yashayman. Ishonch bilan kun kechiraman. Mening nigohim qarshisida yana bir urush namoyon bo'layotir: biz urush haqida ko'p narsalarni bilamiz va biz urush haqida hech narsa bilmaymiz.

**„Qizlar, biroz ulg‘ayimlar...
Hali juda yoshsizlar...“**

Magnitofon lentasidan yozib olingan sahifalarni va-raqlayman, xatlarni o'qib, tasavvur qilishga intilaman: qirq birinchi yilda chekinayotgan qismlar bilan birga ketgan, harbiy bo'linmalarning ostonasiga yotib olgan,

gohida rost, gohida bolalarcha yolg'on so'zlab, o'zlarini ikki-uch yosh katta qilib ko'rsatgancha, frontga talpingan bu qizlar, aslida, kimlar? Ularning o'zları oddiy niaktab o'quvchisi, tolibalar bo'lganmiz, deb eslashadi. Lekin olam bir kundayoq ular uchun ikkiga bo'lindi: biri, kum kecha ro'y bergen voqealar: maktabdag'i so'nggi qo'ng'iroq, bitiruv oqshomida kiyilgan yangi ko'yvak, ta'tillar, qishloq kasalxonasi yoki maktabdag'i talabalik amaliyoti, birinchi niuhabbat, kelajak orzulari... Va urush. Urush ularga sira tanlash imkoniyatini qoldir-madi. Ular hech ikkilanmay frontga otlandilar.

Mening boshimga ham shunday qismat tushganda nima qillardim, deb o'zimga savol beraman. Qadrdon kitoblarim, plastinkalar, ayni palla nur sochayotgan stol chirog'ining harorati ko'zimga o'zgacha ko'ri-nadi, devor ortida kuymalanayotgan onamning mehrini beixtiyor his qilaman... Barchasidan bir yo'la voz kechish osonmi? Qirq birinchi yilning qizlari shijoat bilan frontga otlanganiga shubha qilmayman, biroq... Yoshim ancha ulg'ayganiga qaramasdan, qat'iy qarorga kelishga shoshilmayman...

Moskvalik oddiy askar, aloqachi Zinaida Ivanovna Palshinaning xatidan:

„...Men frontga ko'ngilli bo'lib ketganman. Qanday bosh tortish mumkm? O'zgacha bo'lishi mumkin emasdi. Hamma g'ayrat kamarini mahkam bog'lagandi... Faqt frontga... Boshqa niyat bo'limgan...“

Ta'til vaqtida Jeleznovodskda dam olgamimda (bosh-lagan ishim bilan hamma joyda shug'ullanardim), hech kutilmaganda oddiy askar, sanitarka Natalya Ivanovna Sergeyeva bilan tanishdim. U ajoyib oilasi haqida shunday hikoya qilgandi: „Oilada sakkiz farzand edik, dast-

labki to‘rt farzandning hammasi qizlar, men – eng kattasi. Urush davom etyapti, dushman Moskva ostonalariga kelib qolgan... Otam bir kuni ishdan kelib, ko‘zida yosh bilan dedi: „Ilk ko‘z ohib ko‘rgan farzandlarim – qizlar, deb bir paytlar juda xursand bo‘lganman... Bo‘lajak kelinlar deb... Endi esa har bir oiladan kimdir frontga ketyapti, bizdan urushga boradigan odamning o‘zi yo‘q... Keksayib qolganim uchun meni olishmayapti, qizlar haqidagi gap ham bo‘lishi mumkin emas, o‘g‘illarim hali yosh...“ Bu oila a’zolarimizni jiddiy tashvishlantirgan.

Nihoyat, tibbiyat hamshiralari kurslari ochildi, otam men bilan singlimni u yerga boshlab bordi. Uning aytgan so‘zlari hech yodimdan chiqmaydi: „Men g‘alaba uchun bor-budimni – qizlarimni olib keldim“.

Bunday voqealar ko‘p bo‘lgan. *Sivashsk shahridan kichik serjant, aloqachi Antonina Maksimovna Knyazevadan kelgan xatda shunday satrlar bor:*

„Bizning onamiz o‘g‘il ko‘rmagan, beshta qiz voyaga yetardik. Onam bizni olib Stalingradga ketishga majbur bo‘ldi. Stalingrad qamal qilinganda esa biz ko‘ngilli bo‘lib frontga jo‘nadik. Hammamiz yo‘l oldik... Butun oila: onam bilan birga beshala qiz, otam allaqachon jang qilardi...“

Onalarga xos bunday jasoratdan ham yuksak oliyjanoblik bormikan? Kim ona qalbiga nazar solib, uning ko‘nglidan nimalar kechayotganimi bila oladi?

„Bizning, harbiy bo‘limga borib, frontga jo‘natishlarini iltimos qilamiz, degan bitta istagimiz bo‘lgan, – deb eslaydi Minsk shahridan serjant, yo‘l harakatini tartibga soluvchi Tatyana Yefimovna Semyonova. – Harbiy bo‘limga keldik, u yerdagilar esa shunday deyishdi: „Qizlar, biroz ulg‘ayinglar. Hali juda yoshsizlar“. O‘n olti,

o'n yetti yoshda edik... Lekin qat'iy turib oldim va meni olishdi. Dugonam bilan merganlar mактабида o'qimoq-chi edik, bizga boshqa ish taklif qilishdi: „Yo'l harakatini tartibga soluvchi bo'lasizlar, sizlarni o'qitishga vaqt yo'q“. Bizni olib o'tishlarini onam bir necha kun stansiya yada poylagan. Vagon tomon yurayotgammiz ko'rgam hamono menga shirinlik, o'ntacha tuxum tutqazdi-yu, hushidan ketib yiqlidi...“

Garchi ko'plab onalar haqida, garchi har kim o'z onasi haqida so'zlasa ham, go'yo hamma bitta ona haqida gapirayotganday.

Kapitan, shifokor Yefrosinya Grigoriyevna Breus xoritalaridan:

„...Oilada to'rtta qiz edik. Faqat men frontda bo'l-gannian. Mening qizim frontda, Vatanmi himoya qilyapti, deya otam juda xursand edi. Otam harbiy bo'limga erta tongda yo'l olgan. Butun qishloq ahli ko'rishi, uning qizi frontda ekanidan xabardor bo'lishi uchun ataylab erta tongda guvohnomamni olishga borgan“.

Jarrohlik hamshirasi Liliya Mixaylovna Budko hikoya qiladi:

„Urushning dastlabki kuni... Kechqurun raqs tushgani chiqqanmiz. O'n olti yoshdamiz. Hammamiz birga yurardik, oldin kimnidir, keyin esa boshqa birovni birgalikda kuzatamiz. Hech kim juft-juft bo'lib yurishni odad qilmagandi. Olti yigitcha va olti qizaloq hamisha birga edik.

Raqs tushganimizdan so'ng bizni kuzatib qo'yadi-gan tankchilar bilim yurtining kursantlarini ikki kundan keyinoq oyoq-qo'llari bog'langan, nogiron holda olib kelishdi. Bu dahshat edi. Agar kimdir hiringlagamini eshitsam, sira kechira olmasdim. Axir, dahshatli urush

ketayotgan bir paytda qanday qilib bemalol kulish, nimadandir mamnun bo'lish mumkin?

Ko'p o'tmay otam ko'ngilli bo'lib urushga ketdi. Uyda yosh ukalarim bilan qoldim. Ularning kattasi o'ttiz to'rtinchi, kichigi esa o'ttiz sakkizinchchi yilda tug'ilgandi. Va men onamga frontga ketaman, deb aytdim..."

Leytenant, kichik texnik Yevdokiya Petrovna Muravyeva:

„Urush boshlamishidan oldin aloqa texnikurnini tugatgandim. Kichik texnik unvonini berishdi. Va men darhol jang qilish uchun chog'landim. Urush, albatta, ayollarning ishi emas. Lekin biz jang maydonlarida kerak edik. Onam meni jangga kuzatar ekan, ko'zyoshlarini tiya olmadi, lekin o'zim ham shunday qilgan bo'lardim, deb aytdi. Onam ana shunday ajoyib ayol edi..."

Urushdan keyin „Shuhrat“ ordeni kavaleri bo'lgan, saninstruktor Polina Semyonovna Nozdrachyeva hikoya qiladi:

...Biz bo'yimizga qarab saf tortdik, men safning oxiridaman. Komandir odimlab ko'zdan kechirmoqda. Menga yuzlandi:

– Bu yana qanaqa Dyuymovochka? Sen nima qilmochchisan-a? Balki, onangning bag'riga qaytib biroz ulg'ayarsan?

Men esa allaqacion onamdan judo bo'lgandim..."

Kishinyovda leytenant, o'qchilar bo'g'inining komandiri, endilikda shahar kutubxonalaridan birida mudira bo'lib ishlayotgan Anna Stepanovna Mavreshko bilan uchrashdim:

„Komandir mendan so'radi:

- Sen kim bo'lishni xohlaysan?
- Ofitser bo'lishni!

Meni Smolensk artilleriya bilim yurtiga yuborishdi. Barcha imtihonlarni topshirdim. Billm yurtining boshlig'i huzuriga chaqirdi:

- Imtihonlardan o'tdingiz, lekin sizni bilim yurtiga qabul qila olmaymiz.
- Nima uchun?
- Sho'ro artilleriyasi tarixida hali bunday voqeа bo'lgan emas.
- Ilgari bo'lmagan bo'lsa, endi bo'ladi. Bu yerdan men faqat frontga jo'nayman. Va faqat ofitser bo'lib ketaman... Hatto uyimdagilarga ham shunday deb yozib yubordim...

Hamisha yigitlardek kiyinib yurardim. Qizlar hatto ishqiy maktublar yozishardi. Lekin bilim yurtini tugatdim...“

Vilnyusdan Monika Kazimirovna Trinkunaytedan maktub keldi:

„Mening musiqa tinglash qobiliyatim juda yaxshi edi. Onam men bilan faxrlanardi. Urush boshlanganda bu qobiliyatim frontda qo'l keladi, aloqachi bo'laman, deb qaror qildim...“

Zoya Ivanovna Shavruk, yefreytor, telefon aloqachisi:

„Yolg'on gapishtimga to'g'ri kelgan. Faqat yigirma beshinchi yilda tug'ilganlarni frontga olishardi, men esa yigirma yettinchi yilda tug'ilganman. Yoshimga ikki yil qo'shib, yigirma beshinchi yilda tug'ilganman, deb turib oldim. Ishomishdi, bo'yim novchagina edi-da. Onamga, albatta, to'g'risini aytmadim. Faqat harhiy bo'limga borgamini va meni Bryanskka ishga jo'natishayotganini aytdim. Harhiy qismga yetib kelgandan keyin hammasini ochiq yozib yubordim. Frontdan meni qaytarib keliishing iloji yo'q...“

Esten Borisovna Kojemyatnikova, yefreytor, feldsher:

„Otam fuqarolar urushida qatnashgan, bo‘linma komandiri edi. Onam hamisha uning yonida bo‘lgan. Onam – mehr-shafqat hamshirasi. Urushdan oldin „Komsomolskaya pravda“ gazetasida oilamiz haqida maqola chiqqan.

Urush paytida o‘qish haqida qanday gap bo‘lishi mumkin? Men institutni tashlab ketdim. Yolg‘iz men shunday qilganim yo‘q. Imtihon topshirish ham ko‘nglimizga sig‘madi. Biz janglarda qatnashishimiz kerak, shifokorlar eng avvalo frontga yo‘l olishlari lozim, deb hisoblardik.

Lekin bizni Pyatigorsk shahriga evakuatsiya qilishdi. Menda tibbiyot institutining uchinchi bosqichida o‘qiyotganimni tasdiqlaydigan ma’lumotnomha bor edi. Biz faqat uchinchi bosqichni tugatgandan keyin dastlabki shifokorlik amaliyoti bilan shug‘ullamishimiz kerak edi. Pyatigorskdagi gospitalda daf‘atan ishni boshlab yubordim – bir yuz qirqa og‘ir yaradorga xizmat ko‘rsatardim.

Ko‘p qon yo‘qotgan yaradorlarga qon yetishmasdi. Bizni bir stolga, yonimizdagи stolga esa yaradorni yotqizishardi. To‘g‘ridan to‘g‘ri qon quyilardi... Bir yo‘la to‘rt yuz gramm qon quyish kerak... O‘rnimizdan turgach, ikki stakan kakao bilan hir bo‘lak oq non berishardi. Qorinni biroz to‘qlab, yana ishga kirishardik. Bir gal kakaoni ichib, non bo‘lagini yeb oldim va o‘rnimidan turishim bilan boshim gir-gir aylamib ketdi. Kecha-yu kunduz uxlamasdik...

Lekin bu baribir front emasdi. Men esa frontda bo‘lishni istardim. Otam bilan onamga o‘xshab jangda qatnashsam derdim. Menda ota-onamning charm kurtka kiyib tushgan jangovar surati bor. Ular hech kimga o‘xshamasdi. Aytganimday, ikkalasi ham fuqarolar uru-

shida to'liq ishtirok etgan. Men ham o'sha urush yillari tug'ilganman. Bitta urushda tug'ilib, ikkinchisi boshlanishi arafasida voyaga yetganman..."

Sofya Mixaylovna Krigel, katta serjant, mengan:

„Qirq uchinchi yilning dekabrida bizning kabel rotamizni tarqatib yuborishdi. Barcha qizlarni uylariga jo'natishdi, lekin men Moskva yaqinida menganlar maktabi borligidan xabar topdim. Meni ham suhbatga chiqirishganda, uyimga qaytmayman, qo'limga qurol olib, frontning oldingi marrasida jang qilaman, dedim. Menga bo'lak hech vaqo kerak emas. Telefon o'z yo'liga. Qo'limda qurol bilan o'zim qasos olishim kerak. Yaqin kishilarimdan hech kim qolmagagini bilardim. Onam ham nobud bo'lgandi..."

Meni menganlar maktabiga yuborishdi, uni „a'lo“ baholar bilan tugatdim. Ertasigayoq meni ham frontga jo'natinglar, deb iltimos qildim, chunki hammani jo'natib, meni instruktor sifatida maktabda olib qolishmoqchi edilar. Bunday fikr esa mening xayollmga ham kelgani yo'q..."

Yevgeniya Sergeyevna Sapronova, gvardiya serjanti, aviamexanik:

O'zi tug'ilib o'sgan Yeles shahridan frontga ketgan. Ushbu voqeа bir umr uning xotirasida qolgan:

„Men onamdan faqat yig'lamang, deb o'tindim. Tun bo'lmasa ham g'ira-shira edi, onalarning oh-vohiga chidab bo'lmasdi. O'z qizlarini kuzatayotgan onalar naimki yig'lardi, balki rosmana faryod solardi. Lekin mening onam yig'lamas, haykalday qotib turardi. Menga achinmagan deysizmi? Nima bo'lsa ham tishini tishiga bosib turar, nazarimda, mening ham rosmana yig'lab yuborishimdan xavotir olardi. Men onamning arzandasasi, juda

erkatoy edim. Erkatoy qizaloqning boshini o'g'il bola kabi qirtishlab, peshonamda bir tutam soch qoldirishdi. Otam ham, onam ham ruxsat bermaganiga qaramasdan faqat frontga ketish fikri hilan yashardim. Hozir muzeylarda saqlanib qolgan „Ona Vatan chorlaydi!“, „Sen front uchun nima ish qilding?“ kabi shiorlar menga juda qattiq ta'sir qilgan. Front ortida yoshi o'tgan ayollar qolsa ham bo'ladi, men frontga jo'nashim kerak, deb ahd qilgandim.

Urushning oxiriga borib butun oilamiz jang qlldi hisob. Otam, onam, singlim – ular temiryo'lda mehnat qilishardi. Ular front bilan izma-iz yurib, temiryo'llarni tiklar edilar. Otam, onam, singlim va men – barchamiz „G'alaba uchun“ medali bilan taqdirlanganmiz...“

Stavrapol o'lkasidan serjant, hamshira Olga Mitrofanovna Rujitskayadan maktub keldi: „Frontga jo'naganimda havo juda yaxshi edi. Chinniday toza havo, maydalab yomg'ir tomchilaydi. Go'zal manzara... Er-talab chiqib, turib qoldim: nahotki ortiq bu yerga qaytib kelmasam? Onam yig'lar, meni bag'riga bosgancha qo'yib yubormasdi. Biroz yursam, yetib olardi-da, yana bag'riga bosardi... Men esa halok bo'lmasligimga, qaytib kelishimga ishonardim. Nega halok bo'lar ekanman? Kim meni o'ldiradi, qayerlardadir qolib ketamanmi?..“

Ularning har biri frontga o'ziga xos tarzda yo'l olgan. Lekin yagona maqsad – Vatan himoyasiga otlangan. Vazifa ham yagona – Vatanni xalos qilish edi.

Ularning fikr-mulohazalariga qo'shib-chatishning hojati yo'q. Keling, hikoya qilishni o'zlariga qo'yib beraylik...

Galina Dmitriyevna Zapol'skaya qurolli kuchlar safida telefon aloqachisi bo'lib xizmat qilayotganda urush boshlangan. Ularning harbiy qismi Borisovada edi, dastlabki haftalardayoq urush alangasi u yerni ham qoplab

olgan. Ota-onasi yaqm̄ atrofda yashagani uchun ular bilan osoyishta joylarga ko'chib ketishi mumkin edi. U esa dugonalari kabi boshqacha yo'l tutdi.

„Borisovadan, – deb hikoya qiladi Galina Dmitriyevna, – harbiy qism tarkibida Mogilevga chekindik. Nemislар shaharni, ayniqsa, aerodromni bombardimon qilishardi. Biz shu aerodromda aloqani yo'lga qo'yish bilan band edik. Kecha-yu kunduz bomba yog'dirishadi. Qo'shinlar chekimoqda...

Aloqa xizmati boshlig'i barchamizni safga tizdi. Biz askar emasdik, harbiy xizmatda hisoblanmasdik, erkm yollangan xizmatchilar edik. Boshliq bizga qarata dedi:

– Qizlar, beomon urush boshlandi. Urushda, ayniqsa, sizlarga qiyin bo'ladi. Kim xohlasa, fursatni boy bermay uyg'a qaytishi mumkin. Kim frontda qolishni istasa, bir qadam oldinga chiqsin...

Barcha qizlar kelishib olganday bir qadam oldinga tashladik. Yigirmatamiz. Barchamiz Vatanni himoya qilishga tayyor edik.

Kun-u tun tinim bilmasdik. Askarlar ovqatmi tovoqlarda apparatlarimiz oldiga olib kelishar, ovqatlanib, apparatlarning yonida biroz mizg'ib olib, yana ishga kiri shardik. Hatto bosh yuvishga ham qo'limiz tegmasdi, oxir-oqibat: „Uzun sochlarimni kesib tashlanglar“, – deb qizlardan iltimos qildim...“

Orenburg viloyatining Buzuluk shahriga urushming qadami yetmagan bo'lsa ham Lenochka Yakovleva urushga yuborishlarini iltimos qila boshladi. „Seni hali Lena deb emas, rosmana yosh qizaloqday Lenochka deb chaqirishadi, sen esa frontga yuboringlar, deb iltimos qilyapsan. Onangga rahm qilsang bo'lardi...“ – deya uni fikridan qaytarmoqchi bo'lardi qo'shni ayollar.

Lekin bu shijoatli qizni kim ham fikridan qaytara olardi? Darvoqe, Yuliya Druninaning she'ri yodingizdam:

*Vagonga ko 'chdim men bolaligimdan,
Lashkar, sanitarlar kabi soddadil.
Gohi qulog tutdim portlashlarga ham,
Bariga ko 'nikkan qirq birinchi yil.
Maktabdan keldim men zax o'ralarga,
Darg 'azab askarlar nimalar demas.
Zotan, topolmadim jumla jahonda
. , Rossiya " singari so 'zni, muqaddas.*

Starshina, hamshira Yelena Pavlovna Yakovleva hikoya qiladi:

....Necha qayta murojaat qilganimiz esimda yo'q, xuldas, navbatdagi gal kelganimizda harbiy bo'lim boshlig'i bizni sal bo'lmasa quvib solayozdi: „Loaqla bironta hunaringiz bo'lsa edi. Hamshirami, haydovchimi... Qani, qanday ishning uddasidan chiqa olasiz? Urushda nima qilib bera olasiz?..“ Biz odamlar ishlashiga xalaqt berayotganimizni bilmasdik. Nima ish qilamiz, degan savol oldimizda ko'ndalang bo'lмаган. Faqat jang qilishni istardik. Jang qilish ham muayyan ishni uddalash ekanini anglamasdik. Boshliqning savolidan keyin sarosimada qoldik.

Bir necha qizlar bilan hamshiralalar tayyorlash kursiga yo'l oldik. **U** yerda bizga olti oy o'qishingiz kerak, deb aytishdi. Yo'q, bu to'g'ri kelmaydi, olti oygacha sabrimiz chidamaydi, degan xulosaga keldik. Lekin uch oylik kurslar ham bor ekan. Uch oy ham bizga uzoq muddat tuyuldi. Lekin bu kursda o'qiyotganlar ta'limni tugatish arafasida ekan. Bizdan ham imtihon olishlarini iltimos qildik. Yana bir oylik o'qish qolgandi. Tun bo'yи gospitalda amaliyotni o'tasak, kun bo'yи ta'lim olardik. Imti-

honlarni topshirganimiz hamono bizni harbiy bo‘limga yuborishdi. Natijada, hamshiralar tayyorlash kursimi bir oydan sal ko‘proq vaqt ichida bitirdik...

Lekin bizni frontga emas, gospitalga yuborishdi. Qirq birinchi yilning avgust oyi oxirlari edi. Fevralda men gospitaldan qochib ketdim, qonunga xilof ish tutdim desa ham bo‘ladi, buni boshqacha atab bo‘lmaydi. Hujjatlarsiz, hech vaqosiz sanitar poyezdida qochib ketdim. „Navbatchilikka kelmayman. Frontga ketdim“, – degan qisqa xat qoldirdim. Tamom...“

Leningradlik Vera Danilovseva aktrisa bo‘lishni orzu qilar, teatr institutiga kirish uchun tayyorlanardi, urushda esa mernan bo‘lib, ikkita „Shuhrat“ ordeni bilan taqdirlangan. U shunday hikoya qiladi:

„O’sha kuni yigitim bilan uchrashuvimiz bor edi. Nihoyat, sevgi izhor qilsa kerak, deb kutgandim. U esa juda g‘amgin holda kelib, dedi: „Vera, urush boshlandi! Bizni bilim yurtidan bevosita frontga jo‘natishyapti“. U harbiy, kursant edi. Men ham o‘zimni Janna d’Arkday his qila boshladim. Garchi shu paytgacha pashshaga zarar yetkazish ham malol kelganiga qaramay, faqat frontga ketaman, qo‘limga qurol olaman, deb qat’iy ahd qildim. Harbiy bo‘limga oshiqdim, u yerda esa hozircha faqat tibbiyat xodimlari kerak, olti oy o‘qish zarur, deyishdi. Olti oy – juda ko‘p, buncha uzoq kuta olmayman!

Oxir-oqibat ta’lim olishga ko‘ndirishdi. Rozi bo‘ldim, lekin faqat hamshiralikka emas...“

Anna Nikolayevna Xrolovich urushgacha Omskda yashagan, tibbiyat texnikumini tugatishga ulgurgan. 1942-yilda Omskka evakuatsiya qilingan Moskva 2-tibbiyat institutining 1-bosqichiga o‘qishga kirgan.

Uning maktubidan:

„Mening do'stlarimni frontga safarbar qilishdi. Meni olishmagani, yolg'iz qolganim uchun ho'ngrab yig'ladim. Hech kim targ'ib qilishi shart emasdi, shundoq ham barcha frontga oshiqardi. Iltimos qilishardi. Hatto yolvorib o'tinishardi. Lekin uzoq o'qimadim. Dekan bizlarni to'plab, shunday dedi:

– Qizlar, o'qishni urush tugagandan keyin davom ettirasizlar. Vatanni himoya qilish kerak...

Bizni zavoddan frontga kuzatishdi.

Yoz fasli. Barcha vagonlar gul bllan bezatilgani hozir ham yodimda... Bizga hadyalar berishdi. Menga mazali shirinlik va bejirim sviter tegdi. Perronda ukraincha raqsni zavq-shavq bilan ijro etdimki, asti qo'yaverasiz...“

Antonina Grigorevna Bondaryova, gvardiya leytenant, katta uchuvchi:

„Yettinchi sinfda o'qiyotganimda biz yashayotgan shaharga samolyot uchib keldi. 1936-yilda bu rosmana mo'jiza bo'lgan. „Yigitlar va qizlar – samolyotlarni egallang!“ – degan shior o'shandayoq paydo bo'lgan. Men komsomol sifatida, albatta, oldingi saflarda yurardim. Darhol aeroklubga yozildim. Otam, tabiiyki, bunga mutlaqo qarshi edi.

Bunga qadar oilamizda barcha metallurg, domnachi metallurqlar bo'lgan. Otam ayol metallurg bo'lishi mumkin, lekin uchuvchi bo'lishi mumkin emas, deb hisoblardi. Aeroklub boshlig'i bundan xabar topib, otamni samolyotda sayr qildirishga ruxsat berdi. Men shunday qildim. Otam bilan birga havoga ko'tarildik, shu kundan e'tiboran otam ortiq e'tiroz bildirmadi. Aeroklubni „a'lo“ga bitirdim, parashyut bilan yaxshi sakrardim.

Urushgacha turmushga chiqishga ham ulgurdim, qiz tug'dim. Darhol frontga yo'l olganim yo'q. Aeroklubimizda turli o'zgarishlar bo'ldi: erkaklarni urushga olib

ketishdi, ularning o‘rnini biz – ayollar egalladik. Kur-santlarni o‘qitardik. Ish juda ko‘p, tongdan shomgacha ishlardik. Qizim qo‘limda qolgan, har doim lagerlarda yashardik. Men bo‘tqa pishirib oldiga qo‘yardim-da, ustidan eshikm qulflab ketardim, chunki tong yorishmay, soat to‘rtdan uchishni boshlardik. Kechqurun qay-tib kelgamimda, qizini bo‘tqani yeganmi-yemaganmi, xullas, hamma yog‘i bo‘tqaga belangan bo‘lardi. **U** ati-gi uch yoshda edi.

Qirq birinchi yilning oxirlarida qoraxat oldim: erim Moskva ostonalarida halok bo‘libdi. U uchuvchi, bo‘lin-ma komandiri edi. Meni frontga jo‘natinglar, deb iltimos qila boshladim...“

Kichik leytenant, shifrlovchi Lyubov Arkadevna Charnoyning xatidan:

„....O‘g‘lim ikki yoshga kirgan, yana homilador edim, ikkinchi farzandimni kutayotgandim. Urush boshlanib qoldi... Erim frontda... Men ham ota-onamning huzuriga yo‘l oldim va kerakli ishlarni qildim... Ikkinci farzan-dimni tug‘madim...“

Metallni pardozlash kursini tugatgach, frontga yu-boringlar, deb iltimos qildim. Yorug‘ dunyoni ko‘rma-gan farzandim uchun qasos olishni istardim...“

Serafima Ivanovna Panasenko, kichik leytenant, mo-too‘qchi batalyoni feldsheri:

„Asli Sverdlovsk shahridanman. Endigina o‘n sak-kizga to‘lganimda urush boshlanganini e’lon qilishdi, o‘z shahrimdan frontga jo‘naganman. Odamlar qanday yig‘lagani esimda. O‘sha kuni men ko‘rgan odamlarning barchasi yig‘lardi. Men feldsher-akusherlik maktabining ikkinchi bosqichida o‘qiyotgandim. „Urush boshlangan ekan, frontga jo‘nashim kerak“, degan fikrga keldim.

Otam keksa kommunist, siyosiy mahbus bo‘lgan. U biza ga bolaligimizdan Vatan muqaddas ekanim, uni himoya qilish zarurligini uqtirardi. Shunday ruhda tarbiyalanganman, Vatanmi men himoya qilmasam, kim himoya qiladi, degan fikrda bo‘lganman“.

Borisova shahridan katta serjant, aloqachi Mariya Semyonovna Kaliberdining xotiralaridan:

„Aloqachi bo‘lishga hechi rozilik bermasdim, hech qachon aloqachi bo‘lmayman, deb yurardim, chunki bu ham o‘ziga xos jang ekanini bilmasdim. Diviziya komandiri kelganda biz saf tortdik. Mashenka Sungurova degan dugonamiz bo‘lardi. Mashenka safdan chiqib, komandirga yuzlandi:

– O‘rtoq general, murojaat qilishga ruxsat bering.

General xayrixohlik bilan dedi:

– Marhamat, marhamat, jangchi Sungurova!

– Oddiy askar Sungurova aloqachi sifatida xizmat qilishdan ozod etishingizni va otishmalar bo‘layotgan joyga yuborishingizni iltimos qiladi.

Ishonasizmi, hammamiz mana shunday kayfiyatda edik. O‘sha kezlardagi qat’iyatimizni ifodalashga ojizman. Biz shug‘ullanayotgan aloqa ishlari hech narsaga arzimaydi, hatto bizni kamsitadi, biz faqat oldingi marada bo‘libsimiz kerak, deb o‘ylar edik.

Generalning yuzidagi tabassum darhol g‘oyib bo‘ldi:

– Qizlarim! (O‘sha paytdagi ahvolimizni ko‘rsangiz edi: och-nahormiz, uyqusizlik qiynaydi, bir so‘z bilan aytganda, general biz bilan komandir sifatida emas, otamizday suhbatlashdi). Frontda bajarayotgan vazifangiz qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini bilmaysizlar, shekilli, sizlar bizning ham ko‘zimiz, ham qulog‘imiz bisoblanasiz, aloqasiz armiya Vatansiz kimsaday gap...

Mashenka birinchi bo'lib xitob qildi:

– O'rtoq general! Oddiy askar Sungurova har bir buyrug'ingizni miltiqday ado etishga hamisha tayyor!

Biz keyin unga urushning oxirigacha „Miltiq“, deb laqab qo'yib oldik.

...1943-yilning iyunida Kursk yoyida bizga polk bayrog'ini tantanali topshirishdi, bizning oltmis beshinchи armiyaning hir yuz yigirma to'qqizinchи alohida aloqa polkimiz sakson foiz xotin-qizlardan tashkil topgandi. Sizga chin dildan so'zlab bermoqchiman... O'shanda ko'nglimizdan nimalar kechganini bilsangiz edi. Polkimiz komandiri bayroqni qabul qilib olib, buyruq berdi: „Polk, bayroq ostida ta'zim qil!“ Bizga bunchalik katta ishonch bildirilganidan, tankchilar, o'qchilar polki bilan baravar maqomga ega bo'lganimizdan biz – ayollar cheksiz xursand edik... Barchamizning ko'zimizda yosh o'ynardi. Juda baxtiyor edik. Vatanimiz boshiga kulfat tushgan o'sha kunlarda har qanday vazifani uddalashga tayyor edik.

Xoh ishoning, xoh ishonmang, shu qadar hayajonlandimki, butun a'zoyi badanim larzaga keldi. To'yib ovqatlanmaslik, asabiyo'z qolganida shabko'r bo'lib qolgandim. Juda qattiq hayajonlanganimdan kasalim tuzaldi. Ertasigayoq tamomila sog'ayib ketdim...“

Urushda kichik serjant, zenitchi bo'lgan moskvalik Mariya Sergeyevna Kolesnikdan maktub keldi:?

„Men Vilnyus shahri qanday yonganini ko'rganman... Butun shahar, hatto toshlar yonardi. Qandaydir ibodatxonaning qizil toshi yonayotgani hech ko'z o'ngimdan ketmaydi. Dastlabki uch kun dahshatli qo'rquv hukm surdi: hamma yoqda halok bo'lganlar, yaralanganlar, men esa homilador holimda tirikman. Yo'lda yugurib ketyap-

man-u, onamming gaplari esimga tushadi: agar chiroyli bola tug‘ishmi istasang, faqat chiroyli manzaralarga nazar solgin, quvnoq qo‘shiqlarni tinglagin. Men esa yo‘l-yo‘lakay faqat yong‘in guvohi bo‘laman, faqat halok bo‘lganlar, daryo-daryo oqayotgan qonga duch kelaman. „Bunday dahshatli sharoitda qanday farzand tug‘aman?“ degan fikr tinchlik bermaydi.

Ug‘ilcham ko‘p yashamadi. Men darhol urushga jo‘natishlarini so‘rab, murojaat qildim...“

Saki¹ shahridan Kseniya Sergeyevna Osadchevaning daftarni to‘ldirib yozgan katta maktubidan faqat ikki sahlfa:

.....*Qirq birinchi yilning to‘qqizinchi iyunida o‘n sakkiz yoshga to‘ldim, oradan ikki hafta ham o‘tmay la‘nati urush boshlandi. Maktab partasidan chiqib, Gagra-Suxumi temiryo ‘li qurilishiga yo‘l oldik. Qanday non yeganimiz hamon esimda. Uni nimaga o‘xshatishni ham bilmayman. Kepakka un aralashtirilar hamda asalari mumi kabi yopishishi uchun suv bilan to‘ldirlardi. Bunday non stolga qo‘yilsa, suvi oqib ko‘lmakcha hosil bo‘lardi, biz uni tilimiz bilan yalardik.*

Qirq ikkinchi yilda uch ming ikki yuz birinchi evakuatsiya-saralash gospitaliga ixtiyoriy ravishda bordim. Bu Kavkazorti va Shimoliy Kavkaz frontlari hamda alohida Primorya armiyasining tarkibidagi juda katta gospital edi. Shiddatli janglar borar, yaradorlar juda ko‘p edi. Menga ovqat tarqatishni topshirishdi – bu vazifada kecha-yu kunduz uzlusiz ishlash talab etilardi, kechki ovqatni tonggacha ham tarqatib ul-gurmasdik. Bir necha oydan so‘ng chap oyog‘imdan yaralandim – o‘ng oyog‘imda hakkalab yurib ham ish-

¹*Saki* – Qrimning g‘arbiy qirg‘og‘idagi shahar.

laganman. Keyin yana xo'jalik bekasi lavozimini berishdi, bunda hamisha ish joyida bo'lish talab qilinardi.

Qirq uchinchi yilning o'ttizinchi mayida, kunduz kuni rappa-raso soat birda Krasnodar shahri havodan qattiq bombardimon qilindi. Men binodan chiqib, temiryo'l vokzalidan yaradorlarni jo'natishga ulgurishdimmikan, deb qaradim. O'q-dorilar saqlanayotgan imoratga ikkita bomba tushdi. Ko'z o'ngimda qutilar olti qavatli bino balandligiga ko'tarilib, portlay boshladi. Portlashlar to'lqini meni uchirib borib, devorga urdi. Hushimni yo'qotdim...

Ko'zinini ochganimda kechki soat olti bo'lgandi. Boshim, qo'llarimmi qimirlatib ko'rdim – qimirlayapti, chap ko'zimni arang ohib, qonga botgan holda bo'limga yo'l oldim. Yo'lakda katta hamshira uchratib, taniy olmay savolga tutdi: „Kimsiz?“ „Qayerdan keldingiz?“ Yaqin kelgach, tanidi va dakki berdi: „Shu paytgacha qayerlarda yuribsan, Kseniya? Yaradorlar och, sen esa yo'qsan“. Tezda boshimni va chap qo'limning tirsaginidan yuqori qismini bog'lashdi va men kechki ovqatni qabul qilib olishga chog'landim. Ko'zimning oldi qorong'ilashar, ter suvday quyilardi. Kechki ovqatni tarqatayotganda holdan toyib yiqildim. Hushimga keltilishganda faqat „Tezroq!.. Bo'la qol!..“ degan xitoblarni eshitardim. Og'ir yaradorlarga qon ham bergenman.

Yigirma oy mobaynida hech kim meni almashtir-madi, o'mimmi egallamadi. Tizzamgacha shishib ketgan chap oyog'im bint bilan o'ralgan, qo'limni operatsiya qilishgan, u ham bint bilan chirmab tashlangan, boshimga ham bint o'ralgan. Maktabda o'qib yurganimda sport yuklamalarini bajarganman. Lekin mening ahvolimda yigirma oy kecha-yu kunduz yugurgan sportchi

dunyoda topilmasa kerak. Men esa tinmay yugurdim va barchasiga chidadim.

...Hozir hamma yoq tiklangan, hamma tomon gullar og‘ushida, men esa hamon og‘riqdan o‘zimga kelolmayman, qiyofam hozir ham ayolga o‘xshamaydi. Kula olmayman, har kuni oh tortaman. Urushda shunchalar o‘zgardimki, uyga qaytganimda onam ham tanimagan. Onam yashayotgan xonadonni ko‘rsatishgach, eshikni taqillatdim. Ichkaridan ovoz eshitildi:

– Kim u?

Men ostona hatlab salom bergach, iltimos qildim:

– Bir kecha tunasam maylimi?

Onam pechkaga o‘tin yoqayotgandi, ikkita ukam esa polda, poxol ustida yalang‘och o‘tirishar, kiyadigan kiyimning o‘zi yo‘q edi. Onam meni tanimasdan javob berdi:

– Boshqa xonadonga bora qoling.

Men yana iltimos qila boshladim. Onam ham bitta gapni takrorlaydi:

– Ahvolimizni ko‘rmayapsizimi? Uyimizda tunamagan askar qolmadi. Qorong‘i tushmasdan boshqa uyga bora qoling.

Onamga yaqin boraman, u esa yana o‘sha gapni aytadi:

– Boshqa uyga boring deyapman, sal o‘tmay qorong‘i tushadi.

Men egilib onamm bag‘rimga bosaman:

– Oyi, oyijon!

Daf’atan hammalari meni quchoqlab, quvonganlardan yig‘lab yuborishdi...

Hayotim juda og‘ir kechgan. Boshimdan kechirgan voqealar aks etgan kitob ham, kinofilm ham haligacha yo‘q“.

O'n yetti-o'n sakkiz yoshli qizlarning ko'nglidagini tu-shunish uchun ularning o'tmishiga nazar solish kerakligini angrayman. O'tmishda esa – bolalik, mакtab, ota-onalari.

Sofya Ivanovna Sherevera, gvardiya kichik serjanti, radiotelegrafchi:

„Men bolalar uyida ulg‘ayganman. Yettinchi sinfni tugatib, bitiruv kechasiga tayyorgarlik ko'rayotgandik. Lekin direktorimiz Vasiliy Nikiforovich Zimonets (biz u bilan hozir ham xat yozishamiz, meni „qizim“ deydi) bizni to'plab, „Bolalar, urush boshlandi!..“ dedi.

Evakuatsiyani kuta boshladik. Bizning bolalar uymiz Vmnitsa yaqimida joylashgandi. Lekin evakuatsiya oida buyruq hadeganda kelavermadik va Vasiliy Nikiforovich o'zi qaror qabul qildi: „Bolalarim, o'zimiz bir amallab yetib olamiz“. Bizni stansiya sari boshlab borar ekan, katta yoshdag'i bolalar kichiklarim yetaklab olsin, deb tayinladi. „Ko'tarishga kuchingiz yetadi-gan narsalarni qo'lga olinglar“, deb qo'shimcha qildi. Nimani ham olardik? Bir bo'lakdan non... Uzoq piyoda yurdik, so'ng poyezdda yo'l bosdik. Poyezd dalada to'xtagan kezlarda boshqo terib, kichkina bolalarga berardik, o'zimiz ham yerdik.

Shu asno Penzaga yetib keldik. U yerdan esa Buzulukka jo'natishdi. Nihoyat, Buzulukda boshimiz uzra bombalar portlamasligiga ishonch hosil qildik. Avval cherkovga joylashtirishdi, keyin esa alohida uy berishdi. Direktor yana bizni to'pladi: „Bolalar, sizlar, albat-ta, o'qishni xohlaysizlar, lekm hozir Vatan yordamga muhtoj. Kimdir zavodga, kimdir hunar bilim yurtiga yo'l oladi, kichik yoshdagilarni esa tarbiyalaymiz“. Men bilim yurtini tanladim. Kunduz kuni ta'lim olib, kechasi zavodda ishlardik. O'n oltiga ham to'lmagan-

dim. Menden kichiklar ham bor edi. Dastgoh katta, bemalol ishlash uchun oyog‘imiz ostiga to‘nka qo‘yib olardik. Miltiqlarning xanjarlarini ishlab chiqarib, pardozlash dastgohlarida ularni silliqlardik. Hammasi g‘alaba uchun mo‘ljallangandi.

„Pravda“ gazetasida Zoya Kosmodemyanskayaning jasorati haqida o‘qiganimizdan so‘ng, hamma qizlar frontga otlanishga ahd qildik. (Yig‘laydi.) Agar urush bo‘limganida, institutni ham bitirardim. Lekin men uchun front institut bo‘ldi. Bu bilan faxrlanaman...“

Neva ko‘lining ortida, Leningradda bir qizcha yashardi. Shu shaharda tug‘ildi, mакtabda o‘qidi. Dugonalari bilan raqs tushgani borardi, komsomol shanbaliklarida qatnashardi. Keyin zavodda frezerchi bo‘lib ishladi.

Qirq birinchi yilda askarlar zavodning yonidan saf tortib o‘tib, frontga yo‘l oldi. Qizaloq ulardan iltimos qilardi: „Jon amakilar, meni ham frontga olib ketinglar“.

Nadejda Vasilevna Anisimova xotirlaydi:

„Meni sira ko‘zları qiymasdi, oldingi marraga yuborishmadı. Lekin bundan qat‘i nazar pulemyot rotasida saninstruktor bo‘ldim. O‘limdan qo‘rmasdim. Balki, barcha yoshlar kabi jasoratli bo‘lgandirman. Bir gal kechasi dushmanning butun bir rotasi polkimiz maydonida jang bilan razvedka olib bordi. Tongga yaqmular chekindi, betaraf maydondan esa yaradorning ing-rayotgani eshitildi. „Bora ko‘rma, otib tashlashadi, – deyishdi menga jangchilar, – ko‘rmayapsanmi, kun yorishyapti“.

Ularning gapiga qulog solmay emaklay ketdim. Yaradorni topib, umi kamar bilan qo‘limga bog‘lab olib, sakkiz soat mobaynida sudrab, tirik olib keldim. Komandir xabar topib, o‘zboshimchalik qilganim uchun

qizishib besh kun qanioq jazosiga hukm qildi. Polk komandirining o'rinnbosari esa boshqacha munosabat bildirdi: „Mukofotga loyiq ish qildi“. Men ularning ik-kalasini ham tushundim...

O'n to'qqizga kirganimda „Jasorat uchun“ medali bilan taqdirlanganman. O'n to'qqiz yoshimda sochim oqarib ketdi. O'sha yili oxirgi jangda ikkala o'pkamni ham o'q teshib o'tdi, ikkinchi o'q umurtqam orasidan o'tib ketdi. Oyog'im shol bo'lib qoldi, hatto o'lida chiqarishdi... Uyga qaytib kelganimda, singlim qora-xatni ko'rsatdi!..“

Katta serjant, razvedkachi Albina Aleksandrovna Gantimurova hikoya qiladi:

„Onamni eslay olmayman, qiyofasi g'ira-shira yodimda qolgan. Onam vafot etganda uch yoshda edim. Otam Uzoq Sharqda xizmat qilar, doimiy xizmatdagi harbiy edi. Meni ot choptirishga o'rgatdi. Ilk marta otga o'tirganimda juda hayajonlanganman. Otam erkatoy bo'lib ulg'ayishimni sira istamasdi. Besh yoshimdan barcha voqealarni eslayman. Lemingradda xolam bilan yashardim, xolam esa rus-yapon urushida mehr-shafqat hamshirasi bo'lgan.

Bolaligimda juda sho'x edim. Bahs boylashib, maktabning ikkinchi qavatidan sakraganman. Futbol o'y-nashni yaxshi ko'rardim, o'g'il bolalar to'p tepishar, men esa darvozabon bo'lardim. Fin urushi boshlanganda hamisha urushga qochib ketaverardim. Qirq birinchi yilda yettinchi sinfni tugatib, texnikumga kirish imtihonlarini topshirdim. „Urush boshlandi!“ deya xolam yig'lagamida, men, nihoyat, frontga boraman, o'zimni ko'rsataman, deb quvonganman. Urushda qon to'kishini qayoqdan bilay?

Xalq ko'ngillilarining birinchi gvardiya diviziyasi tashkil topganda biz, bir necha qizni medsanbatga¹ olishdi.

Xolamga telefon qildim:

– Frontga ketyapman.

Xolam jahl bilan buyurdi:

– Darhol uyg'a yetib kel. Tushlik ovqat sovib qoldi.

Telefon go'shangini joyiga ildim.

Keyinchalik xolamga achindim. Leningrad qamali boshlandi, xolam keksa boshi bilan yolg'iz qoldi.

Xolamni ko'rib kelishim uchun ruxsat berishgani esimda. Yo'l-yo'lakay do'konga kirdim. Urushgacha shirinliklarni juda yaxshi ko'rardim. Sotuvchiga:

– Menga konfet bering, – dedim.

Sotuvchi menga telbag'a qaraganday tikildi. Yegulik olish uchun kartochka kerakligini, qamal nima ekanini bilmasdim. Navbatda turgan odamlarning hammasi menga o'girildi, yelkamdag'i miltig'im bo'yimdan baland edi. Uni bizga berishganda „Qachon mening bo'yim bu miltiq bilan baravar bo'larkan?“ degan fikr ko'nglimdan kechgan.

Kutilmaganda barcha, navbatda turganlarning hammasi sotuvchidan iltimos qila boshlashdi:

– Unga konfet bering, bizning talonimizdan qirqib ola qoling.

Sotuvchi menga konfet berdi.

Ko'chada frontga yordam yig'ilardi. Maydonga terilgan stollarga katta barkashiar qo'yilgan, kimdir tilla uzugini, kimdir ziragini tashlab ketardi. Soatlar, pullar olib kelishardi... Hech kim hech narsani ro'yxat qilmas, hech kim biron qog'ozga imzo qo'yemasdi... Ayollar

¹Mensanbat – tibbiy sanitariya batalyonи.

qo‘lidagi hikoh uzugini g‘alaba uchun berardi. Bu manzara, do‘kondan olingan shirinlik ham sira xotiramdan chiqmaydi.

„Bir qadam ham ortga yo‘l yo‘q!“ degan da‘vat bilan ikki yuz yigirma sakkizinchи buyruq chiqdi. Bu buyruq meni daf‘atan voyaga yetkazdi.

Yaralanganlar juda ko‘p, necha kunlab uxlamasdik. Bir gal uch kecha-kunduz hech kim mijja qoqmadi. Meni yaradorlar bilan mashinada gospitalga yuborishdi. Yaradorlarni topshirdim, mashina ortga bo‘s sh qaytdi, yo‘lda uxlab, juda tetik bo‘lib uyg‘ondim, dugonalarim esa oyoqda zo‘rg‘a turardi.

Komissar uchrab qoldi:

- O‘rtoq komissar, uyalib ketyapman.
- Nimadan?
- Uxlab oldim.
- Qayerda?

Yaradorlarni eltib qo‘yganim, qaytishda bo‘s mashinada uxlab olganimni aytdim.

– Nima bo‘pti? Juda to‘g‘ri qilibsan. Loaqlal bitta tetik odam bo‘lsin, hamma yurgan yo‘lida uxlab qolay deyapti.

Men esa juda xijolatda edim. Butun urush inobaynida mana shunday andisha bilan yashaganmiz.

Medsanbatda menga yaxshi munosabatda bo‘lishar, biroq men razvedkachi bo‘lishni xohiardim. Agar ruxsat berishmasa, oldingi marrada jang qilayotgan qo‘shinlar tarkibiga qochib ketaman, deganman. Buning uchun komsomoldan haydalishimga sal qolgan“.

Ikkita „Qizil yulduz“ ordeni, ikkita „Shuhrat“ ordenni, ikkita „Jasorat uchun“ medali – bular urushda olin-gan, Albina Aleksandrovna o‘zi aytmoqchi, „razvedka uchun“ olingan jangovar nishonlarning bir qismi, xolos.

„Uchinchi „Shuhrat“ ordeni nasib qilmagan ekan... „Albina, senga yana ozgina imkon berishmadi-da“, deb razvedkachilar hazillashishardi.

Birinchi „Jasorat uchun“ medali men uchun juda qimmatli mukofot. Askarlar yotib olgan. „Vatan uchun! Olg‘a!“ buyrug‘i yangradi, ular esa yotibdi. Buyruq takrorlansa ham bosh ko‘tarishmadi. Qiz bola ekanimni ko‘rishsin, deya boshimdan qalpog‘imni olib, daf’atan qaddimm rostladim... Menga ergashib barcha askarlar shitob bilan talpindilar va biz hujumga o‘tdik.

Meni medal bilan taqdirlashdi, shu kumiyoq topshiriq bilan razvedkaga yo‘l oldik.

Biz bilan birga keksa feldsher ham razvedkaga chiqqandi. Menga yuzlamib:

- Qayeringga o‘q tegdi? – deb so‘radi.
- Bilmayman... Lekin qon ketyapti...

Keksa feldsher otam kabi hammasini yotig‘i bilan tushuntirdi.

Urushdan keyin ham o‘n besh yil razvedkaga qatnaganman. Har kecha... Tushimda goh avtomatim otilmay qolardi, goh qurshovga tushardik... Ko‘zimni ochsam, tishim tishimga tegmay takillardi.

Urush tugadi, men faqat uchta narsani orzu qilardim: avvalo, qornim bilan emaklab yurmeyman, trolleybusda rohatlanib qatnayman, ikkinchidan – bitta oppoq non xarid qilib, maza qilib yeyman, uchinchidan – oppoq choyshabda huzurlanib uxlayman“.

Zenitchi Valentina Pavlovna Maksimchuk xotiralaridan:

„Biz, pedagogika institutining talabalari qirq birinchi yilning yigirma sakkizinchisi iyun kuni peshinda bosmaxona hovlisida yig‘ildik. Yig‘ilish qisqa bo‘ldi. Eski Smo-

lensk yo‘li bo‘ylab shahardan chiqib, Krasnoye shahriga jo‘nadik. Ehtiyotkorlikka rioya qilib, guruh-guruh bo‘lib ketib borardik. Kechga borib jazirama tafti biroz qaytdi, yurish osonlashdi, hech yoqqa qaramay jadal qadam tashlay boshladik. Dam olish joyiga yetib kelgachgina o‘girilib kunchiqarga nazar tashiadik. Osmomonning yarmini qip-qizil shafaq qoplab olgan, qirq kilometr masofadan nazar solganda, butun shaharni qoplaganday edi. O‘n yoki yuzta bino emas, balki butun Smolensk shahri o‘t ichida qolganini angladik.

Mening burmali oppoq nikoh ko‘ylagim bor edi. Uni dugonam Vera juda yoqtirardi. Bir necha marta havas bilan kiyib ko‘rgan. Nikoh to‘yingga sovg‘a qilaman, deb va‘da bergandim. Turmushga chiqmoqchi edi-da. Yigit ham binoyidek.

Daf’atan urush bosblandi. Okoplarga otlandik. Yotoqxonadagi buyumlarimizni komendantga topshirdik. Ko‘ylakni nima qilsam ekan? Shahardan chiqib ketish arafasida: „Vera, ola qol“, deb taklif qildim.

Olmadi. Yong‘inda ko‘ylagim ham kulga aylandi.

Ketib boryapmiz-u, dam-badam ortga qaraymiz. Hatto yong‘in haroratini sezganday bo‘lamiz. Tun bo‘yi yo‘l yurdik, ertalabdan esa ishga kirishdik. Tanklarga qarshi xandaq qazishni buyurishdi. Yetti metrli tik devor va uch metr chuqurlikdagi xandaq. Yer qaziyapman-u, belkurak alanga olganday, qum esa olovday qip-qizil bo‘lib ko‘rinadi. Nastarin va boshqa turfa gullar og‘ushidagi uyimiz ko‘z oldimdan ketmaydi...

Biz ikki jilg‘a orasida, zax maysazordagi chaylarda yashardik. Bir tomonda issiq, bir tomonda zax. Chivinlar mo‘r-malaxday yopiriladi. Uyqudan oldin alanimalarni tutatib, ularni chayladan quvib chiqaramiz,

lekim tongga yaqm teshik-tirqishlardan kirib oladi-da, to‘yib uxlagani qo‘ymaydi.

U yerdan meni tibbiyot ho‘limiga olib ketishdi. Yalang polda yotardik. Ko‘pchilik kasal bo‘lib qoldi. Issig‘im baland. Etim uvushib qaltirayman, polda yotganimcha yig‘layman. Palata eshigi ochilib, shifokor ostonada turgancha (to‘saklar yonma-yon to’shalgani uchun ichkariga qadam bosib bo‘lmasdi) dedi: „Ivanova, qoningda plazmodiy bor“. Demak, ahvolim yaxshi emas.

Oltinchi sinf darsligida o‘qiganimdan buyon plazmodiy desa, vahimaga tushishimni shifokor ayol qayordan ham bilsin. Shu palla devorga ilingan karnaydan qo‘sish yangray boshladi: „Вставай, страна огромная...“¹ Bu qo‘sishiqni o‘shanda birinchi marta eshitganman.

Meni Roslavl shahri yaqinidagi Kozlovka degan joyga olib kelishdi. Yiqilib tushmaslik uchun o‘rindiqqa mahkam yopishib olganman, kimdir tushimda gapi rayotganday dedi:

- Shumi?
- Ha, – deb javob berdi feldsher.
- Oshxonaga olib boringlar.

Nihoyat, karavotda yotibman. Gulxan yomda, zax yerda emas, daraxt ostidagi chodirda ham emas, gospitalda, issiqliqina karavotda yotgamimga ishongim kelmasdi. Yetti kun uxbabman. Hamshiralar meni uyg‘otib ovqatlantirishgamini keyinchalik aytib berishdi, men esa eslay olmayman. Uyg‘onganimda shifokor ko‘rib, dedi:

- Jismonan baquvvat, sog‘ayib ketadi.

Men yana uxbab qoldim.

¹Ikkinci Jahon urushi davrida xalqni jasoratga chorlagan eng mashhur qo‘sishqlardan biri.

Urushda eng qiyim uyquni yengish edi. Ketma-ket bir necha kun to'yib uxlamaslik oqibatida odam o'zini idora qila olmaydigan ahvolga tushib qolardi. Ishlayotgan paytingda sezilmaydi, biroz bekor qoldingmi, yonboshlab uyquga ketganiningni bilmay qolasan. Navbatchilik paytida uxlab qolmaslik uchun tinmay u yoqdan bu yoqqa yurardim, yodlab olgan she'rlarimni takrorlardim“.

Urush faqat jang maydonida davom etmasdi. Mening Vatanimdag'i har bir inson askarga aylangandi.

Frani Vasilevna Adashkevich so'zlaridan:

„Minskni bombardimon qilish boshlangach, biz shahdan bosh olib ketishga urindik. Qochoqlar orasida erkaklar yo'q, ayollar, bolalar va keksalar ketib borayotgani esimda qolgan. Bunchalik ko'p bolani hech qachon ko'rmaganman. Nima uchun shunday taassurot qolganini bilmayman. Balki, birinchi galda bolalarni qutqarishga harakat qilingani uchun shunday tuyulgandir. Lekin bu naqa son-sanoqsiz bolani qayta uchratmadim...“

Bosqinchilikdan keyingi ilk kunlarda nimalar qilganman? O'q terib, suv isitiladigan qozonda, idishlarda yerga ko'mardim, o'rmonlarda qalashib yotgan qurollarni g'amlardim, bunday ishlar bilan yolg'iz men shug'ullanmasdim. Agar omon bo'lsak, qurol-yarog' kunimizga yarashini bilardik. Hech kim fashistlar zaminimizni toptayotganiga jim qarab turishni istamasdi“.

Slutsk shahrida yashirin ish olib borgan Mariya Timofeyevna Savitskaya Radyukovich xotirlaydi:

„Nemislар qishlog'imizga mototsikllarini tarillatib kirib kelishdi. Yosh, quvnoq, hamisha kullb yuradigan nemislarga nafrat bilan tikilardim. Ular xandon otib kuli-shardi! Yurtimizga bostirib kirgani kamday, xandon otib kulganini ko'rib, o'zimni qo'yarga joy topolmasdim.

Men qasos olishni, mardona halok bo'lishni, jasoratim haqida kitob yozishlarini orzu qilardim. O'z Vatanim uchun hamma ishga tayyor edim.

— Lekin sizning yosh bolangiz bo'lgan?

— Qirq uchinchi yilda qiz tuqqanman. Botqoqlikdagi pichan g'arami ustida. Yo'rgakni yelkamga yoyib quritardim, uni biroz isitardim-da, bolamni yana yo'rgaklardim. Atrofni olov qurshab olgan, qishloqlarni odamlar bilan birga yoqishardi... Bizning Gressk tumanimizda (urushgacha shunday tuman bo'lgan, hozir uning hududi Slutsk tumani tarkibiga kiritilgan) to'qqizta qishloqqa o't qo'yishdi.

Dugonam ikkimiz yonib ketgan odamlarning qoldiqlarini yig'ardik. Odamlarning so'ngaklarini topardik, kiyimining bir parchasini topib olsak ham egasi kini ekanini bilardik. Men ana shunday kiyim parchalaridan birini ko'tardim, dugonam esa: „Onamning koftasi...“ dedi-yu, hushini yo'qotib yiqildi. Kimdir choyshabga, kimdir yostiq jildiga, xullas, toza matoga so'ngaklarni yig'ardi. So'ng umumiylar qabrga qo'yardik. Faqat oqargan so'ngaklar qolardi...

Shundan keyin qanday topshiriq berishmasin, tap tortmay borardim. Komissar nienga topshiriq berardi-da: „Senga rahmim keladi!“ deya ko'ziga yosh olardi. Shashardan dori-darnion, bint, zardob olib kelardim... Chaqalog'imning qo'llari, oyoqlari ostiga dori qo'yaman-da, yo'rgaklab yo'lga tushaman. O'rmonda, axir, yaradorlar nobud bo'lyapti. Shoshilish kerak. Har qadamda nemislar va politsaylarning postlari, hech kimni o'tkazishmasdi, faqat men o'tardim.

Hozir eslash juda og'ir... bolamning issig'i chiqishi, yig'lashi uchun badanini tuz bilan ishqalardim. Terisi qip-qizarib, toshma bilan qoplanar, chinqirib yig'lay

boshlardi. Postga yaqin kelib: „Terlama, pan... terlama!“ deb shlvirlardim. Ular esa „Tezroq yo‘qol!“ deya haydab solishardi. Tuz bilan ham ishqalardim, sarimsoq piyoz ham qo‘yardim. Qizalog‘im esa hali bir parcha et... Uch oyligidan topshiriqlarni bajarishga kirishgaman... Emizardim...

Postdan o‘tgan zahotim o‘rmonga bekinib olib, yig‘lashga tushardim. Dod solardim! Bolamga rahmim kełardi. Bir-ikki kun o‘tib yana yo‘lga tushardim. Boshqa iloj yo‘q edi...“

Mariya Timofeyevna bilan yonma-yon dugonasi Mariya Mixaylovna Matusevich Zayas o‘tirardi, ular dastlab birgalikda yashirin ish olib borishgan, keyinchalik partizanlar safida ham birga kurashishgan. **U** dugonasining hikoyasini tinglab yig‘lardi. Keyin ko‘zida yosh bilan o‘zi hikoya qildi:

„Urushdan uch kun avval o‘g‘il tug‘dim... Antonni... Odamlar: „Urush!“ deya vahima qiladi, biz esa tug‘ruqxonada yotibmiz. Esimda qolgani – o‘shanda hamma homilador xotinlar o‘g‘il tug‘gandi.

Nemislar bostirib kelgan ilk kurnlardanoq o‘rmonda har bir patronni yig‘a boshladik. Quroq to‘plaganmiz. Onam ruxsat bermasdi: „Chaqaloq bilan qayoqqa ket-yapsan? Xudodan qo‘rqmaysanmi?“ Men ham bo‘sh kelmasdim: „Bu bosqinchilar Xudodan qo‘rqaaptimi? Odamlarimizni mima qilishayotganini ko‘rmayapsizmi?“

Yigitlarni uylaridan sudrab chiqib, ostonadayoq otib tashlashardi. Ikki qo‘shni yigitni uylariming oldida, shundoq ostonaning o‘zidayoq otib o‘ldirishdi...

Men komsomol a‘zosi edim. Qo‘l qovushtirib o‘ti-ra olmasdim. Varaqalar tarqatib, ma’lumotlar yig‘ardim. Bolamni hamisha qo‘limda ko‘tarib yurardim. Bir yo‘la

ikki insonning hayotini xavf ostiga qo'yardim. Qancha ko'zyoshi to'kmadim.

O'g'lim halok bo'ldi. Partizanlar safida bo'lganim uchun umi o'ldirishdi. Onam bilan birga yoqib yuborishdi. Uyimizga hovliqib yetib keldim... Olovning hovuri so'nmagandi... Topganim bir kaftgina xoki turob bo'ldi... Yuragim o'rtanib dod soldim...

Urushdan keyin yana o'g'il ko'rganimda, umi voyaga yetkazish nasib etsin, o'z qo'llari bilan meni bag'riga bosib, onasi ekanimm bilsin, deb Xudoga yolvordim... Urush memi shunday xasta qilib qo'ygandi...“

Vera Iosifovna Odinets, partizan:

„Nafrat o'tida yonardik. Axir, bizning yerimizda dushman nimalar qilayotganini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turardik. Ko'nglimizda nafratdan o'zga hech vaqo yo'q edi. Men yo'llarda behisob qon halqoblarini, marhumlarni ko'rdim. Onaning ko'z oldida farzandini o'ldirganlarimng guvohi bo'lganman. Odamlarning marhumlar boshida dod-faryod solishga ham majoli qolmagandi...“

Xufiya ish olib borgan minsklik Natalya Nikolayevna Akimova hikoyasidan:

„Men Novmkax shahrida, ruhiy xastalar shifoxonasida ishlardim. Odamlar shu yerning o'zida ham davolamb, ham ishlardi. Katta ferma, uch yuz getkar yer, issiqxonalar bor. Shifoxonada uch yuzta bemor davolnardi. Minskni bombardimon qilishdi. Bizning uyimiz ham yomb ketdi, ko'chamizda yonmagan uy qolmadidi. Uyimiz turgan joyga kelgammizda u yerda faqat royalming qopqog'i yotar, yong'in qoldiqlari orasida ikkitaxitoy ko'zasi do'mpayib turardi.

Shifoxonaning bosh shifokori darhol harbiy bo'limga yo'l oldi. Lekin bemorlarni o'z holiga tashlab

bo‘lmasdi. Men ular bilan qoldim. Shaharni fashistlar bosib oldi. SS guruhini¹ bizga, ayni shu yerga, fermaga biriktirishdi. Nemis Verner boshliq edi. Bir gal: „Yuring, sizning odamlaringiz o‘z postida nima ishlar qilayotganini ko‘ramiz“, deya meni boshlab ketdi. Bir postning yonida bemor ayol yugurib yonimizga keldi-da, chekishdan beringlar, deb so‘ray boshladи. Bizning bemorlarimiz o‘zlarini juda erkin tutishar, shunisi bilan ajralib turishardi. Verner uni haydamoqchi edi, bemor bo‘yniga osilib, uni o‘pa ketdi, o‘zini oliy tabaqa vakili deb biladigan Verner sha’niga dog‘ tushganday darhol to‘pponchasmi chiqarib, hamon bo‘yniga osilayotgan bemor juvonning ensasiga o‘q uzdi.

Bu voqeа qayerda bo‘lgamni ham sizga ko‘rsatishim mumkin – hozir ikkinchi palata joylashgan. Men unga tashlamb, qayerda turganini unutib qo‘yanini, bu yer shifoxona, bular esa bemorlar ekanini baqirib ayta boshladim. Oyoq-qo‘lim titrab, sira o‘zimni bosolmasdim. Meni boshqa xonaga sudrab ketishdi, birozdan keyin ortimdan Verner kirdi. U tarjimon vositasida nimanidir menga tushuntirishga urinardi. Go‘yo men behuda iztirobga tushyapman, ortiqcha dahmazalardan xalos bo‘lish kerakligini tushumshim kerak emish.

Keyin nima bo‘ldi, deng... Dushegubka, ya’ni fashistlarning odam o‘ldiradigan mashinalari keldi. Ularغا bemorlarni joylab olib ketishdi. Yurolmaydigan zaif bemorlarni esa ko‘tarib borib hammomga tiqishdi-da, eshikni yopib, hammomning derazasiga mashinaning tutun chiqaradigan quvurini suqishdi va hammasini zaharlab o‘ldirishdi. So‘ngra murdalarni xuddi sarjinday mashinaga taxlashdi.

¹SS guruhı – Gitler armiyasining alohida shafqatsiz bo‘linması.

Bularning hammasini boshqarib turgan rahbar rosmana jazavaga tushganimni ko'rib, meni xonasiga olib borishlarini buyurdi. Hatto o'z qilmishlarimi oqlashga ham urindi: „Hozir iztirob chekyapsiz, lekin dahmazalar dan sizni qutqarganimiz uchun keyin xursand bo'lasiz. Axir, hech vaqoga yaramaydigan bu bemor kimsalarning kimga keragi bor? Ayollarga xos ko'nglibo'shlikni bas qiling“. Ular bunday ishlarni oddiy yumush kabi xotir-jam ado etardi.

Ularni odam degani ham tiling bormaydi. Bunday yirtqichlarning zamimmizda yurishiga befarq qarab bo'larmidi?“

Meming yondaftarchalarimda o'nlab, yuzlab shunday hikoyalar bor. Hayot xotiralarda quyuqlashadi, keyinchalik ularning eng saralari yuzaga qalqib chiqadi. O'tmishning qizg'in xotiralaridan meming bugungi hayotim larzaga kelayotganday.

Sobiq partizan yelena Fyodorovna Kovalevskaya Kiyevdan yo'llagan maktubdan bir necha satr:

„Biz uch kishi: otam, erim va men bir kunda urushga otlandik, bu paytda akam jang qilardi. Onam yolg'iz o'zi sigir bilan qoldi...“

Urushdan faqat men qaytdim. Sigirni aravaga qo'shib, onam bilan o'tin olib kelgani o'rmonga yo'l oldik...“

Gomel shahrida yashirin ish olib borgan Sofya Vasilevna Osipova Vigonnaya hikoyasidan:

„Institutni endi bitirgandim. Jomadonimm olib uyga qaytyapman, yo'l-yo'lakay urushga yo'l olgan erkak-larga duch keldim. Agar erkaklar kamlik qilsa, men ham urushga borganim bo'lsin, deb ahd qildim...“

Uyga kelganimda onam yig'lab o'tirar, otam ham xafa edi. Onam meni bag'riga bosib, yuzimdan o'pib

dedi: „Qaytib kelgaming yaxshi bo‘ldi, birga yashashga nima yetsm! Endi mima qilamiz?“ Men, kurashamiz, deb javob berdim.

Fashistlarning samolyotlari o‘scha kechadayoq shaharni bombardimon qildi, uqlab yotgan odamlar ustiga bombalar yog‘ildi. Ertalab atrofga nazar solib, odamlar boshiga tushgan ofat bilan tabiat o‘rtasidagi nomutanosiblikka guvoh bo‘ldim. Oftob charaqlab, dahshatli manzarani yoritgandi. Biz shu kundan e’tiboran tabassum nimaligini unutdik. Jangchi bo‘lish fursati yetganini har birimiz anglardik“.

Gomel shahrida yashirin ish olib borgan yana bir ayol Olga Andreyevna Yemelyanova xotirlaydi:

„Urush bo‘lyapti, men esa homiladorman. Hamma mamlakat ichkarisiga bosh olib ketish kerak, deydi. Mening ko‘nglimda esa o‘zgacha fikr: yo‘q, tug‘ilgan joyimni tashlab qayoqqa boraman? Tug‘ishim kerak. Chagalog‘im bilan kimmiga sig‘aman?

Urushning o’ninchisi kumi tug‘dim...

Fashistlar zaminimizni toptayotganini ko‘rgani hamon onam shol bo‘lib qoldi. Qanday qilib bo‘lsa ham partizanlar bo‘linmasini topishim kerak, degan qarorga keldim. Ko‘nglimizda Vatandan muqaddas hech vaqo yo‘q edi“.

To‘rtinchi gvardiya Novgorod bombardimonchi aviapolkining uchuvchisi, gvardiya katta leytenantı Anna Semyonovna Dubrovina-Chekunova urushning dastlabki kunlari haqida shunday hikoya qiladi:

„Men front uchun zarur ixtisoslikka ega edim. Loaqlar bir lahma o‘ylamadim ham, ikkilanmadim ham – frontga yo‘l oldim.

Esimda qolgani shuki, xonamdag‘i gullarni tashqariga olib chiqib, qo‘shni ayollarga yuzlanib:

– Iltimos, suv quyib turinglar. Men tezda qaytaman,
– dedim.

To‘rt yil deganda qaytib keldim.

Juda ko‘p qizlar urushga safarbar qilingan. Uyda qolgan qizlar bizga havas qilar, xotinlar esa yig‘lardi. Hammaning ko‘zida yosh, men bilan ketayotgan qiz esa yig‘lashni xayoliga ham keltirmaydi. Nihoyat, ko‘pdan qolmaslik uchun, noiloj, ko‘zlarini tupugi bilan namlab oldi. Hamma yig‘lab turgan bir paytda yolg‘iz o‘zing ko‘zyoshi qilmasang, juda noqulay-da. Biroq urush dahshatini qayoqdan ham bilibmiz. Yosh edik-da...“

Harbiy feldsher Mariya Afanasyevna Garachuk:

„Tibbiyot bilim yurtini tugatdim... Uyga qaytganimda otam xasta edi. Dabdurst urush bosblandi. Ertalab daraxtlarning yaproqlaridagi shabnam qurib ulgurmagan bir paytda urush boshiangami haqida ovoza tarqaldi. Urush xabarini eshitgan lahzada yaproqlarda ko‘zim tushgan shabnamlarni keyinchalik frontda ham eslardim.

Biz nima bo‘lishidan qat‘i nazar, hatto chekina tutrib ham g‘alaba qozonishimizga ishonardik. O‘ldirishadimi, yaralanamanmi yoki tirik qolamanmi, o‘zim ha-qimda o‘ylashga fursat yo‘q edi. O‘zimizga qarashga bir daqiqa ham vaqtimiz yo‘q. Ko‘zimiz faqat yaradorlarni ko‘radi. Ochiq havoda, g‘allazor shovullay boshlaydi. Yana nemis avtomatlari „ta-tata-ta“ qilib „sayraydi“-da, bir nafas sukunat cho‘kadi. G‘allazor shovullay boshlaydi. Yana nemis avtomatlari „sayrash“ga tushadi... G‘allazorning shovullahim yana eshitarmikanman, de-gan fikr xayoldan kechadi.

...Yaradormi sudrab ketyapman. Birdan yig‘layotgan bola ovozi qulog‘imga chalinadi. Yosh bola zo‘r berib yig‘lab, yordamga chaqirardi. Qayerda, kim, nahotki,

degan savollar iskanjasida dala bo'ylab izg'iyman, sal bo'lmasa esim og'ib qolayozdi. Nihoyat, yaroqsiz holga kelgan tank ostidan besh yashar qizchani topib oldim. Qizaloqning yonog'ida qon ko'rib, dahshatga tuslidim. Bolalarning alanga ichida qolishidan ham ortiq dahshat bormi?“

Gomel shahridan Anna Konstantinovna Antuskova:

„Bolaligimda fe'l-atvorim shakllamishida amakimning ta'siri katta bo'lgan. U otam bilan birga Budyonniy armiyasida jang qilgan. Amakim jangchi do'stlari haqida hikoya qilishni, fuqarolar urushi va o'sha urush qahramonlari to'g'risidagi qo'shiqlarni kuylashni xush ko'rardи. „Daryo ortidagi olis o'lkada“, „Vohalar va adirlar bo'ylab“, „Eng qudratli Qizil armiya“ kabi qator qo'shiqlarni birinchi marta aynan amakimdan eshitgaman. Amakim tufayli fuqarolar urushi davri qo'shiqlarini haligacha xush ko'raman.

Urushdan oldin hamshiralar maktabini tugatishga ulgurgandim va mem Gomel viloyati Buda-Koshelevsk tumanining Nedoysk shifokorlik uchastkasiga hamshiralik xizmatiga yuborishdi. O'sha joyda xo'jalik komsomol tashkilotiga kotiba etib saylashdi, tashkilotning yetmish a'zosi bor edi. Biz to'garak tuzdik. Bu hayotimdagи eng masrur va baxtiyor danilar edi. Biroq bu davr uzoq davom etmadi. Unga urush chek qo'ydi. Yigirma ikkinchi iyunning tongini hozirgidek eslayman...

Biz konsertdan qaytayotgandik. Kuy-qo'shiqlar bilan xo'jalik boshqaruvi binosiga yetib keldik va shu yerda urush xabarini eshitdik. Birdan hamma jim bo'lib qoldi. O'yga botib, jiddiy tortgan holda barcha ulg'ayib qolgandek edi. Shu damda hammaning Vatanni himoya qilishga tayyor ekanligi yaqqol ko'rinish turardi. Tibbi-

yot xodimi sifatida ro‘yxatda turganim uchun shu kuni kechki payt armiyaga safarbarlik yo’llanmasini oldim. Do‘srlarim bilan ajralish fursati yetib kelgandi. Ko‘plar yig‘i-sig‘i qilardi. Qo‘rroq demasliklari, qo‘rqanidan frontga borishni istamayapti, deb o‘ylamasliklari uchun yig‘lashdan hayiqardim. Holbuki, hech narsadan tap tortmasdim, qalban urushga tayyor edim. Aqlan hammasini anglab ulgurmagan bo‘lsam ham, qalban jangga shay edim...“

Polsha qo‘sinchalarining podporuchigi, avtomatchilar bo‘linmasining komandiri Lyubov Ivanovna Lyubchik Berezino tumanining Perevoz qishiog‘ida istiqomat qiliishi to‘g‘risida gazetada bosilgan ocherkdan bilib oldim.

Berezinogacha yangi „Ikarus“ avtobusida yetib oldim. Bekatda menga shunday deyishdi: „Perevoz to-monga avtobus qatnamaydi. Botqoq yo‘ldan sut tashiydigan mashina ham, pochta mashinasi ham hamisha yuravermaydi“. Pochta mashinasi, ma’lum bo‘lishicha, ertalab o‘tib ketibdi, sut tashiydigan mashina esa markaziy xo‘jalik qo‘rg‘onchasi joylashgan qo‘shni qishloq-qacha eltib qo‘yishi mumkin ekan. U yerdan yana to‘rt kilometr yo‘l bosish kerak. Piyoda yoki duch kelib qolsa, aravada kimdir eltib qo‘yishi mumkin. Omadim bor ekan, o‘rmonchi o‘z yumushiari bilan Perevozga borayotgan ekan, Lyubov Ivanovnaning uyi oldigacha olib borib qo‘ydi: „Hoy, Lyubchik, urushda ko‘rsatgan jasoratingga tan bermaslikning iloji yo‘q, uyingdan muxbirlarning oyog‘i uzilmaydi-ya...“

Lyubov Ivanovna bilan pechkaga o‘t yoqdik-da, birgalikda kartoshka tozalab, qaynatdik va dasturxon atrofidan joy oldik.

Yana bir bor urush xotiralariga qulq tutdim.

...Saratovga men ham evakuatsiya qilindim. Chamasi, uch oyda chilangarlik kasbini o'rgandim. O'n ikki soatlab dastgoh yonidan jilmasdik. Xayolimda esa faqat frontga talpinaman. Dugonam bilan harbiy bo'limga yo'l oldik, lekin zavodda ishlayotganimizni aytmadik. Aks holda frontga olishmasdi. Nihoyat, maytimga yetdim.

Ryazan piyoda askarlar bilim yurtiga yuborishdi. U yerdan pulemyotchilar bo'limmasining komandiri bo'lib chiqdim. Faqat piyoda yo'l bosib, Varshavagacha borganman...“

Partizanlar bo'linmasida hamshira bo'lib xizmat qilgan, hozir esa Ikkinci Jahon urushi tarixi Belorussiya davlat muzeyining ekskursovodi Vera Sergeyevna Romanovskayaning hikoyasi beixtiyor yodimga tushdi. U urushning dastlabki voqealari haqida hikoya qilmasa-da, lekin barcha xotiralarida mushtaraklik ko'zga tashlanadi va har bir hikoyada yangi, kutilniagan jihatni kashf etib, o'sha kunlar va yillarning ruhini yanayam aniq va mu-fassal his qilasan.

Vera Sergeyevna Romanovskaya:

„Bizning partizanlar bo'linmamiz Qizil armiya qismlariga qo'shildi va paraddan keyin qurollarni topshirib, mehnat jabhasiga yo'l olishimizni aytishdi. Biz esa tasavvur qilolmasdik: urush davom etayotir, hozirgacha faqat Belorussiya ozod qilindi, qurollarni mima uchun topshirishimiz kerak? Barchamiz bundan keyin ham jang qilishni istardik. Barcha qizlar harbiy bo'linmaga yo'l oldik... Men hamshira ekanimni aytib, frontga jo'natishlarini iltimos qildimi. „Yaxshi, sizni ro'yxatga olamiz, zarurat tug'ilsa, o'zimiz chaqiramiz“, deb javob berishdi. „Hozircha ishingizni davom ettiravering“.

Kutyapman... Hech kim chaqiray demaydi... Yana harbiy bo'linmaga bordim... Ko'p qatnaganman. „Frontda tibbiyot hamshiralari yetarli, shuning uchun sizni chaqirmayapmiz“, deb, nihoyat, ochiq aytishdi. „Faqat Minsk vayronalarini tozalaydiganlar yetishmaydi...“ Qizlarimiz qanday edi, deysizmi? Chernova degan yoshgina juvon bo'lardi, homilador ekaniga, bag'rida tug'ilajak farzandining yuragi urib turganiga qaramay, minalarni yonboshiga olib tashirdi. Dugonalarim mana shunday fidoyi edilar. Sababi nima deysizmi? Sababi oddiy: bizni mana shunday ruhda, Vatan va biz bir tan-u bir jonmiz, degan kayfiyatda tarbiyalashgan. Boshqa bir dugonam esa yoshgina qizalog'ini shahar bo'ylab qo'rqlmay yetaklab yurar, qizining badaniga ko'ylagi ostidan varaqalar bog'langan bo'lardi. Qizaloq bechora yo'l-yo'lakay „Oyi, siqilib ketyapman... Bo'g'ilib ketdim“, deya zorlanardi. Ko'chada esa har qadamda nemislar, politsiyachilar.

Bolalar-chi?.. Biz ularni ham bo'linmamizga olib ketgandik, lekin bola baribir bola-da. Qamalda qolganimizda, xavf-xatar kuchaygach, ularni front ortiga jo'natishga qaror qildik, lekin ular bolalar uyidan yana frontga qochib kelishardi. Zumrashalarni yo'llarda tutib olishar, ular yana qochib ketar va frontga yo'l olardi...

Bunday holatlarning sababini tushuntirib berguncha tarix charxpalagi yana yuz yil aylansa ajab emas. Homilador ayolning minani bag'riga bosib tashishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring... Axir, u farzand kutayotir... Sevgan, yashashni istaydi... Lekim o'limdan tap tortmasdi...“

Bum qanday ta'riflash mumkin? Lev Tolstoy buni pinhona vatanparvarlik shijoati, deb ta'riflagan. Urush qatnashchilari esa o'zлари haqida balandparvoz gap ayt-

maydi: „Sababi nima deysizmi? Sababi oddiy: bizni mana shunday ruhda, Vatan va biz bir tan-u bir jonmiz, degan kayfiyatda tarbiyalashgan“. Biz esa buning sababini bilishimiz, mohiyatini anglashimiz zarur, chunki biz ularning farzandlari, nabiralarimiz.

Xotiralarga qulqoq tutib, tasavvur qilishga urinaman... Yo‘q, ularning o‘rniga o‘zimni qo‘ymoqchi emasman. Bunga haqqim yo‘q. Lekin xotiralarni yozib olish asnosida ular boshidan kechirgan dahshatlarni his qilishga chog‘lanaman. Askarlar chekkan tamaki tutuniga to‘lgan vagonlardagi, sochlari o‘g‘il bolalardek tarashlangan, bir xil harbiycha kiyangan qizlar ko‘z oldimga keladi, egnidagi qalin shinellar etagi yerga tegay deydi, bir-birining oldida ko‘zyoshi to‘kishdan andisha qiladi, hatto onalarining bag‘rida ham xijolat chekadi – axir, ular frontga ketmoqda!

Yoshi kattaroqlari xayolga tolib, sukul saqlagan ko‘yi, ular – yoshlari esa shodu xurram, qo‘shiq kuylab yo‘l olganlarini hozir ham eslaydilar. Meni hayratlan-tirgan jihat shundaki, urushga qanday yo‘l olgansiz-lar, deb so‘raganiningizda, asosan, bir xil javob berishadi: yaxshi ko‘rgan qo‘shiqlarimizni kuylaganmiz. Ular urush haqida nimani bilardi? O‘n yetti-o‘n sakkiz yosha urush deganda, nimani tasavvur qilish ni umkin? Mana, masalan, feldsher Mariya Vasilevna Tixomirova bunday eslaydi. U urushdan bir oy oldin tibbiyot bilim yurtini bitirib, taqsimot bo‘yicha Leningrad viloyati ning qishloq shifoxonalaridan biriga yo‘l oladi. Shifoxonaga yetib kelib joylashgani hamono harbiy bo‘lin-maga chaqirib: „Ikki soat ichida tayyor bo‘ling, sizni frontga jo‘natamiz“, deyishdi. Men tayyorgarlik ko‘rib, zarur narsalarni jomadonga joylashtirdim.

- Frontga o'zingiz bilan mimalar oldingiz?
- Konfet.
- Nima-nima??
- Bir jomadon konfet.

Memi ishga yuborishgan qishloqda yo'l puli berishardi. O'sha pulning hammasiga bir jomadon shokoladli konfet xarid qildim. Konfetning ustiga esa kursdosh qizlar bilan birga tushgan fotosuratimni joyladim. Harbiy bo'linmaga kelganimda boshliq: „Qayerga jo'natishimizni xohlaysiz?“ deb so'radi. „Dugonam qayerga bormoqchi?“ deb men ham uni savolga tutdim. Leningrad viloyatiga birga kelgandik, dugonam o'n besh kilometr naridagi qo'shni qishloqda ishlardi. Bo'linma boshlig'i javobimni eshitib: „U ham shumi so'radi“, deb kulib yubordi.

Minsk viloyatining Berezino tumani markazida istiqomat qiluvchi katta serjant, haydovchi Tamara Il'larionovna Davidovich xotirasida esa quyidagi voqeas saqlanib qolgan:

„....Men haydovchilar kursini tugatdim. Olti oylik kurs. O'qituvchi ekamim bilan qiziqishmadi (urushgacha pedagogika texnikumida tahsil olganman). Urushda o'qituvchimng kimga keragi bor? Askarlar kerak. Qizlar ko'pchilik edik, butun boshli haydovchilar batalyoni.

Bir gal mashg'ulotlar paytida... Bu voqeami nima uchundir ko'zyoshsiz eslay olmayman. Bahor edi. Biz o'q otish mashg'ulotlarini yakunlab, ortga qaytdik. Men binafsha terib oldim. Bir tutamgina. Ularni uzib olib, miltiqning xanjariga bog'lab qo'ydim. Shu asno ketaverdim.

Lagerga yetib keldik. Komandir barchani safga tizib, mening ism-sharifimi aytdi. Men oldinga chiqdim. Miltig'imning uchiga binafshalarni bog'lab olganimni unutibman. Komandir menga tanbeh bera boshladi:

„Askar guldasta teruvchi emas, balki rosmana jangchi bo‘lishi kerak...“ Shunday sharoitda qanday qilib xotirjam gullar terish mumkinligini u sira aqliga sig‘dira olmasdi. Lekin binafshalarni tashlab yubormadim, ularni asta cho‘ntagimga sollb qo‘ydim. Ana shu binafshalar uchun navbatdan tashqari uch naryad bilan jazolan-ganman...

Yana bir gal navbatchilikda turibman. Tungi soat ikkida meni almashtirgani kelishdi, men esa joyimdan jilmadim. „Sen kunduz kuni navbatchi bo‘la qol, tun bo‘yi o‘zim navbatchilik qilaman“, deb aytdim. Qushlar-ning sayrashini tinglash uchun tun bo‘yi, tongga qadar navbatda turishga rozi edim.

Frontga otlanganimizda, ko‘cha bo‘ylab borarkan-miz, ayollar, keksalar, bolalar – hamma yelkama-yelka turib kuzatib qolgan. Barchaning ko‘zida yosh: „Qizlar frontga ketishyapti“. Aytgamimdek, butun boshli qizlar batalyoni edik. Eshelonda ketib boryapmiz, o‘y-xayoli-miz qayoqda deng? Hamon yosh boladan farq qilmay-miz. Bir qiz bilan vagon yo‘lagida turibmiz. Yigitlar taklif qilishdi: „Hoy qizlar, qachongacha ochlikka chidaysizlar? Qotgan nonimiz bor, tortinmay kelavering-lar“. Biz esa xotirjam bosh tortamiz. Qadrimizni yerga urgimiz kelmaydi...“

Jarroh Vera Iosifovna Xoreva esa urushning dastlabki kunlarida ko‘ngidan kechganlarini shunday ifodalaydi:

„Frontga ketyapman-u, urush uzoq davom etmasa kerak, deb o‘ylayman. O‘zim yaxshi ko‘radigan bitta yubkamni, bir juft paypoq va bitta tuflı oldim. Voronej-ni tashlab ortga chekinganimizda do‘konga kirganimiz, baland poshnali tufli xarid qilganim hamon yodimda. Ayanchli sharoitda chekinyapmiz, ko‘chalar loy, men

esa do‘konga kirdim va nima uchundir tuqli xarid qilgim keldi. Hozir ham esimdan chiqmaydi, juda bejirim tuqli edi... Atir ham sotib oldim. Ko‘nikkan hayot tarzimizdan birdaniga voz kechish qiyin kechdi. Urush boshlangan, men esa hamon qizaloq edim-da...“

Son-sanoqsiz dalillar ichidan nima uchun mana shu ikkitasini: bir jomadon konfet bilan miltiq xanjariga bog‘langan bir tutam binafshani tanlab oldim? Ehtimol, men anglashni istagan qiz tanish narsalar orasida kamina uchun yana ham hayotiy va yaqinroq qiyofa kasb etar. Nima bo‘lganda ham portlatilgan necha-necha dushman eshelonlari, urib tushirilgan samolyotlari, yondirilgan mashinalari, qo‘lga kiritilgan o‘ljalardan ko‘ra aynan o‘sha, konfet to‘la jomadon-u binafshalar sabab olingan navbatdan tashqari uchta naryad jazosi mening bugungi tasavvurimga kuchliroq ta’sir qiladi. G‘alaba qozonish uchun qancha zarur bo‘lsa, shuncha eshelon, samolyot va texnika yo‘q qilinganini biz bugun bilamiz. Jangovar to‘qnashuvlar bayomi emas, balki urushdagi inson hayoti tafsilotlari bugun hammasidan ham ko‘proq hayajonlan-tiradi va hayratlantiradi. Urush har bir hayotiy voqeanning, turmushdagi har bir mayda-chuydamng qadrini yuksaltirdi, u yerda turmush bilan borliq jipslashdi.

Oddiygina bo‘lgan bu qizlar qanday qilib ajoyib askar bo‘lishdi? Ular jasorat uchun tayyor edi, biroq armiyaga tayyor emasdi. Armiya ham o‘z navbatida ularga tayyor emasdi, chunki qizlarning aksariyati ko‘ngilli ravishda frontga otlanardi. Ulardan hech kim umidvor ham bo‘lmagan, kutmagan ham: „Harbiy bo‘linma boshlig‘i oldida bir qarichgina bo‘lib turibman. U mendan ajablanib so‘radi: „Qizlarni armiyaga olishadi, deb senga kim aytdi?“ Urushning ilk kunlari edi... Yil o‘tdi, men esa

urushga qanday foydam tegishi mumkin, deya zo'r berib o'ylayman, lekin frontga jo'natish uchun issiq qo'lqop-dan boshqa hech narsa topolmayman. Oyog'imdag'i piy-mam o'ttiz to'rtinch'i o'lchamli, kichkina bo'lgani uchun frontga jo'natib bo'lmaydi. Yana harbiy bo'linmaga yo'l olaman...“ deb eslaydi oddiy askar, razvedkachi Lyubov Ivanovna Osmolovskaya.

Askarlik mahoratini ular daf'atan va oson o'zlashtir-magan. Qirqinchi o'lchamli kirza etiklar yoki uzun o'ramali, o'zlarining so'zлari bilan aytganda, „zanjirli“ amerikacha botinkalar, shinel kiyishlari, uzun sochlari-ni qirqishlari (qizlik o'tmishi bilan askarlik hayotini bir-biridan keskin chegaralaydigan bu o'ta shafqatsiz yo'qotishni ularning bari, albatta, esga olardi) kerak edi, harbiy libosga ko'nikish, har bir harbiyning unvonini ajrata bilish, „nishon“ga bexato o'q uzish, emaklab yuriш, paytava o'rash, bir necha kunlab uxlamaslik, sa-noqli daqiqalarda gazniqob kiyish, okoplar qazish talab qilinardi. Frontga yuborishlarini iltimos qilishganda, hat-to ularning xayoliga ham kelmagan urushning o'ziga xos kundalik tashvishlari edi bular.

Gruziyaning Obza qishlog'idan oddiy askar, zenitchi Ionna Aleksandrovna Smirnova xotirlaydi:

„Bizni vagonlarga joylashtirishgach, mashg'ulotlar boshlandi. Hammasi biz tasavvur qilgandan mutlaqo boshqacha edi. Saharlab turardik, bir lahma ham yolg'iz qolmasdik. Biz esa ko'nikkan turmush tarzimizni unuta olmasdik. Faqat to'rt sinf ma'lumotiga ega bo'linma komandiri, kichlk serjant Gulyayev nizomni o'rgatar ekan, ayrim so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilganda jah-limiz chiqardi. Bunday talaffuz bilan bizga nimani ham o'rgata olardi, deb o'ylardik...“

Karantindan keyin, qasamyod qilish arafasida starshina shinel, pilotka, yubka, ichko'ylak o'rniga surpdan erkakcha tikilgan yengi uzun ikkita ko'ylak, paytava o'rniga esa paypoq hamda poshnasi va uchiga metall nag'al qoqligan toshday og'ir amerikacha botinkalar – harbiy kiyim-kechaklar olib keldi. Bo'yim bor-yo'g'i bir metr-u ellik uch santimetr, o'ttiz to'rtinchl o'lchamli poyabzal kiyganim uchun butun rotada eng past bo'yli men edim. Harbiy sanoat, boz ustiga Amerika sanoati bunday o'lchamli kiyim-kechak ishiab chiqarmasdi. Menga qirq ikkimchi o'lchamli botinka berishdi, iplarini yechmasdan kiyib olardim va yechib qo'yardim, juda og'ir bo'lgani uchun oyog'imni arang sudrab bosardim.

Yurganimda tosh yotqizilgan maydondan uchqun sachrardi, xullas, qadam tashlashim harbiycha yurishga sira o'xshamasdi. Dastlab qanchalar azob bilan yurganimni eslasam, yuragim orqaga tortib ketadi.

Komandir qay asno yurayotgammm ko'rib, oldiga chaqirdi:

– Smirnova, shunaqayam qadam tashlaydimi? Nahotki senga o'rgatishmagan bo'lsa, nima uchun oyog'ingni ko'tarmayapsan? Navbatdan tashqari uchta naryad e'lon qilaman...

Men javob berdim:

– Xo'p bo'ladi, o'rtoq katta leytenant, navbatdan tashqari uchta naryad! – o'girilib turgan joyimga qaytmoqchi edim, botinkam polda qoldi, tovomin qontalash bo'lib ketgandi.

Nihoyat, nima uchun risoladagiday qadam tashlay olmayotganim sababi oydinlashgach, rotamizning etikdo'zi Parshin eski plash-chodirdan menga o'ttiz oltinchi o'lchamli etik tikib berish haqida buyruq oldi...“

Ular o'smirlikdan, erkin hayotdan frontga qadam qo'yishgan, ko'pincha o'zlarini bolalardek tutishardi, frontda esa harbiy intizom.

Gvardiya leytenantı, uchuvchi, moskvalik Antonina Grigorevna Bondaryova yana eslaydi:

„Bizni boshqacha bo'lган deb o'ylamang, aksincha, siz kabi qizlar edik. Intizom, mizomlar, turli harbiy belgilari – bu kabi harbiy ko'mikmalarni birdaniga o'zlashtirib olmaganmiz. Deylik, samolyotlarni qo'riqlayapmiz. Nizom bo'yicha, kimdir yaqinlashadigan bo'lsa, uni to'xtatish kerak: „To'xta, kimsan?“ Dugonam polk komandirini ko'rib qolib, qichqirgan: „To'xtang, kimsiz? Meni kechirasiz-u, lekin otib tashlayman!“ Tasavvur qil-yapsizmi? U qichqiryapti: „Meni kechirasiz-u, lekin otib tashlayman!“

Aviatsiya kapitani, u ham moskvalik Klavdiya Ivanovna Teryoxova esa shunday hikoya qilgandi:

„...Qizlar sochlari turmaklangan holda bilim yurtiga kelishdi. Men ham uzun sochiarimi boshimga o'rab olganman. Bu sochlarni qanday qilib yuvsaga bo'ladi? Qayerda quritamiz? Sochingizni endi yuvib bo'lganingizda, hujum boshlanib, chop aksangiz... Komandirimiz hamma sochimi oldirsin, deb buyruq berdi. Qizlar sochlarni oldirar ekan, hammasi ko'zyoshi to'kardi. Keyinchalik mashhur uchuvchil bo'lib yetishgan Liliya Litvyak esa chiroyli sochlardan ajrashni hech istamasdi.

Men Raskova huzuriga otlandim:

– O'rtoq komandir, buyrug'imgiz bajarildi, faqat Litvyak bosh tortdi.

Marina Raskova ayollarga xos muloyimligiga qaramay, lozim bo'lganda juda qattiqqo'l komandir bo'la olardi. U meni ortimga qaytardi:

– Buyruq bajarilishini ta'minlay olmasang, partiya yetakchisi bo'lib nima qilib yuribsan? Buyruq so'zsiz bajarilsin, tamom!..

Ko'yylaklar, poshnali tuflilar... Ularni ko'zimiz qiy-may xaltachalarga berkitdik. Kun bo'yi oyog'imizda etik bilan yuramiz, kechqurun esa tuflilarni kiyib, o'zimizni ko'zguga solamiz. Buni Raskova ko'rib qoldi va bir necha kundan keyim: „Barcha ayol kiyimlari posilkalarda uyga jo'natilsin“, – degan buyruq chiqdi.

Lekin yangi samolyotni boshqarishni tinchlik davridagidek ikki yilda emas, yarim yildayoq o'rganib oldik. Buning uchun qizlar hech narsaga chalg'imasliklari, o'zlarini askardek tutishlari talab qilinardi. Bu osonmi? Mashinada hammomga ketyapmiz, shahar ko'chalarida esa ayollar tuflilarda, ko'yylaklarda yurishibdi. Bizda begona hayot avvalgidek davom etayotir. Qizlar boshlarini egib, ma'yus tortib qolishdi...

Dastlabki mashg'ulotlarda ikki ekipaj halok bo'ldi. Bir yo'la to'rtta tobut. Butun boshli uchta polk, biz ros-mana yig'i-sig'i qila boshladik.

Raskova nutq so'zladi:

Qadrli dugonalarim, ko'zyoshlariningni artinglar. Bu ilk yo'qotishimiz. Kelgusida bunday judoliklar ko'p bo'ladi. O'zingizni qo'lga oling...

Keyinchalik urushda halok bo'lganlarni ko'zyoshi to'kmasdan dafn etganimiz. Endi esa sizning oldingizda yig'lab o'tiribman. Urushda yig'lashni ham yig'ishtirib qo'ygandik. Rost aytypman.

Biz qiruvchi samolyotlarda parvoz qillardik. Parvozdagi balandlikning o'ziyoq ayol tanasi uchun g'oyat-da og'ir yuk bo'lib tushardi, ba'zida qornimiz umurtqa-mizga yopishib qolardi. Qizlar esa samolyotlarda uchar,

dushmanning manaman degan mohir uchuvchilarini urib tushirardi. Ishonasizmi, biz o'tib qolsak, uchuvchi ayollar ketishyapti, deya erkaklar havas bilan tikilishardi. Ular ko'zlariga ishonmay hayratga tushardi. Samolyotdagi parvozlarimmi hayotimning eng masrur damlari deb bilaman...“

Ular olti oylik, hatto uch oylik kurslarda ta'lim olib, hamshira guvohnomasiga ega bo'lishar, merganlar, uchuvchilar yoki sapyorlar bilim yurtida jadallashtirilgan dasturlar asosida shug'ullanib, mergan, uchuvchi va sapyorlar safidan joy olardi. Qizil armiya hujjatiga ega bo'lsalar ham chinakam jangchi bo'lib shakllanmagan edilar. Bularning bari maktabda ta'lim olishni eslatar, bu borada esa ular muayyan tajribaga ega edilar, lekin ularda urush va front ko'nikmasi hali hosil bo'limgandi, urushga oid tasavvurlari esa kitobiy, hatto tamomila xayoliy edi.

Harbiy komissiya ko'rígiga ajabtovur askarlar keldi. Shunday askarlardan birini partizanlar bo'linmasiga yuborishmoqda, u esa soddadillik bilan savol ber-yapti: „Partizanlar bo'linmasidan Moskvaga, onamga xat yoza olamanmi?..“

Vera Vladimirovna Shaveldisheva, katta leytenant, jarroh:

„Kuzda meni harbiy bo'limga chaqirishdi, polkovnik savol berdi: „Samolyotdan parashyutda sakray olasizmi?“ Men sakrashga qo'rqaman, deb tan oldim. Desant qo'shinlarining kiyimi juda bejirim, har kum shokolad berishadi, deb meni uzoq avradi. Lekin men bolaligimdan balandlikdan qo'rqardim. „Zenit artilleriyasiga yuborsak-chi?“ Zenit artilleriyasi nima ekanim ham yaxshi bilardim. Polkovnik nihoyat: „Sizni partizanlar bo'lin-

masiga yubora qolamiz“, dedi. „Partizanlar bo‘linmasidan Moskvaga, onamga xat yoza olamanmi?..“ – deb so‘radim. Polkovnik qizil qalam olib, yo‘llanmamga „Dasht frontiga...“ deb yozib qo‘ydi.

Poyezdda menga navqiron kapitan mahliyo bo‘lib qoldi. Tun bo‘yi bizning vagonimizda tik oyoqda turdi. U allaqachon urush alangasida toblangan, bir necha marta yarador bo‘lgandi. Mendan sira ko‘zini uzmay, shunday dedi: „Verochka, faqat latofatingizni yo‘qotmang, qo‘pol bo‘lib qolmang. Hozir yangi ochilgan gulday noziksz... Men urushda nimalarni ko‘rmadim!..“ Keyin shu ruhda yana nimalardir dedi, urushda insoniy qiyofani saqlab qolish qiyinligini aytdi...

Ikkinchı Ukraina frontining to‘rtinchi gvardiya armiyasini dugonam bilan bir oy deganda topdik. Bosh jarroh bir necha daqiqa bizni ko‘zdan kechirgach, jarrohlik bo‘limiga boshladi: „Mana sizning jarrohlik stolingiz...“ Yirik sanitар mashinalari, „studebekker“larning keti uzilmaydi, yaradorlar yerda, zambillarda yotibdi. Biz faqat bitta savol berdik: „Avval kimni operatsiya qilaylik?“ – „Jim yotganlardan boshlanglar...“ Bir soatdan keyin jarrohlik stoli yonida turib, operatsiya qillardim. Bu yog‘i uzlusiz operatsiyalarga ulanib ketdi... Kunlab operatsiya qilamiz, biroz mizg‘iyimiz-da, ko‘zlarimizni ishqalab, yuzimizni yuvib, yana jarrohlik stoli yomidan joy olamiz. Ikkitadan keyin uchlnchisi o‘lgan bo‘lardi. Hammaning jonini saqlab qolishga ulgurmasdik...

Jmerinka stansiyasida qattiq bombardimonga duch keldik. Poyezd to‘xtadi va biz har tomonga chopa ketdik. Kuni kecha ko‘richagi operatsiya qilinganiga qaramay, siyosiy ishlar bo‘yicha yetakchimiz ham yugurib borardi. Tun bo‘yi o‘rmonda jon saqladik, bekinamiz,

poyezd vagonlari esa batamom yakson bo'ldi. Tongda nemislarning samolyotlari pastlab uchib, o'rmonga bomba yog'dira boshladi. Qayoqqa bekinasan? Yumronqoziqday yerni kovlab kirib ketolmaysan-ku. Men oqqayinni quchoqlab oldim: „Oh, ona, onajon!.. Nahotki halok bo'lsam? Omon qolsam, dunyoda mendan baxtli odam bo'lmaydi...“ Oqqayinni qanday quchoqlab olgamimni keyin kimga aytib bermay, hamma kulardi. Halok bo'lismish hech gap emasdi. Qaddimni rostlab turib olganman, qayin esa oppoq...

G'alaba kunini Venada mishonladik. Biz hayvonot bog'iga bordik, shuni xohlagandik-da. Konsentratsion lagerga ham borishimiz mumkin edi. Oyog'imiz tortmadi... Hozir nega bormadik ekan-a, deb ajablanaman, o'shanda borishm xohlamagandik...“

Dala kir yuvish-hammom otryadining oddiy askari Svetlana Vasilevna Katixina xotiralaridan:

„...Biz oilada onam, otam, men – uch kishi edik. Birinchi bo'lib otam frontga ketdi. Onam hamshira bo'lgani uchun frontga otam bilan birga ketmoqchi bo'ldi, lekm umi boshqa tomonga, otamni esa boshqa bir tomonga yuborishdi. Endigina o'n olti yoshga to'lganim uchun memi olishmadid. Ammo men harbiy bo'limga qatnashni kanda qilmadim, bir yildan keyin men ham frontga otlandim.

Poyezdda uzoq yurdik. Biz bilan birga gospitallarda davolangan askarlar ham qaytishardi, ular orasida ham yosh yigitlar bor edi. Ular front haqida hikoya qilar, biz esa angrayib tinglardik. Frontda o'qqa tutadilar, deb aytishdi va biz qachon bizni o'qqa tutisharkan, deb kuta boshladik. Manzilga yetib borgach, u yerdagilarga bizni allaqachon o'qqa tutishdi, deb aytishm mo'ljallayotgan-

dik. Yoshgina yigitcha gymnastyorkasining ko'kragiga yangi orden taqib olgani hamon ko'z oldimda. Bizning urush bilan bog'liq tasavvurlarimiz aslidagidan boshqacha bo'lgan. Bizga qurol berishmadi, balki qozon-o'chog'-u tog'oralarni ro'para qilishdi. Qizlarning hammasi tengdoshlarim, ota-onamiz bizni ardoqlab, erkalab katta qilgan. Men oilada yolg'iz farzand edim. Bu yerda esa o'tin yoramiz, pechkaga o't qalaymiz. Keyin esa kir yuvish uchun suv isitiladigan qozonlarga sovun o'rniga pechkaning kulini solamiz, yuviladigan kiyimboshlar esa juda iflos, bitlagan...“

Osoyishta davr tuyg'ulari va kechinmalari bilan yashagan inson uchun frontning dastlabki kunlari, haf-talari, oylariga chidash juda qiyin: dahshatli voqealar yana ham dahshatliroq, odatiy hodisalar esa g'ayriod-diy tuyuladi. Urushdan oldin onasi qizaloq hisoblab ayagan, erkagan qiz bola bu sinovlarga bardosh berishi kerak edi. Bu qizaloqni – leningradlik Sofya Konstantinovna Dubnyakovani sirkasi suv ko'tarmaydigan nozikoyim deyishardi. Ayol, u urushda boshdan kechir-gan, ko'rishga mahkum etilgan voqealar o'rtasidagi butun ziddiyat ayni ta'rifda mujassam. Zotan, har qanday ayol urushda his-tuyg'ulari, e'tibor va nigohi o'zgacha kimsaga aylanishi kerak.

Katta serjant, saninstruktor Sofya Konstantinovna Dubnyakova:

„Bizga qorin va boshdan yaralanish juda og'ir jarohatlar hisoblanadi, deb aytishdi. Shu bois bombardimon paytida ham, o'qqa tutishsa ham qornimiz va boshimizni yashirishga urinardik. Bir jangda majaqlangan mashinaning suyanchig'im topib olib, o'shaning panasida jon saqlaganmiz. Boshimiz tizzalarimizning orasida...

Meni qutqargan ilk yarador jangchini haligacha es-
layman. Uning yuzi yodimda... Son suyagidan yaralan-
gandi. Tasavvur qilyapsizmi, snaryad parchasi tekkan
son suyagi turtib chiqib turar, oyog‘i qonga botgandi.
Nazariy jihatdan nima qilishni bilardim, biroq uming ya-
qiniga borib, hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rgandan
keyin ko‘nglim ozib, qayt qilib yuboray dedim. Shudam
kimdir ogohlantirdi: „Hamshira, bir qultum suv ichib ol-
gin...“ Keyin bilsam, o‘sha yarador menga taskin bergan
ekan. Bu manzara ko‘z oldimdan sira ketmaydi. Uning
daldasi bilan o‘zimga keldim: „Hap, sirkasi suv ko‘tar-
maydigan nozikoyim-ey! Yarador o‘laman desa, bu
kulaman deydi-ya...“ Dori-darmon xaltam bilan uning
yarasini berkitdim-da, o‘zimni ancha yengil his qilib,
birinchi tibbiy yordam ko‘rsatdim.

Urush to‘g‘risidagi filmlarni ko‘rsam ensam qotadi:
hamshiralar pilotkasini chekkasiga qo‘ndirib olib, pax-
tali shimda emas, yubkada, hiron joyiga gard yuqma-
gan holda oldingi marrada sayr qilganday yurishadi...
Sira ham bunday bo‘Imagan!.. Shunday ahvolda yara-
dorni jang maydonidan olib chiqib bo‘ladimi? Erkaklar
davrasida yubkada emaklash hech tasavvurga sig‘maydi.
To‘g‘risini aytganda, bizga faqat urushning oxirlarida
yubka berishgan. O‘sanda erkaklarning ko‘ylagi o‘rnini-
ga ayollarning ichki kiyimini ham olganmiz. Quvon-
chimiz ichimizga sig‘magan. O‘sha kiyimlarni ko‘z-
ko‘z qilish uchun gimnarstyorkamizning yoqa tugmasini
yechib qo‘yardik...“

Qirq sakkizinchı armiyaning veterani, minsklik Anna Ivanovna Belyay xotiralaridan:

„Bombardimon qilishdi. Hamma o‘zini duch kelgan
chuqurga uradi. Men ham chopyapman. Kimdir: „Yor-

dam beringlar...“ deya ingraganini eshitdim. Lekin chopa verdim... Oradan bir necha daqqa o’tgach, yelkamda sanitari xaltasi borligi yodimga tushib, to’xtadim. Andisha qilaman. Birdan qo’rquv qayoqqadir daf bo’ladi. Orqaga yuguraman: yaralangan jangchi ingrayotgan ekan. Uning jarohatini bog’layman. Keyin ikkinchisi, uchinchisi...“

Oqliq askarlar eskadronining sanitariya instruktori Olga Vasilevna Korjni esa boshqalarni ajablantirmay qo’ygan holat – halok bo’lgan odam qiyofasi dahshatga soladi. O’n yetti yoshli qiz uni bir umrga esda saqlab qolgan:

„Men urushda hech narsani hech qachon unutmaman, deb o’ylardim. Lekin unutyapman... Ammo bir holatni ikir-chikirigacha eslayman. Navqiron, ko’rkam yigit o’lib yotibdi. Men izzatini joyiga qo’yib dafn etishadi, deb o’ylabman, uni yong’oqzorga olib kelib go’r qazishdi-da, tobutsiz, hech vaqosiz ko’mib qo’ya qolishdi, ustidan tuproq tortishdi, tamom. Oftob charaqlaydi, uning nurlari marhumning yuziga ham tushmoqda... Yoz. Loa-qal chodirning matosi ham, hech vaqo yo‘q. Shu bois egnidagi gimnastyorka, galife shimda yer bag’riga qo’yishdi, aftidan, frontga endigina kelgan, kiyimlari hali yangi edi. Shu ahvolda ko’mib qo’ya qolishdi. Lahadni ham chuqur qazishmadidi. Yarasi arzimasday tuyulsa-da, aslida o’q manglayiga tekkan, ammo qon chiqniagan hisobi, shuning uchun niurda tirikday ko’rinadi, lekin rangi oqarib ketgan.

O’qqa tutishdan keyin bomba yog’dirish boshlandi, bombalardan biri snaryad solingan qutiga tekkach, snaryadlar har tomonga sochilib, portlay boshladi... Samolyotlar boshimiz uzra quzg’unday charx uradi. Bunday sharoitda halok bo’lganlarni risoladagidek dafn etib

ham bo‘lmaydi. Qamalda qolganimizda ularni qanday dafn etganimizni aytib beraymi? O‘zimiz o‘tirgan okopning ichiga ko‘mib qo‘ya qolardik. Biroz do‘mpaygan bunaqa joyni qabr, deb ham bo‘lmasdi. Nemislar yoki mashina o‘tguday bo‘lsa toptalib ketardi, albatta. Tep-tekis yer, hech qanday nom-mishon qolmasdi. Halok bo‘lganlarni ko‘pincha o‘rmonda, daraxtlarning ostiga dafn etardik. O‘sha emanlar-u oqqayinlarning ostiga...

Hалигача о‘рмона кира олмайман. Айниқса, катта eman va qayinlar o‘sgan o‘rmonlarga... Yuragim dosh bermaydi...“

Avvaliga ohista hikoya qilishadi-yu, bora-bora baqira boshiaydilar. Keyin esa ma’yus tortib, parishon bo‘lib qolishadi. O‘zingni aybdor hisoblab, xijolat tortasan, bila-sanki, ketganingdan keyin tinchlantiruvchi dori ichishadi. Qizi yoki o‘g‘li yolvorib imo qiladi: „Balki, yetar? Haya-jonlanishi munikin emas...“ Faqat bir narsa menga taskin beradi, hatto eng mustahkam xotiraga nisbatan ham uzoq-roq yashaydigan magnitofon lentalarida yoki bir varaq qog‘ozda ularning jonli ovozi qoladi. Lekin yuzma-yuz o‘tirib, ularning hikoyalarini tinglash og‘ir, hikoya qilish esa ular uchun yana ham og‘ir.

Katta serjant, dengiz piyodalari batalyonida sanitар instruktori Mariya Terentevna Dreychuk:

„Halok bo‘lgan askarga ilk daf‘a ko‘zim tushganda boshi uzra egildim-da, o‘lganini anglab, yig‘lashga tushdim. Yigitlar yetib kelguncha yig‘laganman. Qattiq jang bo‘ldi, halok bo‘lganlar ko‘p, rota esa dushman muda-faasini yorib o‘tib, jadal ilgarilab ketdi. Memi bomba tushgan katta o‘rada og‘ir yaradorlar bilan qoldirishdi. Hammasi qornidan yaralangan, birin-ketin jon taslim qilayotir. Men esa har birining ustida ko‘zyosh to‘kaman.

Bitta yaradorning oyog‘i shimida osilib turibdi, u esa: „Oyog‘imni bog‘lab qo‘y!“ deb dodlaydi. Shimimi qirqdim, u esa: „Jon hamshira, oyog‘imni yonimga qo‘yib qo‘ygin“, deb yolvoradi“.

Urushda hamshira bo‘lgan, hozir esa Minskdag‘i Respublika stomatologiya poliklinikasining shifokori Mariya Selivestrovna Bojok xotirasida esa shunday voqealar qolgan:

„Men uchun eng og‘iri – amputatsiya, ya’ni yaroqsiz holga kelgan qo‘l-oyoqlarni kesish bo‘lgan... Ko‘pincha deyarli butun oyoqni kesib tashlashga to‘g‘ri kelar, kesilgan oyoqni arang ushiab, tog‘oraga tashlash uchun zo‘rg‘a ko‘tarib borardim. Ular juda og‘ir ekani hamon yodimda. Yarador payqab qolmasligi uchun ohista qo‘lingga olib, yosh bolani opichilaganday ko‘tarib ketasan... Ayniqsa, tizzadan yuqorisiyam kesilgan oyoqni ko‘tarish qiyin. Men hech ko‘nika olmadim. Tushlarimda ham kesilgan oyoqlarni ko‘tarib yurardim...“

Onamga xatlarimda bularni yozmaganman. Xatlarimda, hammasi joyida, kiyim-kechagim issiq, poyabzalim ham pishiq, deb yozardim. Onam oilamizdan uch kishini frontga kuzatgan, unga ham juda og‘ir edi...“

Leningrad viloyatining qo‘riq shaharchasida yashovchi, Xalqaro Qizil Xoch tashkilotining oliy nishoni – „Florens Naytingeyl“ oltin medali bilan taqdirlangan sanitariya instruktori Mariya Petrovna Smirnova (Kuxarskaya) jo‘natgan maktubdan:

„Men Odessa viloyatida tug‘ilib o‘sganman. Qirq birinchi yilda Kordimsk tumanidagi Slobodsk maktabining o’ninchisinfini bitirdim. Urushning ilk kunlari dayoq harbiy bo‘llimga oshiqidim, meni uyga qaytarib yuborishdi. Yana ikki marta bordim, ikkala urinishim

ham samara bermadi. Yigirma sakkizinchı iyulda chekinayotgan qismlar bizning Slobodsk orqali o'tishdi va men ularga qo'shilib oldim-da, hech qanday yo'llanmasiz frontga jo'nadim.

Yarador jangchini ilk marta ko'rganimda hushimdan ketib yiqilganman. Keyin o'tib ketdi. Yarador askarni qutqarish uchun o'qlar vizillab uchayotgan jang maydoniga birinchi marta kirganimda shunchalik qattiq baqirganmanki, faryodim butun maydonni tutib ketgan. Keyin ko'nikib ketdim... Oradan o'n kun o'tgandan so'ng yaralandim, o'q parchasini tanamdan o'zim chiqarib olib, yarani bog'lab qo'ydim.

Qirq ikkinchi yilning yigirma beshinchi dekabrida ellik oltinchi armiya tarkibidagi bizning uch yuz o'ttiz uchinchi diviziya Stalingrad yaqinidagi tepalikni egal-ladi. Nemislар bu tepalikni qanday bo'lmasin olishga ahd qildilar. Jang boshiandi. Nemislarning tanklari ustimizga bostirib kela boshiadi, lekin ularni artilleriya zarbalari to'xtatdi. Nemislар orqaga chekmdi, yaralangan leytenant Kostya Xudov o'rtadagi maydonda qolib ketdi. Uni olib chiqishga uringan sanitarlarni otib o'ldirishdi. Ikkita sanitar-ovcharka (men ularni o'shanda birinchi marta ko'rdim) emaklab ketdi, lekin ularni ham o'ldirishdi. O'shanda boshimdagi telpakni yechib tashlab, qaddimni rostladim-da, urushdan oldin juda mashhur bo'lgan „Jasorat maydoniga kuzatdim seni“ ashulasini avval sekinroq, keyin bor ovozim bilan aytib, olg'a yura boshladim. Biznikilar ham, nemislар ham – ikki tomondan ham o'q uzishni to'xtatishdi. Kostyaning oldiga yetib kelib, engashib, uni chanaga yotqizdim-da, ortga sudrab qaytdim. Ketib boryapman-u, ko'nglimdan faqat bir o'y kechadi: „Yelkamga

o‘q uzishmasin-da, yaxshisi, boshimni mishonga olib qo‘ya qolishsin“. Biroq o‘zimiznikilar yoniga yetib kelgumimcha bitta ham o‘q uzilmadi...

Egnimizdagи harbiy libosga qarab bo‘lmasdi, hamisha qonga belangan bo‘lardi. Men urushda ilk daf'a yaralangan katta leytenant Belovni qutqarganman, so‘nggi marta esa minomyot vzvodining serjanti Sergey Petrovich Trofimovni jang maydonidan olib chiqqanman. yetmishinchи yilda Trofimov biznikiga mehmon bo‘lib kelgan, o‘sanda boshidagi jarohatni qizlarimga ko‘rsatganman, yara o‘rni shapaloqday chandiq bo‘lib qolgandi. Jang maydonidan hammasi bo‘lib to‘rt yuz sakson bitta yaradorni olib chiqqanman. Jurnalistlardan biri: „Butun boshli o‘qchilar batalyomini-ya“, deb hayratlangan“.

Insonni mahv etadigan texnika tobora takomillashib borar, qutqarish usuli esa hamon o‘sha-o‘sha – yaradorlarni jang maydonidan yelkaga tashlab olib chiqishardi. Jang maydonida bu ish qanday bajarilgani ni men ko‘rmaganman. Lekin bir safar ko‘z oldimda sog‘lom, baquvvat erkaklar har biri oltmis-sakson kilogrammlи (odamming o‘rtacha vazni ham shuncha) qoplarni vagondan tushirishganda ularning ko‘ylagi jiqla terga botib, siqsang, chakillab suv tomadigan holga kelgandi. Garchi bu qo‘pol o‘xshatish bo‘lsa ham notanish ishni ko‘z oldimga keltirishimda qo‘l keladi. Qolaversa, yarador odam o‘z vazniga nisbatan og‘irroq bo‘ladi, ustiga ustak, o‘sha paytda tinmay o‘q uziladi, bombardimon qilinadi.

„Oldingi marraga kelib o‘zimizdan yoshi kattaroq odamlardan ham chidamli bo‘lib chiqdik. Bum izohlay olmayman. O‘zimizdan ikki-uch marta og‘ir erkaklarni jang maydonidan olib chiqardik. Unga qo‘shib qurolini

ham sudraysan, egnida og‘ir shinel, oyog‘ida esa zil-day etik. Sakson kilogrammlı tanam yelkangga ortmoqlab olasan-da, emaklayverasan. Um olib chiqqandan keyin navbatdagi yarador tomon intilasan. Yana yetmish-sakson kilogrammlı kimsani yelkangga olasan... Bitta hujum paytida besh-olti niarta shunday qilishga to‘g‘ri keladi. O‘zing esa balet raqqosalari kabi nari borsa, qirq sakkiz gramm tosh bosasan. Bu ishni uddalagamizga sira ishongim kelmaydi...“ (Strelkova A.M., harbiy feldsher).

Vera Safronovna Davidova urushgacha Moskva tarix-arkiv institutini bitirishga ulguradi, aniqrog‘i, qirq birinchi yilning oltinchi iyulida ularga diplomlarni topshirishadi. U darhol frontga jo‘natishlarim iltimos qlladi. Qo‘poruvchilar guruhi bilan dushman ortiga yuboriladi, partizanlar so‘qmoqlari bo‘ylab butun Belorussiyani bosib o‘tadi. Urushdan keyin Belorussiya Kompartiyasi markaziy qo‘mitasi huzuridagi Partiya tarixi institutida xizmat qiladi.

„Tarixchi sifatida urush tarixi bilan uzoq shug‘ullan-ganman, – degandi Vera Safronova. – Men bosh qotir-gan savollar orasida, „Ayollarni urushga borishga nima majbur qilgan?“ degan savol ham bo‘lgan. O‘ylashim-cha, bu bizning milliy o‘ziga xosligimiz. O‘z Vatam, o‘z xalqi halokatga yuz tutgan og‘ir pallada ayol bolasimi xotirjam cho‘miltirib, ovqat pishirib o‘tira olmaydi. Ik-kinchidan, urush boshlangan paytda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lishimiz, ta‘bir joiz bo‘lsa, emansipatsiya ham alohida ahamiyatga ega edi.

Masalan, biz urushning ikkinchi kuniyoq institutm tashiab, „Bizni ham urushga safarbar qilinglar!“ deb harbiy bo‘limga murojaat qilganmiz. Holbuki, front ni-

ma-yu urush nima ekani haqida hech qanday tasavvurga ega emasdik. Harbiy bo'limdagilar esa: „Institutga qaytib, davlat imtihonlarini topshiringlar“, deya ortga qaytarib yuborishdi.

Imtihonlarni topshirib, yana frontga jo'natinglar, deb o'tina boshladik. Qizlar, qizaloqlar iltimos qildi... Garchi urush ayollarning ishi bo'lmasa ham. Erkaklar esa uni o'ziga xos yumushga aylantirib olishgan. Erkaklarga nisbatan bir necha barobar sabotli, ularga nisbatan yaxshiroq moslashish qobiliyatiga ega ekaniga qaramay, ayollar urush degan yumushga sira ko'nika olmadi, binobarin, ayol – eng avvalo ona, u himoya qilishi, farzandini asrashi kerak, tabiat zimmasiga shunday vazifa yuklagan. Lekin u baribir urushga ko'nika olmadi...

Biz qirq ikkinchi yilda front chizig'ini kesib o'tib, qandaydir qabriston yomida to'xtadik. Nemislар bizdan olti kilometr narida joylashganini bilardik. Qorong'i bo'lgani uchun ular parashutli yoritkich raketalar ni to'xtovsiz otishardi. Bu raketalar ancha yonadi va uzoq-uzoqlarni ham yoritadi. Bo'limma boshlig'i meni qabriston yoniga boshlab kelib, raketalar otilayotgan joyni ko'rsatdi, o'sha butalar ortidan nemislар chiqib kelishi mumkin, deb ogohlantirdi. Men marhumlardan qo'rmasdim, bolaligimdan qabristondan ham cho'chimasdim, lekin endigina yigirma ikkiga kirgandim, birinchi marta navbatchilikda turdim va mana shu ikki soatda sochim oqarib ketdi. Ertalab ko'zguga nazar solganimda bir tutam sochim oqargagini ko'rdim. Kechasi navbatchilikda olisdagi butalardan ko'z uzmadim, butazor shovullar, tebranar, nazarimda, ularning orasidan nemislар chiqib kelayotganday tuyulardi...

Kechasi qabriston yonida navbatchilikda turish namo'ni ayollarning ishi bo'lsa? Biz hissiy jihatdan hamma narsani o'zgacha qabul qilamiz. Erkaklar bariga odatiy nazar bilan yondashardi, navbatchilikda turish, o'q otish singari ishlarga ular ruhan tayyor edi. Ayol bo'lganimiz sabab bularning bari biz uchun favqulodda tusga ega edi. Biz, albatta, moslashishga, ko'nikishga intillardik, lekin bularning barchasi biz uchun ikki hissa og'ir kechardi.

Erkaklar o'z tabiatlariga ko'ra hamma narsaga bosh-qacha yondashadilar. Dugonamning qizi yaqmida eridan ranjib shunday shikoyat qildi: „Bundan o'n yil burun ayni shu kuni to'yimiz bo'lgamni eslamadi ham. Men dan ko'ngli sovigan...“ Uning eri bunga e'tibor bermaydi: hammasi ortda qolib ketgan, eslashga ham arzimaydi. Endilikda uning fikr-zikrini butunlay boshqa narsalar chulg'ab olgan. Ayollarning urushda ishtiroki haqida gapirganda ayol ruhiyatim, albatta, hisobga olish, uning mohiyatini anglash kerak. Lekin juda ham nozik, his-hayajonga tez beriladigan ayollar favqulodda holatlarda erkaklarga nisbatan kuchliroq, chidamliroq bo'la oladi. To'xtamasdan o'ttiz-qirq kilometr yo'l yuramiz... Otlar ham, erkaklar ham holdan toyadi, ayollar esa qo'shiq kuylab ketib boraveradi. Qizlar jang maydonidan yaralangan barvasta erkaklarni olib chiqishar, ular yaralanganda yana ham og'irlashib ketardi. Bugun bunga ishonish qiyin...“

Oradan yillar o'tdi, Vera Safranova ham urush qatnashchisi, ham urush tarixchisi ko'zi bilan o'tmishga nazar solar ekan, hamon hayratga tushadi: buni qanday uddalashdi ekan, ular qanday qilib shunday ishiarni eplay oldilar ekan? Frontga otlanib, barcha smovlarga

bardosh berib, jang ham qildilar. Ayollarning bunday jasorat ko'rsatishlning o'ziyoq beqiyos ma'naviy qimatga ega.

Katta serjant, o'qchilar rotasining sanitariya instruktori Nina Vladimirovna Kovelenova eslaydi:

„Endigina o'n oltiga kirganim, o'n yetti yoshga to'lishimga ancha borligi uchun meni frontga olishmadni. Lekin bizdan feldshermi safarbar qilishdi, unga frontga yo'llanma keltirib berishdi. Yosh bolasi borligi uchun juda ezillb yig'ladi. Men harbiy bo'limga borib, „Unimg o'rmiga memi olinglar“, dedim. Onam ruxsat bermadi: „Nina, necha yoshda ekaming esingdan chiqdimi? Yoshing yetguncha balki, urush ham tugab qolar“. Ona baribir ona-da. Biroq Vatanni kim himoya qiladi?

Jangchilardan biri bir to'g'ram qotgan nonni, boshqasi esa bir bo'lak qandm menga ilinardi. Avaylashardi. Men bizning „katyusha“ raketalarimiz borligini, ular ortimizda, panada turganini bilmasdim. „Katyusha“larni ota boshlashganda yer-u osmon titrab, alanga ichida qoldi... Bu meni shu qadar dahshatga soldi, bu qiy-chuvdan, o't-olovdan, shovqin-surondan shunchalar qo'rqib ketdimki, ko'lmakka yiqilib, pilotkamni yo'qotdim. Jangchilar esa: „Seni mima jin urdi, Ninochka?“ deya hazillashib kulishardi.

Qo'l janglarini aytmaysizmi?.. Nimalar esimda qolgan? Suyaklarning „qirs-qirs“ singanini eslayman... Qo'l jangi boshlanishi bilan „qirs-qirs“ tovushi eshitiladi – insон tanasidagi suyaklar qarsillaydi. Hujum boshlanganda men jangchilardan biroz ortda, lekin deyarli yonma-yon yuguraman. Hammasi ko'z o'ngimda ro'y beradi...

Janglarda ishtirok etishga yuragim dosh bermagan. Tulaga, uyga qaytib kelganimda uyqumda hamisha bo-

sinqirab dodlardim. Kechasi onam bilan singlim bo-shimda o‘tirib yig‘lar edilar...“

Oddiy askar, aloqachi Nina Alekseyevna Semyonova so‘zlaridan:

„Biz Stalingradga yetib keldik. Bu yerda shid-datli janglar borardi. Volganing bu qirg‘og‘idan narigi qirg‘og‘iga o‘tishimiz kerak. Hech kim arzimizga quloq tutmaydi: „Kimlar? Qizlarmi? U tomondagilar sizlarni boshiga uradimi?! Bizga aloqachilar emas, o‘qchilar va pulemyotchilar kerak“. Biz esa ko‘pchilik, sakson-ta edik. Kechga borib jussasi yirikroq qizlarni oladigan bo‘lishdi, nimjon bo‘lganimiz uchun men bilan dugo-namni olishmayotgandi. Zaxirada qoldirishmoqchi edi, men shunaqangi janjal qildimki... Sohilning u tomoniga o‘tishimiz bilan hamma jangga otlandi, faqat xatoga yo‘l qo‘yganlarni qoldirishdi. Ularni shu asno jazolashardi.

Frontga endi kelgan kezlarimizda qo‘rquv nimali-gini bilmaganmiz. Lekin dam berishganda, ikkinchi qa-torda turgan paytimizda vahimaga tushganmiz. Snaryad havoda uchib borayotganda, hatto mina portlaganda ham tovushidan o‘zimizniki bilan dushmannikini ajratardik. Chiyillab uchsa, dadil odimlayver, chiyillama, o‘zingni panaga ur, albatta, ustingga yog‘iladi. Ammo dastlab bundan bexabar edik. Ilk jang paytida hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rish uchun boshimni ko‘tar-ganimda ofitserlar memi okop oldidagi tuproq ustidan itarib yuborishgan. Bolalarday qiziquvchan bo‘lgan-miz-da...“

Urush sharoitida ularni imkon qadar ayashgan, avay-lashgan. Lekin aksariyat hollarda vaziyat tuyg‘ularga shunday tus berardiki, shafqatsizlik zamirida rahmu shafqat yashiringan bo‘lardi. Oddiy askar, sanitariya in-

strukturini yekaterina Mixaylovna Rabchayova xotirlagan quyidagi voqeada shunday bo'lgan:

„Frontda ilk yaradorni sudrab boryapman, oyoqlarim chalishib ketyapti. Uni sudrab boryapman-u: „Ishqilib, o'hib qolmasin-da... Ishqilib, o'lmasin-da...“ deya shivirlayman. Uning jarohatini bog'lagachi, yig'lashga tushdim, rang-ro'yim bo'zarib, yaradorga nimalardir dedim. Yonimdan komandir o'tib borayotgandi. Ahvolimni ko'rib, menga o'shqirdi, erkaklar darg'azab bo'lganda aytadigan yomon so'zni tilga oldi...

- Nima uchun sizga o'shqirdi?
- Chunki bunday ko'ngilbo'shlik, yig'i-sig'i yaramaydi. Holdan toyib qolaman, yaradorlar esa ko'p...

Ketib boryapmiz, halok bo'lganlar uzala tushib yotibdi, tarashlangan boshlari oftobda qolgan kartoshkaday ko'karib ketgan...“

„Dastlab men hech vaqoni bilmasdim, tushunmasdim. Yoshman-da... Biz esa chekinyapmiz... Nemislarning samolyotlari shunchalik ko'PKI, osmonni ham, yerni ham qoplab olganday. Tun... O'rmon ustara bilan qirtishlanganday. Yaradorlar, halok bo'lgan birodarlarimiz ortimizda qolib ketnioqda...

Bularning barini ifodalashga hatto „dahshat“ so'zi ham to'g'ri kelmaydi...“ (*Mariya Borisovna Kovnatskaya, harbiy hamshira*).

Oddiy askar, sanitarka Natalya Ivanovna Sergeyeva ham shu haqda hikoya qiladi:

„Yaradorlarni to'g'ri jang maydonidan olib keli-shardi. Bir gal omborda ikki yuz yarador bilan yolg'iz qolganman. Bu voqeа qayerda bo'lgani esimda yo'q... Allaqanday qishloq edi... Oradan shuncha yil o'tdi axir... Yodimda qolgam shuki, to'rt kun uxmlaganman, hat-

to bir nafas o'tirmaganman, ularning bari: „Hamshira... Singiljon... yordam ber, mehribonim!..“ deya yolvorardi. Men birini qo'yib, boshqasiga chopardim, bir safar qo'qilib ketib, yiqilgan joyimda uxbab qoldim. Yaralangan yoshgina leytenant, komandir sog' yonboshiga tayanib: „Baqirmanglar! Buyuraman, hech kim baqirmsasin!“ deb hayqirganda uyg'onib ketdim. U holdan toyganimi-ni anglagandi, joni og'riyotgan yaradorlar esa tinmasdan „Hamshira!.. Singiljon!“ deya haqirgani-baqirgan. O'rnimdan sapchib turib, duch kelgan tomonga chopa ketdim. O'shanda frontga kelganimdan buyon ilk marta yig'lab yubordim...“

O'xhash xotiralarni eshitmaysiz, har bir inson uchun urush o'ziga xos tarzda boshiangan: dastlabki jang, qutqarilgan ilk yarador, halok bo'lган dastlabki jangchi... Xuddi partizanlar hayotiga oid hamma narsam, hatto yog'och krujka-yu gilzadan yasalgan qorachiroq, parashyutlardan tikilgan ayollar ichkiyimi kabi mayda-chuydalarni ham muzeysda asrab qo'yishni xohlagan Vera Sergeyevna Romanovskayaga o'xshab barini o'z holicha qoldirging keladi. „Urushda partizan bo'lган ayollardan biri, – deb hikoya qilgandi u, – ya-qinda muzeysa parashyutdan tikilgan ayollar koftasi va siynabandini olib keldi, biz ham parashyutdan shunday kiyimlar tikardik. U bularni qirq yil asragan, tobi qochganda, o'lib qolaman, deb xavfsiragani uchun muzeysa olib kelibdi. Muzeysda esa, afsuski, nima hojati bor, bular kimga kerak, deb kulganlar ham bo'ldi. „Urushdag'i jasoratga bularning nima daxli bor“ emish...

Men stolim ustidagi xatlar uyumiga va bir talay magnitofon tasmalariga nazar solaman, jasoratning son-sanoqsiz qiyofalari borligiga shular guvoh.

„Onamning bag‘riga yolg‘iz men qaytdim...“

Moskvaga, Nina Yakovlevna Vishnevskaya huzuriga ketyapman. Bu ayol haqida hozircha yondaftarchamda atigi bir sahifa ma'lumot bor: o'n yetti yoshida frontga otlangan, beshinchi armiyaning o'ttiz ikkinchi tank brigadasi birinchi batalyonida sanitariya instruktori vazifasida jang qilgan, Proxorovka ostonasidagi mashhur tanklar jangida qatnashgan. Urushdan keyin komsomollik faoliyati bilan shug'ullangan. Borisov shahrini ozod qilgan o'ttiz ikkinchi tank brigadasi haqida salmoqlı ma'lumotlar to'plagan shu shaharlik izquvarlar uni to'pishda yordam berishdi. Gazetada asarimdan bir necha marta parchalar e'lon qilingandan keyin, ayniqsa, maktab o'quvchilaridan ko'plab xatlar kela boshladi. Shu tariqa hech kutilmaganda ko'ngilli yordamchilarni topdim.

O'nlab manzillardan qaysi birini tanlash kerak, degan masala ko'ndalang turardi. Bu ishga kirishganda, kimni uchratmay, xotiralarini yozib olardim. Tez orada ma'lum bo'ldiki, hammaning xotiralarini yozib olib bo'lmaydi, ma'lumotlarni saralash va toplashning boshqacha usuli zarur. Mavjud manzillarni saralab, oldimga shunday vazifa qo'ydim: imkom boricha turli harbiy kasbdagi ayollarning xotiralarini yozib olaman. Binobarin, har birimiz hayotga o'zimizning kasb-korimizdan kelib chiqib yondashamiz. Bunday taxmin shartli ekaniga qaramay, mantiqdan xoli emasdi: hamshira ham, novvoy ham, desantchi ayol ham, uchuvchi ayol ham, avtomatchilar bo'linmasiga komandirlik qilgan ayol ham urushni o'ziga xos tarzda boshdan kechirgan. Urushda ularning har biri o'zgacha manzaralarning guvohi bo'lgan; urush desa, bittasining ko'z oldiga jarrohlik stoli keladi: „Qanchadan qancha askarlarning

qo'l-oyog'i kesib tashlangamim ko'rganman... Hatto qayerlardadir qo'l-oyog'i butun erkak borligiga ham ishongim kelmasdi. Nazarimda, ularning bari yaralan-ganday yoki halok bo'lganday edi..." (Demchenko A.S., katta serjant, hamshira); yana kimdir dala oshxonasing qozonini eslaydi: „Jangdan keyin ba'zida hech kim qolmasdi... Qozonni to'ldirib bo'tqa yoki sho'rva pishirasan, biroq yeydigan odam topilmaydi...“ (Zinin I.N., oddiy askar, oshpaz); kimmingdir ko'z oldida uchuv-chining kabinasi paydo bo'ladi: „Lagerimiz o'rmonda joylashgandi. Parvoz qilib qaytib kelgach, o'rmonga borishga ahd qildim, yoz payti, yerto'lamiz bor edi. So'qmoq bo'ylab ketarkanman, nemis askarining jas-adiga duch keldim... Ishonsangiz, qo'rqib ketdim. Bir yildan buyon jang qilayotganimga qaramay, hali biron marta o'likni ko'rmagandim. Havoda parvoz qilayot-ganda bilinmaydi. Hamma yoq alanga ichida qolib, vayron bo'layotir... Samolyotda parvoz qilayotganda xayolingdan faqat nishonni topib bombardimon qilish va ortga qaytish kerak, degan fikr o'tadi. Shu bois mar-humlarga duch kelmagandim. Qo'rquv nima ekamini ham bilmasdim...“ (Bondareva A.G., gvardiya leyten-anti, katta uchuvchi). Partizan ayol ko'z oldiga esa eng avvalo gulxan keladi: „Gulxanda non ham pishirardik, ovqat ham qillardik, cho'g'i qolsa, kim g'ilofim, kim esa poyabzalini, xulias nam tortgan mimayiki bo'lsa, quritardi...“ (Visotskaya Ye. F.).

Tank qismlarida, asosan, erkaklar sanitar instruktor bo'lgan, nihoyat, shunday ish bilan shug'ullangan ayol kishini topdim!

Nina Yakovlevna Vishnevskayadan maktub olgach, darhol yo'lga tushdim.

Kupeda uch kishi ketyapmiz. Choyxo'rlik. O'z-o'zi-dan gap gapga ulanadi.

— Biron o'tkirroq ichimlik bo'lsa, chakki bo'lmas-di-yu, lekin mumkin emas. Shifokorlar taqiqlashgan. Yuragim zaifroq... Jismomy mehnat bilan ko'proq shug'ullanish kerak, deyishadi. Asabni buzadigan ishlar ko'p, lekin jismoniy harakat kam.

— Yaqinda mening ham tobim qochib qoldi. Yaxshiyam dala hovlim bor. Har kim har narsadan najot izlaydi. Kimdir ertalab yuguradi, kimdir tosh ko'taradi, men esa dala hovlidagi ishlar bilan ovunaman...

— Mening qizim shifokor... Nevropatolog. Aytishi-chi, odamlar hozir kam kular emish, kam xursand bo'larmish. Oqibatda inson tanasi zo'riqar ekan. Yaxshi emas...

— Hech vaqtimiz yetmaydi-da... Hamisha qayoqqadir oshiqamiz. Urushdan keyingi yillarda, yoshlik paytlari-mizda: yegam hech vaqo yo'q, har doim ham shakar bilan choy icholmaysan, lekin jamuljam bo'lsak — davramiz shodlikka to'lardi. Tez-tez yig'ilardik, jo'r bo'lib ashula aytardik... Hozir esa hatto yoshlarning ham boshi hadeganda qovushavermaydi...

Ismini eslab qolaman: yuragidan shikoyat qilayotgan Nikolay Borisovich. Narisi — Kochetkov: „Memi familiyamni aytib chaqirishadi. Ota-onam ajoyib ish qiliшган — singlimga Elektrika deb, ukamga Rubin, men ga esa Mir deb nom qo'yishgan. Mir Kalistratovich... Priyomnik deb ism qo'yishmagani uchun ham rahmat... U paytlarda davr shunday edi, hamma texnikaga ma'budday sig'inardi. Endilikda esa fazoviy kemalar ishlab chiqaryapmiz, lekin Ksenya, Natalya, Yevdokiya kabi ismlarni qo'yish odat tusini oldi...“

Ikkalasi ham jang qilgan – kamzullarida orden-medallar shodasi.

– U qiyinchiliklarni yoshlar bilishmaydi...

– Bilishadi. Ulardan behuda ranjiymiz.

– Yo‘q, ular bilishni xohiamaydi, chunki yoshlarni yengil turmushga o‘rgatib qo‘yganmiz. O‘zimizni to‘rt tomonga urib, ularni hamisha avaylab kelganmiz. Biz haqimizda ular nimani bilishadi? Hayotimiz to‘g‘risida-chi?..

Bu savol, albatta, menga ham qaratilgan. Kimning oldiga, mima uchun ketayotganimni so‘zlayman...

– Sizga shum aytmoqchiman, azizam, – dedi Nikolay Borisovich qoshiq bilan stolni asabiy taqillatib, (bilsimcha, u urushda savyorlar batalyonining komandiri bo‘lgan). – Xodimlar bo‘limidagi hir nodon savyorlar bo‘linmasining komandiri bo‘lgan ikki qizni mening oldimga jo‘natganda, qattiq norozi bo‘lishiariga qaramay, ikkovini ham ortiga qaytarib yuborganman. Ular oldingi marrada savyorlar bo‘linmasiga komandir bo‘lishni, minalangan maydondan o‘tishni xohlashgandi.

– Ularni nega qaytarib yubordingiz? – deb so‘rayman.

– Bir necha sabablarga ko‘ra. Birinchidan – bu qizlarning ishini uddalaydigan risoladagidek serjantlarim yetarli edi, ikkinchidan – men ularni juda yaxshi bilardim, ular arxitektura institutimizning tolibalari edi. Birga o‘qiganmiz. Frontning oldingi chizig‘ida ayollarning qlladigan ishi yo‘q, deb hisoblardim. Buning uchun biz erkaklar bormiz, yana hilardimki, ish bilan band odamlarga ortiqcha tashvish orttiraman: bu qizlar uchun alohida blindaj tayyorlash, komandirlilik qilishlari uchun ayollarga taalluqli lash-lushlarni shay qilib berish kerak.

– Demak, sizningcha, qizlar urushda faqat ortiqcha dahmaza bo‘lgan ekan-da?

– Yo‘q, bunday demoqchi emasman. Tarixni esga olsak, rus ayollari erini, aka-ukasini, o‘g‘lini nafaqat urushga kuzatgan, oh-voh qilgan, shuningdek, ularni kutgan, kerak paytda ularning safidan joy olgan. Yaroslavna qal‘a devoriga ko‘tarilib, dushman boshiga qaynoq qatron quygami tarixdan ma’lum. Lekin xotin-qizlarning jang qilayotgani biz erkaklarning hamiyatimizga tegardi, ayniqsa, men andisha qillardim... Mana bir misol. Biz chekinyapmiz. Kuz payti, yomg‘ir sharros quymoqda. Yo‘l bo‘yida halok bo‘lgan qiz yotibdi... Sanitariya instruktori... Juda go‘zal qiz, afsuski, uzun sochlari loyga qorishib ketgan... Bu dahshatli qirg‘inbarotda, loygar-chilik, boshboshoqlik sharoitida safimizda ayol kishi-ming ham borligi sira aqlga sig‘masdi. Men urushda o‘limga juda ko‘p duch kelganman, lekin o‘sha qizning jasadi hamon ko‘z o‘ngimda...

– Bugun shularni eslash shartmi? – ajablanadi Kochetkov. – Bizning hamshiralarimiz qamalda qolganlarda dushmanni o‘qqa tutganlarini tushunsa bo‘ladi, chunki norasidaday ojiz bo‘lib qolgan yaradorlarni himoya qilishgan. Biroq ikki juvon betaraf maydonda qo‘lida merganlar miltig‘i bilan kimmadir o‘ldirish uchun emaklab borar ekan – bu „ov“dan o‘zga narsa emas... Aslida, o‘zim ham mergan bo‘lganman, o‘zim ham otganman... Lekin men erkakman...

– Mergan qizlar ham ko‘chada duch kelgan odamni emas, dushmanni o‘ldirgan-ku?

– Bilmadim, bilolmadim, – gapimni ilib ketadi Kochetkov. – Bunday ayol bilan ehtimol, razvedkaga bor-gan bo‘lardim, biroq sira uylanmasdim... Aslo... Xoti-

nim mergan bo'lishini tasavvur ham qilolmayman. Ayol deganda, odatda, ko'z oldimizga ona, kelinchak keladi. Nemis asirlarini shahrimiz ko'chalaridan qanday ollb o'tishganini ukam aytib bergandi, ular bolalik qilib, asirlarga qarata cho'zmalardan mayda tosh otishgan. Onam ko'rib qolib, ukamni shapatilab urgan. Ko'chadan asirlar – Gitler urushning oxirida safarbar etgan o'smir yigitlar o'tib borardi. Ukam yetti yashar bola edi, lekin onam asir nemislarga tikilib yig'laganini eslab qolgan: „Sizlarni go'dak holingizda urushga jo'natgan onalarning ko'zi ko'r bo'lsin!“ Urush – erkaklarning ishi. Jasoratini doston qilsa arziydigan erkaklar nahotki oz bo'lsa?

– Lekin qizlar odam o'ldirishni xush ko'rganlari uchun urushga bormagan. Bu mamlakat uchun, xalq uchun halokatli palla edi. Ko'ngilli bo'lib xizmat qilishni hatto professorlar o'tinishgan... – hayajonlanadi Nikolay Borisovich. – Qizlar qalb amri bilan urushga otlanganini unutmang, qo'rroq o'z xohishi bilan hech qachon frontga bormaydi. Ular dovyurak, beba ho qizlar edi. Deylik, yaradormi jang maydomidan olib chiqish nima degani? Hozir aytib beraman... Biz hujumga o'tdik, dushman esa pulemyotdan o'qqa tutdi. Butun batalyon tutday to'kildi... Hamma yotibdi... Hamma ham halok bo'limgan, aksariyat yaralangandi. Nemislar yomg'irday o'q yog'dirayotir. Hech kim kutmagan bir paytda transheyadan oldin bitta, keyin ikkinchi, uchinchi... qiz chiqib keladi... Ular yaradorlarning jarohatini bog'lab, sudrab keta boshladilar, avvaliga hatto nemislar ham hayratdan toshday qotib qolishdi. Kechki soat to'qqizlarga borib qizlarning hammasi og'ir yarador bo'ldi, lekin har biri besh-oltitadan yaradorni qutqardi. Ularni kamdan kam mukofotlashardi,

urushning dastlabki yillarda hammaga ham mukofot berilmasdi. Yaradorni jang maydonidan shaxsiy quroli bilan olib chiqish talab qilinardi. Tibbiyat bo'limida birinchi navbatda yaradorning quroli qami, degan savol berilardi. Dastlabki yillarda qurol yetishmasdi. Miltiq, avtomat, pulemyot – bularni ham jang maydonidan olib chiqish kerak. Qirq birinchi yilda jangchining hayotini saqlab qolgani uchun mukofotlash to'g'risida ikki yuz sakson birinchi buyruq chiqdi: jang maydonidan shaxsiy quroli bilan olib chiqilgan og'ir yarador askarlarga – „Jangovar xizmatlari uchun“ medali, yigirmata yaradorni qutqarganlarga – „Qizil Yulduz“ ordeni, qirqa askarni qutqargan bo'lsa, – „Qizil Bayroq“ ordeni, sakson yaradormi qutqargani uchun – „Lenin“ ordeni berilardi. Jangda besh-olti kishini qutqarish qanchalik mashaqqat ekanini sizlarga so'zlab berdim...

Kochetkov chekish uchun yo'lakka chiqdi. Biz Nikolay Borisovich bilan yuzma-yuz qoldik.

– Frontdagi qizlar orasida chiroyhilari ko'p edi, – gapida davom etadi u. – Lekin biz ularga ayolga qara-ganday qaramasdik. Ularni do'stu qadrdon deb bilardik.

– Ularni yoqtirmsasmidingiz?

– Yo'q, unday emas. Ular bizni jang maydonidan olib chiqadigan hamshiralarimiz edi. Mening o'zinini ikki marta jang maydonidan olib chiqishgan. Ularga qanday yomon ko'z bilan qaray? Birodarimga turmushga chiqmaysizmi, deb takhif qilgan paytlarimiz bo'lgan. Ularni tug'ishgan singlimizday e'zozlardik...

– Urushdan keyin-chi?

– Urush tamom bo'lgach, ular mutlaqo himoyasiz qolishdi... Mana, mening xotinim. Juda oqila ayol, o'ttiz besh yildan buyon oramizdan qil ham o'tmaydi. Urush-

da qatnashgan qizlarga munosabati esa yaxshl emas. Aytishicha, ular urushga er axtarib ketishgan, go'yo hammasining qilmagan ishi qolmagan. Lekin, aslida, rost aptyapman, ular pokiza qizlar edi. Urushdan keyin har birimiz o'z yo'limizdan ketdik... – Nikolay Borisovich o'yga toladi. – Bum tushunmaysiz. Urushning kir-chirlaridan, bitlagan kiyim-kechaklaridan, dahshatli halokatlardan keyin go'zallikka, go'zal ayollarga tashna edik. Mening do'stim bo'lardi, uni frontda juda chiroyli bir qiz yaxshi ko'rardi. Hamshira. Lekin urushdan keyin unga uylanmadni, qaytib kelib, oddiygina qiz bilan turmush qurdi. Afsuski, baxtsiz turmush kechiryapti... Hozir o'sha hamshirani eslaydi, u nafaqat yostiqdosh, balki, chinakam do'st bo'lardi. Biroq urushdan keyin unga uylamishni xohiamadi. Axir to'rt yil mobaynida faqat tovomi yeyilgan etig-u erkaklarning paxtalik shimida ko'rib yurgan-da... Do'stim esa urushni tezroq unutishni istardi. Biz hammasini unutishga intillardik. O'zimizning qizlarni ham unutdik...

Poezdda mana shunday kutilmagan suhbat bo'lib o'tdi.

...Metrodan chiqishim bilan Moskvaga xos odatiy hovliga kirdim. Yozdagiga nisbatan qishda ular nima uchundir bir-biridan ko'proq farq qiladi. Go'yo har biriga ko'zga ko'rinas rassom berkinib oladi-yu, dov-daraxtlar, o'rindiqlar, bolalarning maydonchalari, arg'imchoqlarni oq rangga bo'yab chiqadi. G'aroyib musavvirlarning har hiri alohida ishlagani uchun hov-lilar turli ko'rinish hosil qiladi. Bu hovlida qalam tebratgan rassom ham o'ziga xos yo'l tutgan: arg'amchilar katta do'mbirani eslatadi, daraxtlar esa qori kuralmagan g'aramday, go'yo rassom shoshgan-u, niyati va kayfiyatini yo'qligidan rasmm chizib ulgurmaganday. Men uchun

biron odam bilan uchrashuv uyiga kirmasimdan boshlanadi. Xayolimda uning qiyofasi shakllanishida mazkur hovli ham o'ziga xos o'rinn tutadi. Telefonda ajablangan ovoz yangraydi: „Yetib keldingizmi? To'g'ri biznikiga kelyapsizmi? Veteranlar kengashida hech narsami aniqlay olmaysizmi? U yerda men haqimda barcha ma'lumotlar bor“. Tasavvur qilishga, tamishishga oshiqaman. Hayot esa balandparvoz tasavvurlarimni hamisha sinovdan o'tkazadi. Sira shafqat qilmaydi.

Eshikni to'ladan kelgan past bo'yli ayol ochdi. Bir qo'lini saloinlashish uchun erkakchasiغا menga uzatdi, ikkinchi qo'lini jajji nabirasi ushlab olgan. Bolaming xotirjamligiga qarab bu xonadonda begona odamlar tez-tez mehmon bo'lishiga ko'nikib ketishganini payqayman.

Nina Yakovlevna meni o'z xonasiga boshlaydi.

– Oldindan ogohlantirmagamingiz chakki bo'ldi-da, tayyorgarlik ham ko'rganim yo'q...

– Balki, shunisi tuzukdir. Eng muhim voqealarni eslaysiz...

– Gazetalardan qirqib olgan materiallarim bor. Bizning o'ttiz ikkinchi tank brigadamiz haqida ko'p yozishgan. Ularni sizga beraman...

Xizmat xonalari kabi keng xona. Ortiqcha hech vaqo yo'q, faqat kitoblar, asosan, yodnomalar, yiriklashtirilgan bir talay jangovar fotosurat, tankchilar kiyadigan qalpoq bug'uning shoxlariga ilingan, yaltiroq stolcha ustida esa „Harbiy qism askarlaridan“, „Tank bilim yurtining kursantlaridan“ degan yozuvli esdalik lavhalar biriktirilgan qator mitti tanklar... Men bilan birga divanda harbiy libosda uchta qo'g'irchoq „o'tiribdi“. Hatto xonadagi pardida va gulqog'ozlar ham kamuflayaj rangida.

— „Uyingmi nima uchun muzeyga aylantirding?“ — deya qo'shnilarim ajablanishadi. Men esa hayotimm bu-larsiz tasavvur qilolmayman, — deydi Nina Yakovlevna.

Nabirasini qo'shni xonaga chiqarib yuhorgach, men magnitofonni yoqaman.

Nina Yakovlevna Vishnevskaya, starshina, tank batalyonining saninstruktori:

„Tank qo'shinlariga qizlarmi istar-istamas olishardi. Hatto sira olishmasdi, desa ham bo'ladi. Men qanday tushib qoldim, deysizmi? Biz Kalinin viloyatining Kona-kovo shahrida yashardik. Endi sakkizinchil sinfni tugatib, to'qqizinchiga o'tish imtihonlarim topshirgandim. Urush mima ekanimi u paytlarda bilmasdik, allaqanday o'yin, deb o'ylardik. G'alati voqeaday tuyulardi...

Biz kommunal xonadonda, bir necha oila yonma-yon yashardik va har kuni kimdir urushga yo'l olardi: Petya amaki, Vasya amaki... Biz bolalar ularni qiziqsinib, zavq bilan kuzatardik. Ularning ortidan poyezdgacha borardik, musiqa sadolari ostida xotinlar ko'zyoshi qilar-di, bularning barchasi bizni vahimaga solmasdi, balki zavq baxsh etardi. Biz ham daf'atan poyezdga o'tirib, jo'nab ketishni istardik. Urush, bizning nazarimizda, uzoq-uzoqlarda bo'layotgandi. Harbiylarning tugmali-yi yaltirashini yoqtirardim. Men sanitar navbatchilar kursiga qatnay boshlagandim, lekin hammasi allaqanday ermakka o'xshardi... Keyin maktabni yopib qo'yishdi va bizni mudofaa inshootlarini qurishga safarbar etishdi. Keng daladagi omborxonaga joylashtirishdi. Biz hatto urush bilan bog'liq ishga ketayotirmiz, deya g'ururlanganmiz. Bizni nimjonlar batalyoniga biriktirishdi. Ertalabki sakkizdan kechki sakkizgacha, kuniga o'n ikki soatlab ishlardik. Tanklarga qarshi xandaq qa-

zirdik. Atigi o'n besh-o'n olti yoshli qizlar va bolalar... Bir kuni ish paytida kimdir „Havo hujumi! Nemislar!“ deya qichqirib qoldi. Katta yoshdagilar panaga qarab yugurdi, biz uchun nemis samolyotlari, nemislarning o'zlarini ko'rish qiziq edi. Ular quzg'unday shitob bilan uchib o'tib ketdi, yaxshi ilg'ay olmadik. Lekin birozdan so'ng orqaga qaytib, biz tomonga pastlab uchib kela boshladi. Samolyotlardagi qora xochiarga ko'zimiz tushdi. Hech qanday qo'rquv yo'q, faqat qiziqib kuzatamiz. Birdan pulemyotdan o'qqa tuta boshlashdi, birga o'qiydigan va ishlaydigan tengdoshlarimiz birin-ketin yer tishladi. Biz toshday qotib qoldik, nimalar ro'y berayotganini anglay olmay hayron edik. Hamon joyimizdan jilmay kuzatardik, nihoyat, kattalar kelib bizni yerga yotqizishdi, o'shanda ham qo'rquv nimaligini bilmaganmiz...

Ko'p o'tmay nemislar shaharga juda yaqin kelib qoldi, taxminan, o'n kilometrlar masofada edi. Vatanni himoya qilishimiz kerak, degan qarorga kelib, biz, qizlar ham harbiy bo'limga otlandik. Hammani ham olishmadi, asosan, chidamli, baquvvat qizlarni, eng avvalo, o'n sakkiz yoshga to'lganlarni olishdi. Bir kaptan tank qismi uchun qizlarni saralayotgandi. Mening iltimosimga qulqoq ham solmadi, chunki o'n yetti yosha edim, boz ustiga jussam ham kichik.

— Piyoda askar yarador bo'lsa, yerga yiqiladi, — deya menga tushuntirdi u. — Uning yoniga emaklab borib, jarohatini bog'lasa yoki pana joyga sudrab ketsa bo'ladi. Tankchi esa boshqa masala... Tank ichida yarador bo'lsa, lyuk orqali tortib olish kerak. Sen yaradorni tank ichidan chiqarib ololasanmi? Tankchilar juda barvasta bo'ladi. Tank ustiga chiqishga chog'langaningda tinmay o'qqa

tutishadi, snaryad parchalari vizillab uchadi. Yonayotgan tankni hech ko'rganmisan?

— Axir, boshqalar kabi men ham komsomol a'zosiman-ku? — yig'lamsirab dedim men.

— Albatta, sen ham komsomolsan. Lekin juda kichik-san-da...

Sanitar navbatchilar kurslarida va mакtabda birga o'qigan dugonalarim novcha, chayir qizlar bo'lgani uchun ularni qabul qilishdi. Ular frontga ketib, men qolayotganim juda alam qildi.

Ota-onamga hech narsa. Ularni kuzatgani chiqqanimda, qizlarning rahmi kelib, neni mashina kuzovidagi brezent tagiga bekitib qo'yishdi. Usti ochiq mashinada yo'lga tushdik, boshimizga har xil — qora, ko'k, qizil durrachalar o'rab olganmiz. Shura Kisilyova o'zi bilan hatto gitara ham olgan. Mashinada ketib boryapmiz, okoplar ko'zga tashlana boshladи, jangchilar bizni ko'rib: „Artistlar kelishdi! Artistlar!“ deya hayqira ketishdi. Bundan rosa ranjidik ham, frontga jang qilgani ketayotgan bo'lsag-u, bizni artistga chiqarib qo'yishsa...

Shtabga yetib keldik, kapitan saf tortmlar, deya buyruq berdi. Men safning oxiridan joy oldim. Qizlarning qo'lida kerakli narsalari bor, menda esa hech vaqo yo'q. Ro'mol o'miga boshimga onamning koftasimi tashlab olganman. „Loaqal mana bumi ushlab tur“, deya Shura menga gitarami tutqazdi.

Shtab boshlig'i chiqib keldi, kapitan unga yuzlandi:

— O'rtoq podpolkovnik! Xizmatni o'tash uchun o'n ikkita qiz ixtiyorningizga keldi.

Podpolkovnik bizni ko'zdan kechirib shunday dedi:

— O'n ikkita emas, rappa-raso o'n uchta-ku.

Kapitan esa yana takrorladi:

– Yo‘q, o‘n ikkita, o‘rtoq podpolkovnik, – qizlar o‘n ikkita ekaniga uning ishonchi komil edi. Ammo sin-chiklab nazar tashlagach, darhol menga yuzlanib: – Qa-yoqdan kelib qolding? – deb so‘radi.

Men dadil javob berdim:

- Jang qilgami keldim, o‘rtoq kapitan.
- Qani, bu yoqqa o‘t-chi!
- Dugonam bilan birga keldim...
- Dugonang bilan raqs tushgani borasan. Bu yerda esa urush ketyapti... Yaqinroq kel-chi.

Onamning koftasini boshimga tashiagan ko‘yi ular-ning yoniga bordim. Sanitar navbatchilik qilgan pay-timda olgan guvohnomammi ko‘rsatib, yalina boshladim:

– Jon amakkalar, ishoninglar, men juda baquvvatman, hamshira bo‘lib ishlaganman, qon topshirganman. Iltimos...

Ular hamma hujjatlarimni ko‘zdan kechirishgach, podpolkovnik buyurdi:

– Birinchi kelgan yo‘lovchi mashinasи bilan uyiga jo‘natilsin!

Mashina kelgunchia meni tibbiyot-sanitar bo‘linmasi-ga tayinlashdi. Men o‘tirib olib, paxtali dokalarni tayyor-lardim. Shtab tomonga mashina yaqinlashayotgamni ko‘rishim bilan o‘rmonga qochaman. U yerda bir-ikki soat o‘tirib, mashina ketgandan so‘ng qaytib kelaman...

Uch kun shu alfovza o‘tdi, nihoyat, bizning batalyon hujum boshladi. O‘ttiz ikkinchi tank brigadasining bi-rinchi tank batalyon... Hamma jang qilgani ketdi, men esa yerto‘lani yaradorlar uchun tayyorlashga kirishdim. Yarim soat ham o‘tmay yaradorlarni olib kela bosh-lashdi... Halok bo‘lganlarni ham... Bu jangda bizning bir dugonamiz ham nobud bo‘ldi. Meming borligimmi unutib, ko‘mkib ham qolishdi. Rahbariyat eslamay qo‘ydi...

Endi nima qilanian? Harbiychasiga kiyinishim kerak. Bizga buyumlarimizni joylashimiz uchun yap-yangi to‘rvalar berishgandi. Bir to‘rvaning tasmasini kesib, chokini so‘kib tashiadim-da, kiyib oldim. Binoyidek harbiy yubka bo‘ldi. Qayerdandir eskiroq gimnastyorka topib oldim, belimni qayish bilan tang‘ib, qizlarga ko‘rsatib maqtangim keldi. Ularning oldida bir aylanganimni bilaman, yerto‘laga starshina kirib kelib qolsa bo‘ladimi, so‘ng uning ortidan qism komandiri ham kirdi.

Starshina buyruq berdi:

– Rostlan!

Keyin podpolkovnikka yuzlanib dedi:

– O‘rtoq podpolkovnik, murojaat etishga ruxsat bering! Qizlar bema’mi ish qilib qo‘yishdi. Men ularga buyumlarini solish uchun to‘rva bersam, uni yubka qilib kiyib olishibdi.

Qism komandiri daf’atan memi tanib qoldi:

– Ha, qochoq quyon, bu senmisan! Hammasi tushunarli, starshina, qizlarga harbiy kiyim berilsin.

Mashina ham, meni jo‘natish ham hech kimning xayoliga kehnadi. Bizga boshdan oyoq kiyim-bosh tarqatishdi. Tankchilar tizzasi qoplamali brezent shim kiyishadi, bizga esa chitga o‘xshash yupqa kombinezon berishdi. Mashinada emas, har qarich yerga sochilgan metall qoldiqlari-yu qirrasi chiqib turgan toshlarning ustidan emaklab yurganimiz bois kombinezonlar ko‘p o‘tmay yirtilib ketdi. Tanklar tez-tez o‘t ichida qolar, omon qolgan tankchilar ham boshdan oyoq jizg‘anak bo‘lardi. Alanga ichiga kirib, yonayotgan odamni qutqorganimiz uchun biz ham olovda kuyardik. Tank lyuki orqali, ayniqsa, o‘q otadigan bashnyasi bor tankdan yaradorni olib chiqish juda mushkul.

...Biz hech qanday tayyorgarliksiz kelgandik, harbiy unvonlarning belgilarini ajratolmasdik, shu bois starshina chinakam askar bo‘lishimiz uchun katta unvonli har bir harbiyga qo‘limizni chakkamizga qo‘yib salom berishimiz kerakligini, hamisha qaddimizni tik tutib, shinelimizning tugmalarini qadab yurishimiz lozimligim uqtirardi.

Navmhol qizaloqlar edik-da, jangchilar hazil qili-shardi. Bir kuni meni tibbiyot-sanitar bo‘linmasidan choy olib kelgam yuborishdi. Oshpazga yuzlanganimda u mendan so‘radi:

- Nima kerak?
- Choy...
- Suv hali qaynamadi.
- Nega?

– Oshpazlar qozonlarda cho‘milishyapti. Cho‘milib bo‘lishsin, keyin suv qaynatamiz...

Men uning gapiga ishonib, ikkala chelakm olib, ortga qaytim. Yo‘l-yo‘lakay shifokor duch kelib, so‘radi:

- Nega chelaklar bo‘sh?

Men xotirjam javob beraman:

– Qozonlarda oshpazlar cho‘milayotgan ekan. Hali suv qaynatishmabdi.

U haykalday qotib qoldi:

- Qozonda qaysi oshpaz cho‘milayotgan ekan?..

Meni aldagani oshpaz boplab ta‘zirini yedi, menga esa ikki chelak choy berishdi.

Qaytib kelayotib siyosiy bo‘lim boshlig‘i va brigada komandiri ro‘paramdan kelayotganimi ko‘rdim. Oddiy askar bo‘lganimiz uchun hammaga salom berishimiz kerakligi esimga tushdi. Ro‘paramdan esa ikki kishi kelayotir. Ikkalasiga ham qanday salom beraman? Darhol yo‘lini topdim. Ular yommdan o‘ta boshlaganda chelaklarni

yerga qo‘ydim-da, ikkala qo‘limni ikki chakkamga tirab, avval birinchisiga, so‘ng ikkinchisiga ta’zim qildim. Xotirjam ketayotgan rahbarlar taqqa to‘xtab:

– Bunday salomlashishni senga kim o‘rgatdi? – deb ajablanib so‘radi.

– Har bir odamga salom berish kerak, deb starshina o‘rgatgan. Sizlar esa ikki kishi birga kelyapsizlar...

Frontda qizlar uchun hammasi juda murakkab edi. Harbiy unvon belgilarini ajratishimiz juda qiyin kechgan. Armiyaga kelganimizda romb, to‘rtburchak singari turli belgilar amalda bo‘lib, kimning unvoni qanday ekanini ajrata olmasdik. Kapitanga mana bu xaltam olib borib ber, deyishardi. Kapitanni qanday farqlaymiz? yetib borguncha „kapltan“ so‘zi ham esingdan chiqib ketadi. Yetib boraman-da, asta deyman:

– Amaki, hoy amaki, anavi amaki manavimi sizga berib qo‘yishni tayinladi...

– Qanaqa amaki?

– Ko‘k shim, yashil gimnastyorkali...

Ularning leytenant-u kapitan ekani emas, balki kelishgan yoki kelishmagan, malla yoki barvasta ekani yodimizda qolardi... „Anavi, baland bo‘yli amaki borku!“ deb eslardik.

Yongan kombinezonlar, kuygan qo‘l va chehralarni ko‘rgach, albatta, urush nima ekanini tushundim. Tankchilar yonayotgan mashina ichidan jonholatda otilib chiqishadi, boshdan oyoq olov ichida, boz ustiga ko‘pincha qo‘li yoki oyog‘iga o‘q tekkan bo‘lardi. Ular juda og‘ir yaralangan bo‘lardi. Yerda uzala tushib yotgancha yolvoradi: „O‘lib qolsam, onamga, xotinimga xat yozgin...“ Ko‘rgan-kechirganimizni „dahshat“ so‘zi bilan ham ifodalab bo‘lmaydi.

Oyog‘im shikastlanganida, tankchilar memi Kirovo-gradchina yaqinidagi Jyoltoye qishlog‘iga olib kelishdi. Tibbiyat-sanitar bo‘linmamiz joylashgan uy bekasi yozg‘ira ketdi:

– Esiz, yoshgina yigit-a!..

Tankchilar esa kulib yuborishdi:

– Yigit emas, xolajon, qizaloq bu!

Qishloqdagilar esa ko‘zlariga ishonmay shunday deyishardi:

– Qizaloq emish, yosh yigit-ku bu...

Sochim tarashlangan, egnimda kombinezon, boshimda tankchilar qalpog‘i – rosmana yigitman-da... Uy bekasi pechkaga taqab qurilgan o‘rnini ham bo‘shatib berdi, tezroq sog‘aysin deb cho‘chqa bolasini ham so‘ydi. Sho‘rlik erta-yu kech yozg‘irardi:

– Erkaklarning urug‘iga o‘t tushganmi, ona suti og‘zidan ketmagan qizni ham frontga yuborishadimi?..

O‘n sakkiz yoshimda Kursk yoyida bo‘lgan jangda „Jasorat uchun“ medali va „Qizil yulduz“ ordeni bilan taqdirlanganman, o‘n to‘qqiz yoshimda esa ikkinchi darajali „Ulug‘ Vatan urushi“ ordenimi oldim. Qo‘sheimcha kuchlar kelganda, albatta, navqiron yigitlar meni ko‘rib hayratlanishardi. „Bu medalarni qaysi ko‘rsatgan karomating uchun berishgan?“, „Nahotki sen ham jang qilolsang?“ deya kinoya qilishardi. Yoki: „Tank zirhini o‘q teshib o‘ta oladimi?“ deya tegajog‘lik ham qilishardi.

Keyinchalik jang maydonida, o‘qlar ostida turib shunday hazilkash yigitlardan birining jarohatini bog‘-laganman, uning familiyasi ham esimda – Shchegolevatix. Uning oyog‘iga o‘q tekkandi... Jarohatim bog‘-layapman-u, u tinmay uzr so‘rardi:

– Hamshira, o'shanda xafa qilganim uchun meni kechir...

U paytlar sevgi haqida nimani billardik o'zi? Maktab davridagi bolalarcha ishqiy kechinmalarni aytmaganda... Qamalga tushib qolganimiz yodimda... Dushman tomon tobora siqib kelayotir. Tunda yo yorib o'tamiz, yo halok bo'lamiz, deya ahd qildik. Halok bo'lamiz, degan taxmin haqiqatga yaqin edi... Bilmadim, buni aystsammi, aytmasammi...

Yorib o'tish uchun qorong'i tushishini poylardik. Batalyon komandiri yaralangani uchun Misha T. konibat vazifasini bajarardi, uming yoshi ham o'n to'qqizdan oshniagandi... U mendan so'radi:

- Hech mazasini tatib ko'rganmisan?
- Nimaning mazasini? – qornim och bo'lgani uchun tamshanib qo'ydim.
- Bironta do'ndiqchani-da!

Urushdan avval shunaqa nomll bir nav shirinlik bo'lardi.

- Tatib ko'rmanman...
- Men ham. Halok bo'lsak... muhabbat nash'asini ham bilniy ketamiz. Kechasi bizni o'ldirishadi...

Nimaga shama qilayotganini anglab:

- Esingni yedingmi, ahmoq! – deya uni siltab tashladim.

Halok bo'lish emas, balki chin hayotni ko'rmasdan, undan bahra olmasdan nobud bo'lish qo'rqinchli edi. Mana shu hadik juda vahimaga solardi. Hali hayot nima ekanini anglab ulgurmasdan, hayot uchun joni-mizni tikkan edik.

Yana eng alamlı, iztirobli xotiralarni esga oladi:

„Tank qo'shinlarida sanitar instruktorlar tez halok bo'lardi. Tanklarda biz uchun joy ko'zda tutilmagan,

zirhiga tirmashib olganingda zanjirlari oyog‘imni yulib ketmasin-da, degan xavotir sira tinchlik bermaydi. O‘t ichida qolgan boshqa tanklarni ham sira ko‘zdan qochirmaslik kerak. Darhol o‘sha tomonga yugurish yoki emaklab borish darkor... Frontda besh dugona edik: Lyuba Yasinskaya, Shura Kiselyova, Tonya Bobkova, Zina Latish va men. Tankchilar bizni konakovsklik qizlar, deb atashardi. Qizlarning hammasi halok bo‘ldi...

Lyuba Yasinskaya halok bo‘lgan jang arafasida, kechasi yonma-yon o‘tirib dardlashganmiz. Qirq uchinchi yil. Diviziyamiz Dneprga yetgan. Lyuba kutilmaganda shunday dedi: „Ishonasanmi, men bu jangda halok bo‘laman... Xudo haqqi, ko‘nglim sezyapti. Starshinaning yoniga borib, yangi ichko‘ylak bering, deb iltimos qildim, u esa qizg‘anib: „Yangi ichko‘ylak olganingga hech qancha bo‘lgani yo‘q-ku“, dedi. Ertalab birga borib iltimos qilaylik“. Men: „Ikki yildan buyon birga jang qilyapmiz, bizdan ajal ham qo‘rqadigan bo‘lib qolgan“, deb uni yupatdim.

U ertalab starshinaning yoniga birga borishga ko‘ndirdi va biz bir juft yangi ichko‘ylak oldik. Lyuba yangi ko‘ylagini kiyib oldi. Oppoq, bog‘ichi ham bor... Ana shu oppoq ko‘ylak qonga belangandi... Qizil qonga botib, loladay bo‘lib qolgan oppoq ichko‘ylakm hali hanuz unutolmayman. Lyuba shunday bo‘lishim oldindan bilgandi...

Biz uni shu ahvolda chodirga solib, to‘rt kishi ko‘tarib boryapmiz, jasadi juda og‘irlashib ketgan. O‘sha jangda juda ko‘p odam halok bo‘ldi, qabrga oldin yigitlarni, ularning ustiga esa Lyubani yotqizdik. Uning halok bo‘lganiga, ortiq oramizda yo‘q ekaniga sira ishongim kelmasdi. Undan nimanidir esdalikka olib qolay, degan

fikr xayolimdan kechdi. Uning harmog‘ida uzuk bo‘lardi, tillami, oddiyimi, bilmayman. Yigitlar marhumming narsasi yaxshilik keltirmaydi, deb ogohlantirsalar ham o‘sha uzukni oldim. Nihoyat, hamma marhumlar ustiga bir siqimdan tuproq tashlay boshladи, men ham tuproq tashladim, bir hovuch tuproq bilan birga uzuk ham qabriga, Lyubaming bag‘riga tushdi... Lyuba bu uzukni juda ardoqlashi o‘shanda esimga tushdi... Uning otasi urushning boshidan oxirigacha qatnashib, omon qaytdi. Akasi ham qaytib keldi. Erkaklar qaytib kelishdi. Lyuba esa halok bo‘ldi...

Shura Kiselyova hammamizdan chiroyli edi, yonib ketgan. U og‘ir yaradorlarni poxol g‘aramiga yashirgan, otishma boshlanib, g‘aramga o‘t ketgan. Shura omon qolishi mumkin edi, biroq buning uchun yaradorlarni tashlab ketishi talab etilardi – ularning hech biri yura olmasdi... Yaradorlar yonib ketgan... Shura ham ular bilan birga...

Tonya Bobkovaning halokati tafsilotlaridan yaqinda xabar topdim. U sevgan kishisini mina parchasidan to‘sib qolgan. Mina parchalari kutilmaganda nobud qiladi... Tonya bunga qanday ulgurgan ekan-a? Leytenant Petya Boychevskiyi qutqargan, uni yaxshi ko‘rardi. Leytenant omon qolgan.

Oradan o‘ttiz yil o‘tgach, Petya Boychevskiy Krasnodardan urush qatnashchilari bilan uchrashuvga kelib, meni topib, barini aytib berdi. Biz birga Borisovaga borib, Tonya halok bo‘lgan yaylovni topdik. Petya uning qabridan bir siqim tuproq oldi. Tonyaming xokini onasining qabriga dafn etganini keyinchalik xatida yozib yubordi. „Mening ikki onam bor, – deb yozgandi u, – biri meni dunyoga keltirgan, ikkinchisi hayotimmi saqlab qolgan – Tonya...“

Bitta maktabdan besh qiz frontga ketgandik, yolg‘iz men onamning bag‘riga qaytib keldim. Nima uchun aynan men qaytdim? Qizlar halok bo‘lishdi, men esa omon qaytdim... Ana, ularning suratlari devorda osig‘liq...

Juda ko‘p safarga chiqaman, ularning jasorati ha-qida so‘zlayman... Yozaman... O‘g‘lim: „Oyi, sira tinch o‘tirmaysiz-a...“ deydi. „Quroldosh do‘srlarning barcha uchrashuvlarida qatnashaman. Betob bo‘lsam sudralib bo‘lsa ham boraman... Mening hayotim shundan iborat... Uchrashuvdan uchrashuvgacha yashayman...“

Nina Yakovlevna kutilmaganda she‘r qiroat qila boshlaydi:

*Gar siylagan meni ham ochun,
Afzal hayot bor ehsonidan:
Ko‘ksim qalqon qilib do‘sst uchun,
Olib chiqish jang maydonidan...*

— She’riyatni yaxshi ko‘raman, — xijolat bo‘lib tan oladi u. — Frontda ham she‘rlar yozardim, hozir ham. Qizlarga ham yoqardi...

Bu ham ajablanarli hol – ularning ko‘pchiligi frontda she‘r bitishgan. Bu she‘rlarni hozir ham qunt bilan qayta ko‘chirishadi, oilalarda avaylab saqlanadi – hiroz qovushmagan bo‘lsa ham, ta’sirli, samimi; uchrashuvlar va ko‘plab muloqotlar bilan birga ularni ham mubim hujjatlar kabi e’zozlayman. O‘ziga xos kechinmalar bilan yo‘g‘rilgan bu hujjatlar vositasida davr nafasini tuyaman, nigohim qarshisida muayyan avlod vakillari qad rostlaydi.

Lekim Nina Yakovlevnaning hikoyasi hali tugagami yo‘q:

„O‘n yil muqaddam Vanya Pozdnyakovni axtarib topdim. Biz halok bo‘lgan deb o‘ylardik, u esa tirik

ekan. Proxorovka ostonalarida bo‘lgan janglarda u komandir bo‘lgan tank nemislarning ikki tankini yakson qilgan, dushmanlar tankni yondirib yuborishdi. Ekipaj a’zolari halok bo‘lishdi, yolg‘iz Vanya tirik qoldi, lekin ikki ko‘zi yo‘q, butunlay kuyib ketgandi. Uni gospitalga jo‘natdik, ammo omon qoladi, deb o‘ylamagandik. Uni o‘ttiz yil deganda axtarib topdim. Zimadan ko‘tarilib boryapman, oyoqlarim chalishib ketayotir, o‘zimikan, boshqamikan, degan fikr tinchlik bermaydi. Eshikni o‘zi ochdi va qo‘llari bilan siypalab: „Ninka, o‘zingmisan? Ninka?“ deya tanidi. Tasavvur qilyapsizmi, ko‘zi ko‘r bo‘lsa ham, shuncha yildan keyin ham tanidi-ya.

U qartayib qolgan onasi bilan birga yasharkan, das turxon atrofida birga o‘tiribmiz, onasi bechora tinmay ko‘zyoshi qiladi. Men taskin berganday dedim:

– Nimaga yig‘laysiz? Jangovar do‘stlar uchrashdilar, quvonish kerak.

Ona bechora yig‘i aralash javob beradi:

– Uch o‘g‘lim urushga ketgandi. Ikkitasi halok bo‘ldi, Vanya omon qaytib keldi.

Vanyaning esa ikki ko‘zi ham ko‘rmaydi...

Men undan:

– Vanya, urushda so‘nggi marta Proxorovka maydomidagi tanklar jangiga guvoh bo‘lgansan... O‘scha kundagi qaysi voqealarni eslaysan? – deb so‘radi.

Bilasizmi, u nima deb javob berdi:

– Ekipaj a’zolariga yonayotgan tankdan chiqib kettinglar, deb sal shoshib buyruq berganimga achinaman. Yigitlar baribir halok bo‘lishdi. Biz yana bir nemis tankini yakson qilishimiz mumkin edi...

Bu hali-hanuz uning yagona armoni edi...“

Nina Yakovlevna bilan keyinchalik xat yozishdik. Uning magmitofon tasmasiga yozib olingen hikoyasini ko‘chirib olib, va’da qilganimdek, bir nusxasini o‘ziga jo‘natdim. Uch-to‘rt haftadan keyin Moskvadan kattakon banderol oldim. Unda gazetalardan qirqib olingen maqolalar, Nina Yakovlevna Vishnevskaya urush qatnashchisi sifatida olib borayotgan harbiy – vatanparvarlik ishiga oid rasmiy hisobotlar bor edi. Men yuborgan matn ham qaytarilgan, undan deyarli hech vaqo qolmagan, hammasi chizib tashiangan, qozonlarda cho‘miladigan oshpazlar to‘g‘risidagi qiziqarli satrlar, hatto beg‘araz: „Amaki, hoy amaki, anavi amaki mana buni sizga berib qo‘yishni aytdi...“ degan joyi ham o‘chirib tashlangandi. Leytenant Misha T. bilan bo‘lib o‘tgan suhbat yozilgan varaqming hoshiyasiga esa zardali uchta so‘roq belgisi qo‘yilgandi.

Bir inson qalbida yashayotgan ikki haqiqatga keyinchalik yana bir necha marta guvoh bo‘ldim. Deylik, xonadonda ikkimizdan tashqari qarindoshlar, tanishlar, qo‘shnilardan birortasi bo‘lsa ham, hamsuhbatlarim o‘z xotiralarini samimiyat va ishonch bilan hikoya qila olmasdi. Yana bir yozilmagan qonuniyat shundan iborat ediki, tinglovchilar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning hilkovalari shunchalik quruq, zerikarli bo‘lardi. Nina Yakovlevna ham yoshgina dugonalari bilan boshidan kechirganlarimi menga o‘z qiziday so‘zlab bergen bo‘lsa, misbatan kattaroq davra uchun „boshqalar bayon etganidek va gazetalarda yozgamidek“ hikoya qilardi.

Nina Yakovlevnaning maktubini o‘qir ekanman, shinam oshxonada o‘z uyimdagidek xotirjam choyxo‘rlik qilganimizni esladim. U xotiralarini so‘zlar, ikkimiz ham yig‘lardik.

Xonadonimizda ikkita urush yashaydi

Minskdagı Kaxovskiy ko'chasida joylashgan ko'rim-siz uy. Esbikdan kirishim bilan „Xonadonimizda ikki-ta urush yashaydi“, deb aytishdi. Boltiq dengizidagi dengizchilar qismida bиринчи darajali starshina Olga Vasilevna Podvishenskaya jang qilgan. Uning eri Saul Genrixovich esa piyoda qo'shinlar serjanti bo'lган.

Saul Genrixovich bilan oilaviy albomni ko'zdan ke-chiramiz. Olga Vasilevna bu pallada telefon orqali qizi bilan suhbatlashardi.

– Kechki yo'l-yo'riqlar berayotir, – deb kuladi Saul Genrixovich.

Oynavand eshik orqali esa xotinining so'zлari eshi-tiladi:

– Yo'talyaptimi? Mening oldimda kun bo'yи biron marta ham yo'talmagandi. Malinali issiq choy ichirib, mening sharfim bilan bo'ynini o'rab qо'y...

Buvisining sharfi nabirasining dardiga, albatta, shifo bo'ladi.

– Nahotki shu men bo'lsam? – telefonda gaplashib bo'lgach, Olga Vasilevna xonaga qaytib kirib, suratni qо'lga oladi, suratda u dengizchilar kiyimida, ko'kragini jangovar nishonlar bezab turibdi. – Bu fotosuratlarga qancha tikilsam, shuncha hayratlananian. Saul nabi-ramizga besh yasharligida bularni ko'rsatgan. Nabiram „Buvi, siz avval o'g'il bola bo'lganmisiz?“ deb mendan so'ragan. Tasavvur qilyapsizmi?.. – Darhol g'amgin bo'lib qoladi... – O'sha paytlarda nabira ko'ramiz, deb sira o'ylamaganmiz. O'tgan yili quroldosh do'stlar bilan uchrashuvga bordik – hamma allaqachon bobo, buvi bo'lib qolibdi. Bobolar va buvilarning butun bosh-li batalyon... Tasavvur qilyapsizmi?..

Olga Vasilevna hamisha „tasavvur qilyapsizmi“, deya urg‘u beradi. Chamasi, odat bo‘lib qolgan. Chaq-qon, qizlar kabi xushichaqchaq bu ayolning jindek hazilga ham xandon otib kulishiga qarab, olis qirq birinchi yilda uning qanday ho‘lganini rostdan ham tasavvur qilgim keladi...

– Olga Vasilevna, frontga darhol yo‘l olganmisiz?

– Yo‘q, avval bizni evakuatsiya qilishdi. Biz tushgan poyezdni butun yo‘l bo‘yi samolyotlar pastlab uchib o‘qqa tutar, bombardimon qildi.

Hunar billm yurtining bir guruh o‘quvchilari vagon-dan yugurib chiqqanlari esimda, ularning hammasi qora shinel kiyib olgandi. Barchasi dushman uchun tap-tayyor nishon! – pastlab uchgan samolyotlardan ularning barini o‘qqa tutishdi... Tasavvur qilyapsizmi?..

Biz zavodda ishlardik, turmushimiz, yekish-ichishi-miz chakki emasdi. Lekin bag‘rimiz kuyardi... Qirq ik-kinchi yilning iyunida yo‘llanma oldim. O‘ttizta qiz – barchamizni ochiq barjada o‘qqa tutishlariga qaramay, Ladoga ko‘li orqali qamaldagi Leningradga olib o‘tishdi. Leningradda ilk kundayoq esimda qolgani: shimalning oydin oqshomi va ko‘cha bo‘ylab ketib borayotgan qora kiyingan dengizchilar bo‘linmasi. Vaziyat og‘irligi se-ziladi, aholi ko‘zga tashlanmaydi, projektorlar osmonni yoritayotir, fuqarolar urushi davridagidek ko‘kraklariga tasma taqib olgan dengizchilar shaxdam qadamlar bilan ketib borayotir, kinodagi lavhani eslatadi. Tasavvur qilyapsizmi?..

Shahar butkul o‘rab ollngan, front juda yaqin. Uchin-chi raqamli tramvayda Kirov nomli zavodga borsa bo‘lardi, u yerdan esa front bosblanardi. Havo ochilgani hamon to‘plardan o‘qqa tutishardi. Boz ustiga nishon-

ga bexato urishardi, to'xtovsiz o'qqa tutishardi... Katta kemalar bandargohda turar, ular hujumdan himoya qilish maqsadida niqoblangan bo'lsa ham snaryad tegishi ehtimoli yo'q emasdi. Biz tutun tarqatish bilan shug'ullanardik. Tutun tarqatuvchilarining alohida bo'linmasi tashkil etilgan bo'lib, torpeda katerlari diviziyasining sobiq komandiri, kapitan-leytenant Aleksandr Nikolaevich Bogdanov uning komandiri edi. Qizlar, asosan, o'rta-texnik ma'lumotli yoki institutning birinchi bosqichidan kelishgandi. Bizning vazifamiz kemalarning tutun bilan qoplanishini ta'minlab, dushmanning ko'zini shamg' alat qilishdan iborat edi. O'qqa tutish boshiamshi bilan dengizchilar: „Qizlar tezroq tutatsa, ko'nglimiz biroz xotirjam bo'lardi“, deb yozg'irishga tushardi. Maxsus aralashma bilan mashinalarda yetib borardik, ungacha esa bombadan himoyalanish joylarida bekinib o'tirardik. Biz, rostini aytganda, o'zimizni o'qqa tutib berardik. Nemislar aym tutun chiqayotgan joym mo'ljallab o'q otishardi...

Qamal sharoitida oziq-ovqat masalasi juda og'ir bo'lgan, lekin chidaganmiz... Birinchidan, yosh edik, ikkinchidan, leningradliklarning matonati hayratga solardi. Bizga oz bo'lsa ham yegulik berishar, odamlar esa ko'chada keta turib yiqilgan joyida nobud bo'lardi. Bir nechta bolakay yomimizga kelganda arzimagan nasibamizni ular bilan baham ko'rardik. Ularni bola ham deb bo'lmasdi, kichrayib qolgan keksalarga o'xshardi. Bariga chidadik. Erkaklar bilan tengma-teng ishlaganmiz. Qishda Lenigrad yoqilg'isiz qoldi, bizni shaharning yog'och imoratlar saqlanib qolgan tumanlaridan biriga uylarni buzishga yuborishdi. Uyga yaqinlashganda ko'ngling buziladi... Bimoyidek imorat,

lekin egalari o'lgani yoki tashlab ketgani uchun kimsasiz bo'lib qolgan, buzish kerak. Yarim soatcha hech kimning lomni ko'tarishga jur'ati yetmadi. Hamma qotib turar, faqat komandir kelib boshlab bergandan keyin ishga kirishdik.

Erkaklar hammasiga oson ko'nikadi. Biz esa uyni, onamizni, shinamlikni juda qattiq qo'msardik. Safimizda moskvalik Natashka Jilina degan qiz bo'lardi, uni „Jasorat uchun“ medali bilan taqdirlashdi va rag'bat uchun bir necha kunga uyiga borib kelishga ruxsat berishdi. Natasha qaytib kelgani hamon barchamiz uni hidlashga tushganmiz. Navbatga turib olib, hidlab-hidlab, uyning hidi kelayotir, deya sarmast bo'lganmiz. Uyni shu qadar sog'inardik...

Nafas rostlash imkonini bo'ldi deguncha igna-ip olib, biror nima, masalan, dastro'nolcha tikardik. Paytava berishsa, sharf qilib o'rab olardik. Ayollarga xos biron ish bilan mashg'ul bo'lishni istardik. Ayni shu jihat bizga yetishmasdi. Toqat qilib bo'lmasdi-da. Qo'llimizga igna olib tikish, nimanidir to'qish uchun bahona qidirardik, loaqal bir lahza bo'lsa ham aslimizga qaytgimiz kelardi.

Nazarimda, biz urushda allaqanday bag'ritosh insonga aylanib qoldik, hech kim biron marta chinakamiga kulmagan, yayramagan. To'g'ri, ba'zan kulardik ham, quvonardik ham, biroq bari urushdan oldingi davrdagidek emasdi. Urush baribir urush ekan-da, o'zingni allaqanday boshqacha his etar ekansan va shunday holatdan chiqib ketishning imkonini yo'q edi.

— Biz urushni boshdan kechirganmiz, — degandi Saul Genrixovich, — lekin ikki xil urushda qatnashgandaymiz... Esga olganimiz hamon xotinim o'zi boshdan

kechirgan, men esa o'zim guvoh bo'lgan urushni xotirlayotganimizni sezaman. Uyni qo'msab, uyiga borib kelgan qizni navbatma-navbat hidlaganlariga o'xshash holat mening ham boshimdan o'tgan. Lekin eslay olmayman... Ha-ya, u dengizchilarning shapkaları haqida aytib bermadı. Olya, nahotki unutgan bo'lsang?

– Unutganim yo'q, – Olga Vasilevnaning qiyofasi birdan jiddiy tortadi. – Gapirish og'ir... Hujum tungacha davom etdi... Ertalab chiqqanimda Dengiz kanali bo'y lab dengizchilarning shapkaları oqib kelardi... Bu qayerdaridir biznikilar Nevaga cho'kib ketgammng alomati edi. Qancha turgan bo'lsam, dengizchilar bosh kiyimi oldimdan shuncha vaqt oqdi.

– Men uming juda ko'p hikoyalari nabiralarim uchun yodlab olganman. Nabiralarimga o'zim guvohi bo'lgan urush voqealarini emas, uming urush haqidagi xotiralarini so'zlab beraman. Uning hikoyalari nabiralarimni ko'proq qiziqtiradi, – tan oladi Saul Genrixovich. – Men faqat urush voqealarimi so'zlayman, u esa boshidan o'tgan kechinmalarni esga oladi. Tuyg'ular esa hamisha yorqin. Urushda mening o'zim ham shunday kechinmlar og'ushida bo'lganman. Bizning piyoda qo'shinlar safida ham qizlar bo'lardi. Ulardan birontasi ko'ringani hamon darhol o'zimizni qo'lga olardik. Tasavvur qilyapsizmi?.. – Darhol qo'shib qo'yadi: – Bu jumlam ham Olgadan o'zlashtirganman. Lekin urushda qizlarning kulgisi, ayollarning nigohi qanchalar jozibali ekamni tasavvur ham qilolmaysiz!

Urushda sevishganmizmi? Bo'lmamasam-chi! Biz jang maydonlarida uchratgan qizlar ajoyib rafiqalar, sodiq do'stlar bo'lishgan. Urushda turmush qurganlar – eng baxtli odamlar, eng baxtiyor juftliklar. Biz ham front-

da bir-birimizga ko'ngil qo'yganmiz. Urushda nimalar ro'y bermagan deysiz, inkor etmayman, chunki urush juda uzoq davom etdi, son-sanoqsiz odamlar qatnashgan. Lekin yorqin, beg'ubor xotiralarni ko'proq eslayman... Bular esa, o'zingizdan qolar gap yo'q, boshqalar uchun qiziq emas. Hatto o'zimiz ham tan olishga cho'chiymiz... Afsuski, ko'pgina urush qatnashchilar farzandlarining, qizlarining turmushi qovushmadni, ular chinakam turmush o'rtoq topa olmadilar. Buning sababi shundaki, urushda qatnashgan onalar qizlarini ham jangovar ruhda tarbiyalashgan. Urushda odamning yaxshi-yomoni darhol bilinadi. Shu bois ularning qizlari hayotga oiladagi muhitdan kelib chiqib yondashgan. Tubanlik ham hayotning bir qismi ekanini ularga aytishmagan. O'zgacha ruhda tarbiya topgan bu qizlar turmushga chiqqach, muttahamlarning qo'liga tushib qolib, pand yegan. Juda ko'p quroldosh do'stlarimizning farzandlari taqdiri shunday kechdi. Bizning qizimiz ham yostiqdoshga yolchimadi...

— Urush haqida farzandlarimizga nima uchundir hikoya qilmaganmiz, — o'yga toladi Olga Vasilevna. — Men orden-u medallarimni ham taqmaganman. Bir voqeа sabab bo'lib, yulib tashiaganimcha ortiq taqmadir. Non zavodida direktor bo'lib ishlardim. Kengashga kelsam, boshlig'imiz, u ham ayol kishi, ko'ksimdagи nishonlarni ko'rib, o'zingni ko'z-ko'z qilmoqchimisan, deb hammaning oldida izza qildi. O'zining mehnat jabhasida olgan ordenini hamisha taqib yurardi, mening jangovar orden-medallarim esa mima uchundir unga yoqmapti. Yolg'iz qolganimizda ko'nglimdagini yuziga ro'yi rost aytdim, aytgan gapidan pushaymon bo'ldi, lekin shu-shu nishon taqib yurishdan ixlosim qaytdi. Hozir ham

taqmayman. Lekin urushda qatnashganim bilan faxrlanaman, bu mening xizmatim. Urushda qatnashganlar jasorati urushdan keyin ovoza qillnmagan. Nabiramiz biz haqimizda hammasini biladi, o'zi ham qiziqadi, xotiralarimizni so'zlab beramiz, mакtabda shu mavzuda insholar yozadi. Bolalarimizga urush haqida gapirmaganmiz, ular ham so'rashmagan...

— Nima uchun urush haqida farzandlaringizga gapirib bermagansizlar?

Olga Vasilevna imdamaydi. Saul Genrixovich shunday dedi:

— Qanday ishni uddalagammizmi, aftidan, u paytlarda anglab yetmaganmiz. O'nlab yillardan keyin boshimizdan kechirgan voqealarni eslashga hayot majbur qildi. Dastlabki yillarda esa hamon urushning nafasi sezilib turar, uning dahshatlarini eslashni istaniasdik. Bu dahshatlarni farzandlarimizga ravo ko'rmaganmiz.

— Unutishni o'ylaganmidingiz?

— Ming uringan bilan unutib bo'lmaydi. Katta opam bor, yetnish besh yoshda, beva qolgan. Ikki o'g'li urushdan qaytmagan. Bittasi granata portlashi oqibatida halok bo'lgan. Ikkinchisidan esa faqat bitta xat olgan: „Shod-u xurram frontga ketyapmiz. Hammasi yaxshi“. Urushdan keyin bedarak yo'qolgan, degan ma'lumot-noma oldi, xolos. Ikkinci o'g'lining qayerda bedarak yo'qolgagini ham bilmaydi. U dafn etilgan birodarlik qabristonini topishdan umidvor... Men ham jangchi bo'lganman, ko'nglibo'sh kimsalardan emasman, biroq opamni o'ylasam, ko'zyoshlarimmi tiya olmayman. Siz esa unutishdan gapirasiz...

G'alaba bayramida, esingdami, Olya, munkayib qolgan onaxonni uchratgandik, „Kulnev Tomas Vladimiro-

vichni axtaryapman, 1942-yilda qamaldagi Leningradda bedarak yo‘qolgan“, deb yozilgan rangi o‘chib ketgan lavhani bo‘yniga ilib olgandi. Yoshi yetmishdan os-hgani raftoridan shundoq ko‘rinib turardi. Binobarin, umr bo‘yi o‘g‘lini axtardi! Urushni xotirlashmi miyoyat bas qilish kerak, deganlarga o‘scha mushtipar onaming suratini ko‘rsatgan bo‘lardim... Siz esa unutishdan gapirasiz...

— Men esa unutishni istardim... Koshki unuta olsam... — o‘zi bilan o‘zi gaplashayotganday eshitilar-eshitilmas shivirladi Olga Vasilevna.

— Olgaming uyqusi qochib ketsa, urushni xotirlaganini payqayman... U bilan qiyoslaganda men G‘alaba yo‘lida hech vaqo qilmaganman, binobarin men erkakman, jang qilish – burchim. Urush azoblariga dosh bergen bu qizlarni esa boshimizda ko‘tarib yurishimiz kerak. Istalgan urush qatnashchisi, shubhasiz, shunday deydi. Qizlarning urushda ishtirok etishiga ruxsat berish kerakmidi? Bilmayman... Lekin ular urushda qatnashib, ulug‘ ishni ado etishdi. Ular erkaklar kabi og‘ir kirza etikda yurishdi, shinel kiyishdi, qor ustida uplashdi, o‘q va snaryad parchalaridan halok bo‘lishdi. To‘qqizinch may kuni Lenin shohko‘chasi bo‘ylab o‘tib borayotgan ayolning bayramona ko‘ylagida faqat bitta medal yaltirab turgami esimda. Medal bo‘lganda ham „Jasorat uchun“ medali! **U** esa xijolatga botib qadam tashlayotir. Men uni bag‘rimga bosib: „Azizam, bitta mana shu medaling uchun senga bosh egib ta’zim qilish kerak...“ deb hayqirgim kelgan. Biz barchamiz ularning oldida burchlimiz...

Front fotosuratlarida bo‘lgandek, ularning ikkovi ham birdan yodimga tushadi.

**„Telefon go‘shagi bilan o‘qqa tutib
bo‘lmaydi-ku...“**

– Shirinlik yeymiz... Ertalabdan buyon tayyorlayapman... – Valentina Pavlovna Chudayeva meni xushnud kutib oladi. Gangib qolganimni ko‘rib, dalda beradi: – Gapirib beraman, gapiraman... Yig‘lashga ham ulguraman... Nima uchun manzilimni aytdingiz, deb qizlarimga dakki ham berdim. Busiz ham yuragim xasta, dori-darmonsiz kunim o‘tmaydi. Lekin avvaliga shirinlikni tatib ko‘raylik. Shumurt qo‘shib pishirdim. Sibirda shunday tayyorlar edik... – Boshqa bir odam eshitishi uchun baland ovozda deydi: – Muxbir kelgan... Kirib o‘zing ham ko‘rgin. Telefonda ovozi juda jiddiy edi, o‘zi yoshgina qizday ekan. – So‘ng menga yuzlanadi:

– E’tibor berma... Parvo qilma... Fe’lim shunaqa, ko‘nglimga kelgan gapni aytaveraman.

– Bechorani o‘z holiga qo‘ysang-chi. Ko‘z ochgam qo‘ymaysan-a... Hovliqma jangchidan sira farqing yo‘q! – oshxonadan ovoz eshitiladi.

– Xavotirlanma! O‘zimning qizimday, tushunadi. – Lekin ko‘nglida hamon qandaydir shubha bor: – Hamma muxbirlar ham shunaqa yoshmi? Yoki menga nasib qilgani shundaymi? – Darhol yupatishga kirishadi:

– Men endi yosharib qolmayman, senga esa, ilohim, keksayish nasib etsin. Xudo xohlasa... Qani, ichkariga kir. El qatori kun kechiramiz... „Sen“lab gapirganimga ranjimayapsanmi? Xuddi frontdagidek: „Qam, hoy, qizlar! Bo‘la qolinglar!..“ Ko‘rib turganingdek, billur idishlar orttirmaganmiz... Erim ikkalamiz orttirganimiz mo‘jazgina shirinlik qutichasi ichidan joy topgan: bir juft orden-u medallar. Javonda turibdi, keyin ko‘rsataman. – Xonaga boshlab kiradi. – Jihozlarimiz ham, ko‘rib tur-

ganingdek, eski. Ko'nikib qolganmiz, almashtirmoqchl emasmiz. Qizlarim kulardi, endi esa rosmana zarda qilishyapti. Yoshlarga qolsa, hammasi yangi, zamonaviy bo'lishi kerak...

Qamaldagi Leningradda komsomol xodimasi bo'lган Aleksandra Fyodorovna Zinchenko dasturxon ustida xo-tirjam o'tirishimga ko'maklashadi.

– Aleksandra bilan qanchadan buyon do'st ekamizmi bilasizmi? – bizni tanishtiradi Valentina Pavlovna. – Urush davridan buyon...

– Uning gapini sira bo'l mang, – memi ogohlantiradi Aleksandra Fyodorovna. – Gapdan to'xtadimi, yig'-lashga tushadi.

– Choy qaynagandir. Hozir olib kelaman...

– Sen o'tiraver. Men o'zim...

Evoх, hech kimning o'sha yillarga qaytgisi kelmaydi, hatto eslashni ham istamaydi! Dahshat.

Valentina Pavlovna Chudayeva, serjant, zenit to'pi komandiri:

„Meni, olis sibrlilik qizaloqm frontga borishga nima undadi? Tubkaning tubi bo'lган Sibirdan-a! Sibirning olisdan ham olisda ekanı haqida menga BMTning bir vakili savol bergandi. U muzeyda mendan sira ko'zini uzmasdi, men hatto xijolat bo'la boshladim. Keyin esa tarimon orqali Chudayeva xonim intervyu berishini il-timos qildi. Men, tabiiyki, juda bayajonlandim. Nimani gapirib beraman, deb o'yga toldim. Muzeyda so'zlag-anlarimni gapirib bera qolaman, degan fikrga keldim. Lekin um, aftidan, bular qiziqtirmasdi. Dastlab u men-ga, albatta, iltifot ko'rsatdi: „Bugun juda yosh ko'rinasiz... Urush azoblariga qanday bardosh berdingiz?“ Men unga: „Bu ham, sizga aytsam, frontga juda yosh

ketganimizning isboti“, deb javob berdim. Uni boshqa mavzu qiziqtirardi.

У Сибир узоqdan ham uzoq o‘lka emasmi, degan ma’noda menga savol berdi. „Yo‘q, – deya aniqlik kiritdim men, – sizni, chamasi, yalpi safarbarlik oqibatida men kabi maktab o‘quvchisi ham frontga yo‘l olmaganmi, degan masala qiziqtiryapti, shundaymi?“ У, „ha“, deganday bosh irlg‘aydi. „Yaxshi, – dedim men, – bu savolga javob beraman“. Unga aytganlarimning hammasini sizga ham hlkoya qilib beraman. Butun hayotimni...

Men onamni eslay olmayman. Yosh halok bo‘lgan. Otam Novosibirsk uyezdi qo‘mitasining vakili bo‘lgan, yigirma beshinchi yili uni o‘zi tug‘ilgan qishloqqa don olib kelish topsbirig‘i bilan yuborishgan. Mamlakat donga muhtoj edi. O‘sanda to‘qqiz oylik bo‘lganman. O‘zi xohlagani sabab otam onamni ham birga olib ketgan. Biron kimsaning uyida qoldirish imkom yo‘qligi bois, onam men bilan opamni ham ola ketgan. Otam yig‘ilish o‘tkazib, o‘zi bir paytlar qo‘lida batrak bo‘lib ishlagan boyga: „Donni qayerga ko‘mganining bilamiz, o‘zing yaxshilikcha olib kelib topshirmasang, tortib olamiz“, deb po‘pisa qilgan.

Yig‘ilishdan keyin qarindosh-urug‘lar jam bo‘lishgan. Otamming beshta aka-ukasi bo‘lardi, otam kabi ular ham Ikkinchiji Jahon urushidan qaytmadi. Xullas, ular sibirliklarning odatiga ko‘ra chuchvaraxo‘rlik qiliш uchun dasturxon atrofidan joy olishgan. O‘rindiqlar derazaning yomida bo‘lgan. Onam devorlar oralig‘idagi joyga o‘rnashgan, bir yelkasi deraza tomonda, ikkinchisi esa otam tomonda, otam esa oynasi yo‘q joyda o‘tirgan. Aprel oyi... Sibirda yilning bu davri ham sovuq bo‘ladi. Onam, chamasi, sovuq qotgan. Men buni keyin-

chalik, yoshim ulg‘aygach angladim. U o‘midan turib, otamning charm kurtkasini yelkasiga tashlab olib, meni emiza boshlagan. Ayni shu palla qirqma miltiq tovushi yangragan. Charm kurtkani nishonga olib, o‘q uzishgan... Onamning gapi og‘zida qolgan-u, men qo‘lidan qaynoq chuchvaraga tushib ketganman... Onam o‘shanda yigirma to‘rt yoshda edi...

Keyinchalik aynan shu qishloqda kengash raisi bo‘lgan buvamni og‘u solingan suv bilan zaharlab o‘ldirishgan. Uning dafn marosimida olingan fotosurat haliga-cha saqlanib qolgan. Tobut ustiga tashiangan sochiqqa: „Sinfiy dushman otib o‘ldirdi“, deb yozilgan.

Otam – fuqarolar urushining qahramom, Chexoslovakiyada isyon ko‘targan korpusga qarshi yuborilgan zirhli poyezd komandiri edi. O‘ttiz birinchi yili „Qizil bayroq“ ordeni bilan taqdirlashgan. O‘sha yillarda, ayniqsa, bizning Sibirda bu orden sanoqli odamda bo‘lar, bu ulkan hurmat-ehtirom belgisi edi. Otam o‘n to‘qqiz marta jarohatlangan, tanasida sog‘ joyning o‘zi topilmasdi. Otamm oq gvardiyachi chexlar yigirma yil qamoq jazosiga hukm qilganlarini onam – menga emas, albatta, qarindoshlarimizga – gapirib bergen. U otam bilan uchrashishga ruxsat berishlarini iltimos qilgan, o‘sha paytda volidam opam Taisyani tug‘ish arafasida bo‘lgan. Qamoqda uzundan uzun yo‘lak bo‘lib, otamning oldiga bemalol yurib borishiga qo‘ymasdan: „Emaklab borasan, la’natı bolshevichka!..“ deya uni majburlashgan. Tug‘ishiga bir necha kun qolgan onam bechora sement yo‘lak bo‘ylab otamning oldiga emaklab borgan. Sochlari oqarib ketgan otamni onam tanimagan...

Shunday otaning qo‘lida, mana shunday oilada voyaga yetgan menday qiz dushman yana yurtimizga bostirib

kirganda uyda befarq o'tira olarmidim? Otam ne sav-dolarni boshdan kechirmadi... O'ttiz yettinchi yilda chaquv bilan unga tuhmat qilmoqchi bo'lishgan. Lekin otam Kalininning huzuriga yo'l topgan va umi oqlashgan. Otammi hamma tanirdi...

Mana endi qirq birinchi yilni tasavvur qiling. Maktabimizda so'nggi qo'ng'iroq yangradi. Hammamiz o'zga-chaga rejalar, qizlarga xos orzu-umidlardan qanot bog'lab parvoz qilamiz. Bitiruv kechasidan so'ng Ob daryosi bo'y lab suzib, bir orolga bordik. Jo'nab ketayotganimizda shahar odatdagidek sokin, hammasi joyida edi. Hammamiz juda baxtiyor, quvnoqmiz... Onasi o'pmagan qizlar, hatto xushtorlarimiz ham yo'q bir davr. Oroldan qaytib kelayotganimizda tong otayotgandi... Shahar qay-nab-toshar, odamlar yig'lagan. Hamma yodqa „Urush! Urush!“ degan vahimali so'zlar yangraydi. Barcha radio-lar jar solayotir. Biz esa hech narsani tushuna olmay-miz. Qanaqa urush? Biz juda baxtiyor edik, kim qay-era o'qishga kirishi, kelajakda kim bo'lishi xususida rejalar tuzib qo'ygandik... To'satdan urush boshlandi. Katta yoshdagilar ko'zyoshi qilishar, biz esa cho'chi-madik ham, bir-birimizni ishontirib aytardikki, oz fur-satda „fashistlarning esini kiritib qo'yamiz...“ derdik. Urushdan avval hamma shu qo'shiqni kuylardi. Begona yurtlarda jang qilamiz, deb o'ylardik... Qoraxatlar kela boshlagach, hammasini anglay boshladik.

Otamni frontga olishmadi. U esa harbiy bo'limga borishni kanda qilmasdi. Nihoyat, urushga ketdi. Oppoq sochi bilan salomatligi zaif, sil kasaliga chalingan bo'lsa ham urushga ketdi. Necha yoshda ekamini aytmaysizmi? Lekin baribir ketdi. Aksariyati sibirliklardan iborat Po'lat diviziyaga yoki o'sha paytda ataganlaridek, Stalin

diviziysi safiga ketdi. Biz ham urush bilsiz davom etishi mumkin emas, jang qilishimiz kerak, degan qarorga keldik. Bizga ham darhol qurol beringlar! – deya harbiy bo‘limga yugurdik. O‘ninchি fevralda men frontga yo‘l oldim. O‘gay onam: „Valya, ketma... Nimalar qilyapsan? Hali yoshsan, cho‘pday ozg‘insan, sendan jangchi chiqarmidi?“ deya qaqshab yig‘lagan. Men juda uzoq vaqt raxit bilan og‘rigandim. Onamni o‘ldirganlardan keyin shu kasalga chalinib, besh yoshgacha yurolmaganman... Urush boshlamishi bilan qanday qilib kuch-quvvatga to‘lganimni o‘zim ham bilmayman!

Issiq vagonlarda ikki oy yo‘l bosganmiz. Ikki mingta qiz, butun boshli poyezd. Hamroh komandirlar bizni o‘qitar, biz aloqa xizmatini o‘rganardik. Ukrainaga yetib keldik, shu yerda biz birinchi marta bombardimonga duch keldik. Biz tibbiyot ko‘rigi doirasida hammomda edik. Hammomda bir keksa amaki navbatchilik qilayotgan ekan. Yosh qizlar bo‘lganimiz uchun undan uyaldik. Bombardimon boshianganda esa uyatni ham unutib, jon saqlash umidida hammamiz o‘scha amakiga yopishib olganmiz. Bir amallab kiyindik, men boshimni sochiq bilan o‘rab olib (qizil sochig‘im bor edi), yugurib chiqdim. Katta leytenant, u ham ona suti og‘zidan ketmagan bolakay, ortimda qichqirdi:

– Hoy qiz, pana joyga yugur! Sochiqni tashla!..

Men esa undan nari qochaman:

– Tashlamayman! Onam ho‘l soch bilan sovuqda yurmagin degan.

Bombardimondan keyin u mem izlab topdi-da:

– Nega menga qulq solmaysan? Men komandiringman axir, – dedi.

Uning so‘zlariga ishonmadim:

– Senday komandirga ko‘zim uchib turgani yo‘q...

Xullas, bu yoshgina leytenant bilan aytishib qoldim. Menden nari borsa bir yosh katta bolakay.

Men zenit to‘plari qismida aloqachi bo‘lib xizmatimni boshiadim. Aloqa bo‘limida navbatchilik qilardim. Agar otam halok bo‘lgani haqida xabarni olmaganimda, ehtimol, urushning oxirigacha aloqa xodimi bo‘lib qolarmidim. Bu xabarni olgach, „Qasos olmoqchiman, menga qilgan barcha yovuzliklari uchun fashistlar bilan hisob-kitob qilishim shart!“ deya to‘xtovsiz o‘tina boshladim. O‘ldirishni, qasos olishni, o‘q otishni istardim... Artilleriyada aloqachi bo‘lish juda muhim ekanini uqtirishsa ham parvo qilmasdim. Telefon go‘sragi bilan o‘qqa tutib bo‘lmaydi-ku... Polk komandiri nomiga bildirgi yozgandim, u rad etdi. Uzoq o‘ylab o‘tirmay diviziya komandiriga murojaat qildim. Polkovnik Krasnix kelib hammamizni safga tizdi-da: „Zenit to‘pining komandiri bo‘laman, degan mard qani?“ deb so‘radi. Men esa mittigina, yo‘nilgan tayoqday arang oyoqda turibman, mmjon yelkamda esa yetmishta patroni bor og‘ir avtomat... Chamasi, ahvolim juda achinarli edi... U: „Nima istaysan?“ deb so‘radi. Men: „Dushmanni to‘pdan o‘qqa tutmoqchiman“, deb javob berdim. Uning ko‘nglidan mimalar kechgani menga qorong‘i. Uzoq vaqt tikilib turgach, keskin burildi-yu ketdi. „Tamom, rad etadi“, deb o‘yladim. Shu palla komandir yugurib kelib: „Polkovnik ruxsat berdi“, deya meni xursand qildi.

Qisqa muddatli, juda qisqa kurslarni bitirdim – uch oy o‘qidim. Nihoyat, zenit to‘pi komandiri bo‘ldim. Bir ming uch yuz ellik yettinchi zenit polkiga jo‘natishdi. Dastlabki kezlarda burnimdan qon kelar, surunkali ichbu-

rug‘ ham tinchlik bermasdi... Kechasi uncha bilinmaydi, kunduz kunlari juda og‘ir. Samolyot aynan sening us-tingga, seming to‘ping ustiga uchib kelayotganday tuyuladi. Aynan semi nishonga olgan-u, hozir parcha-parcha qilib tashlaydi. Bular qiz bola bardosh beradigan qismat emas... Biz avvaliga „sakson beshlik“ to‘plardan otardik, ular Moskva ostonalaridagi janglarda juda qo‘l kelgan, keyinchalik tanklarga qarshi qo‘llana boshladi, bizga esa kalibri o‘ttiz yetti millimetrali to‘plarni berishdi. Bu voqealar Rjevsk yo‘nalishida bo‘lgan. Shunaqangi shiddatli janglar bo‘lardiki... Bahorda Volga bo‘ylab muzlar erib oqa boshladi... Nimalar ko‘rgamimizni bilasizmi? Muz parchasi ustida ikki-uch nemis va bitta rus askari sovuqdan tarashaday qotib qolgancha oqib boryapti... Ular bir-biriga chang solgancha halok bo‘lishgan edi. Tosh qotgan muz parchasi qondan qizarib ketgan. Ona Volga to‘lib qon oqayotganday...

Valentina Pavlovna entikib nafas oldi-da, parvozdan toliqqan qushday daf’atan yolvordi: „Ortiq chiday olmayman... Biroz dam olay... Og‘ir... Sasha, zora yig‘lamasang, deya majburlab ikkita tinchlantiruvchi xapdori ichirgandi...“

„Valyaning hikoyasini tinglab, qamaldagi Lemngradni esladim, – gapga qo‘shiladi Aleksandra Fyodorovna. – Ayniqsa, bitta voqeа hammamizni hayratga solgan. Bir keksa kampir har kuni derazani ochib, cho‘mich bilan ko‘chaga suv sochayotganini, kun sayin bu ish bilan uzoqroq shug‘ullanayotganini bizga aytishdi. Avvaliga qamalda nimalar bo‘lmaydi, balki, esi og‘ib qolgandir, deb o‘yladik, bariga oydinlik kiritish uchun uning uyiga bordik. Bizga nimalar deganiga e’tibor bering-a: „Agar fashistlar Leningradga kirib, mening ko‘chamga oyoq

qo‘yadigan bo‘lsa, boshlaridan qaynoq suv ag‘darib, ularni kuydirganim bo‘lsin. Keksayib qoldim, afsuski ortig‘iga yaramayman, lekin qaynoq suv bilan kuydirish qo‘limdan keladi“. U shu maqsadda har kuni mashq qilayotgan ekan... U ziyoli kampir edi. Uning chehrasi hozir ham yodimda.

O‘zi kuchi yetadigan kurash usulini tanlagandi. Uning jur‘atini tasavvur qilyapsizmi... Dushman yaqin kelib qolgan, Narva darvozasi oldida janglar borar, Kirov zavodining sexlari o‘qqa tutilardi... Ortiq hech vaqo qilib bo‘lmaydigandek vaziyatda ham kurashish uchun nimadir qilishga jazm etgan odam ko‘plab choralar topa olishi mumkin ekan. Bu, shubhasiz, hayratlanarli holat edi...“

„Urushdan nogiron bo‘lib qaytdim, – hikoyasini davom ettiradi Valentina Pavlovna. – O‘q parchasi yelka aralash ko‘kragimga sanchildi. Jarohat katta bo‘lmasa ham zarba ancha naridagi chuqurlikka irg‘itib yubordi. Aksiga olib bir necha kundan buyon valenkamni quritmagandim, o‘tin bo‘limganmidi, valenkamni quritish uchun menga navbat kelmaganmidi, gap shundaki, pechimiz kichkina, biz esa ko‘pchilik edik. Toki meni topgunlaricha oyog‘imni sovuq oldirib qo‘ydim. Chamasi, qorga ko‘milib qolgandim, iliq nafasim bois qor orasida o‘ziga xos tuynuk hosil bo‘lgandi. Meni iztopar itlar topishgan. Qorni kovlab, telpagimni sanitarlarga keltirib berishgan. Telpagimda esa o‘lim pasportim bo‘lib, har bir jangchining shunday pasporti bo‘lardi, unda askar halok bo‘lsa, xabar yuboriladigan qarindosh-urug‘larining manzili yozilgandi. Memi kovlab olib chodirga solganlarida egnimdag‘i kalta po‘stnim qonga to‘lgan ekan... Afsuski, hech kim oyog‘imga e’tibor bermagan...

Shifoxonada olti oy davolandim. Amputatsiya qil-moqchi bo'lishgan, qorason boshlangani uchun tizzam-dan yuqorisini kesishni mo'ljallashgan. Men shunda ozgina irodasizlik qildim, cho'loq oyoq bilan yashashni istamadim. Bu ahvolda kimga keragim bor? Na otam, na onam bo'lsa. Boshqalarga ortiqcha yuk bo'lamanmi? Yarimjon xotin kimga kerak? O'zimni osib qo'ya qolaman... Sanitarkadan kattaroq sochiq berishni iltimos qildim... Shifoxonadagilar esa: „Bu karavotda juda keksa kampir yotadi“, deya hazillashib jig'imga tegishhardi. Gap shundaki, shifoxona boshlig'i meni birinchi marta ko'rganda: „Yoshing nechada?“ deb so'radi. Men shosha-pisha: „O'n to'qqizda... Yaqimda o'n to'qqizga to'laman...“ deya javob berdim. U esa gapni hazil-ga burdi: „Voy-bo“, juda keksa ekansan-ku. Rosmiana kampirsan-a!..“

Sanitarka Masha xola ham g'ashimga tegardi. Lekin nimanidir payqaganday dedi: „Kattaroq sochiq beraman, axir seni operatsiyaga tayyorlashyapti. Lekin sendan ko'zimni uzmayman. Nima uchundir ko'zlarining bejo, nigohlaring menga hech yoqmayapti-da. Nahotki joningga qasd qilmoqchi bo'lsang?“ Men indamay qo'ya qoldim... Lekin meni operatsiyaga tayyorlayotganlari rost edi. Ilgari biron joyimga tig' tegmagan, operatsiya nima ekanini bilmasam ham, shifokorlar operatsiyaga tayyorgarlik ko'rayotgani ayon edi. Katta sochiqni yostig'imning ostiga berkitib, qadam tovushi tinishini, hamma uyquga ketishini kuta boshladim. Temir karavotlarda yotardik, karavotga sochiqni bog'lab, o'zimni o'ldiraman, deb o'yladim. Lekin Masha xola tun bo'yini oldimdan jilmadi. Yosh jominga rahmi kelib, asrab qoldi. Ertalabgacha nari ketmasa-ya...

Palatamiz shifokori, yosh leytenant shifoxona boshlig‘ining ortidan qolmay o‘tinardi: „Menga sinab ko‘rishga imkon bering. Bir sinab ko‘ray...“ Boshliq esa: „Nimasini sinaysan? Allaqachon bitta barmog‘i qorayib ketgan. Qizaloq atigi o‘n to‘qqiz yoshda. Bizning aybimiz bilan nobud bo‘ladi-ku, axir“, deb javob berardi. Ma’lum bo‘lishicha, davolovchi shifokor meni operatsiya qilishlariga qarshi bo‘lib, o’sha kezlarda yangi davo usulini taklif qilgan. Teri ostiga maxsus igna bilan kislorod yuboriladi. Kislorod esa... Shifokor emasman, hammasini tushuntirib berolmayman...

Yosh leytenant bir amallab shifoxona boshlig‘ini ko‘ndirdi. Oyog‘imni kesmaydigan bo‘lishdi. Boshqa usul bilan davolay boshladilar. Bum qarangki, oradan ikki oy o‘tgach, yura boshladim. Albatta, qo‘ltiqtayoq bilan, oyoqlarimning lattadan farqi yo‘q, ularni bosa olmayman. Oyoqlarimni sezmasdim ham, faqat ko‘rardim, xolos. Keyim qo‘liqtayoqsiz yurishni o‘rgandim. „Ikkinchi marta dunyoga kelding-a“, deya meni qutlashdi. Shifoxonadan keyin dam olish uchun ruxsat berilardi. Biroq qanaqa dam olish? Qayerga boraman? Kimning oldiga? Men o‘z harbiy qismimga, zenit to‘pim qoshiga oshiqdim. Partiya safiga kirdim. O‘n to‘qqiz yoshimda...

G‘alaba kunini Sharqiy Prussiyada nishonladik. Ikki kun mobaynida osoyishtalik hukm surar, bironta ham o‘q ovozi eshitilmasdi, kutilmaganda tunda havo hujumidan ogohlantiruvchi signal yangradi. Barchamiz sapchib turdik. Shu palla „G‘alaba! Dushman taslim bo‘ldi!“ degan xitoblar har tomonni tutib ketdi. Taslim bo‘lgani o‘z yo‘liga, lekin g‘alabaning ahamiyati katta – nihoyat, anglab yetdik: „Urush tugadi! Tugadi urush!“

Kimning qanday quroli bo'lsa, kim to'pponchadan, kim avtomatdan havoga o'q uza boshladi. To'plardan ham otishdi. Kimdir ko'zyoshiarini artsa, kimdir: „Tirikman, tirik qoldim!“ deya raqs tushardi. Keyin komandirdan dakki eshitdik: „Snaryadlar haqi to'lanmaguncha hech qanday demobilizatsiya bo'lmaydi. Nima qilib qo'ydinglar? Qancha snaryadmi behuda sovurdinglar?“ Bazingcha esa bundan buyon zaminda hamisha tinchlik hukm suradiganday, urush bo'lishini endi hech kim hech qachon xohlamaydiganday, barcha snaryadlar yo'q qilinishi kerakday edi. „Urush“ degan so'z ortiq tilga olinmaydi ham, deb o'yalmiz...

Qanot bog'lab uygaga uchishga tayyor edik! Garchi na otam, na onam bor edi. O'gay onamga har qancha ta'zim qilsam oz... U meni o'z validamday kutib oldi. Keyinchalik uni oyi deb atay boshladim. **U** urushdan qaytishimni ko'zi to'rt bo'lib kutgandi. Holbuki, shifoxona boshlig'i unga yo'llagan xatida oyog'imni kesib tashlashganim, shu ahvolda olib kelishiarini yozgandi. Kutib olishga tayyor bo'lib turing, deb ta'kidlagan. Sizning qaramog'ingizda biroz yashagandan keyin olib ketamiz, deb va'da ham bergen... O'gay onam esa uygaga tirik qaytishimni istagan.

U meni kutgan.

O'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshimizda frontga ketib, yigirma-yigirma besh yoshda qaytib keldik. Avvaliga quvondik, keyin esa vahimaga tushdik: osoyishta hayot sharoitida nima ish qilamiz? Dugonalarimiz institatlarni bitirishgan, biz esa kimmiz? Hech bir ishga ko'nikmaganmiz, ixtisosligimiz ham yo'q. Bilganimiz ham urush, qo'limizdan keladigani ham urush. Tezroq urushdan nariroq bo'lishga tirishdik. Shinelimizdan o'zimizga palto tikib, tugmalarini qayta qadadik. Kir-

za etigimni bozorda sotib, bejirim tuqli xarid qildim. Birinchi marta ko'ylak kiyganimda yig'lab yubordim. Ko'zguga qarab o'zimni taniy olmayman, to'rt yil faqat shim kiyib yurganmiz-da. Yaralanganman, kontuziya bo'lganman, deb hech kimga ayta olmadim. Buni oshkor qilsang, keyin kim ham seni ishga olardi? Lekin tan olishning ham hojati yo'q edi, shundoq ham oyoqlarim og'rir, juda jizzaki bo'lib qolgandim...

Og'zimizga tolqon solganday lom-mim demaganmiz, urushda qatnashganimizni hech kimga aytmaganmiz. O'zaro muomala qilardik, xat yozishardik, xolos. Keyinchalik e'zozlab, uchrashuvlarga taklif qila boshlashganda dastlab sukut saqlaganmiz. Hatto orden-medallarimizni taqmasdik. Erkaklar taqib yurishardi, zotan, ular urushda g'olib bo'lgan qahramonlar, kuyovto'ralar edi, bizga esa tamomila boshqacha ko'z bilan qarashgan.

Erkaklar urushda bizni ko'z qorachig'iday asrashardi, osoyishta hayotda ayollarga shunday munosabatda bo'lganlarini ko'rmadim. Chekinganimizda, dam olish uchun yastanganimizda yalang yerda yotmasin, deb o'zları esa bitta gimnastyorkada qolib, bizga shinellarini to'shar edilar: „Qizlarjon-ey... Sizlarni avaylas himiz kerak...“ Biron joydan bir bo'lak paxtami, dokami topib olishsa ham: „Mana bum olgin, senga kerak bo'la di“, deya tntqazishardi. So'nggi qotgan nonini ham birga baham ko'rardilar. Faqat mehr bilan iliq munosabatda bo'lishgan. Lekin urushdan keyin askarlik guvohnomalrimizni yashirish kerak bo'lganida qanchalik alam qilganini bilsangiz edi...

Harbiy xizmatdan bo'shagandan keyin erim bilan Minskka kelganimizda hech vaqomiz yo'q edi. U ham urush qatnashchisi, batalyon komandiri bo'lgan. Surpdan

ishlangan yaxshi xarita topib oldik-da, namladik... Shu surp xarita bizning ilk choyshabimiz bo'lgan. Qizimiz tug'ilganda uni taglik qilib ishlatdik. Hozir ham esimda, dunyo xaritasi edi... Erim bir kuni kellb: „Yura qol, onasi, tashlab yuborilgan eski divan ko'rdim...“ deb boshlab ketdi. Hech kim ko'rmasligi uchun o'sha divanni kechasi olib kelganmiz. Divanli bo'lilik, deb boshimiz osmonga yetgan!

Biz baribir baxtiyor edik. Tushkunlikka tushmaganmiz. Kartochkaga kerakli yegulik olardik-da: „Biznikiiga kelaver, shakar oldim. Choyxo'rlik qilamiz“, deb bir-birimizga qo'ng'iroq qillardik. Boshimiz ustida ham, oyog'imiz ostida ham hech vaqo yo'q, mana bu gilamlar ham, hech narsa bo'lмаган... Baribir quvonchimiz ichimizga sig'masdi. Tirik qolganimizga quvonardik. Nafas olayotganimiz, yayrab kulayotganimiz, hayat ekanimiz uchun quvonardik... Muhabbat hissi va odamlar bilan hamdardlik quvvat baxsh etardi, odam odamsiz yashay olmaydi, biz bir-birimizga tashna edik. Holbuki, o'sha davrlar, hozirgi kun nuqtayi nazarida, juda og'irdamlar bo'lgan.

Bugungi kunga kelib, qaddimizni rostlashdi, qadrlashayotir. Xotiralarimni so'zlab berish uchun uchrashuvlarga meni tez-tez taklif qilishadi. Yaqinda yosh italiyaliklar bilan uchrashdim. Ular badavlat odamlarning farzandlari ekanini oldindan aytishgandi. G'alati-g'alati savollar berishdi: qanday shifokor meni davolagan? Ruhshunos shifokorga murojaat qilganmanmi? Qanaqa tushlar ko'raman? Urush voqealari ham tushimga kiradimi? Urushda qo'rwmaganmanmi? Men shunday javob berdimki: har bir odam yashashni istaydi, hamma ham o'limdan qo'rqedi, lekin shunday pallalar bo'ladi, qo'rqiapsanmi, yo'qmi,

parvo hani qilmaysan. Yurtingga dushman bostirib kirganini ko'rgach, qo'rquvni ham yengasan. Ular sho'ro ayollari biz uchun jumboq, deya tan olishdi. Urushdan keyin turmushga chiqqanmisiz, deb ham so'rashdi. Ular nima uchundir meni beva, deb o'ylashibdi. Men: „Hamma urushdan o'lja bilan, men esa erim bilan qaytdim. Qizim bor. Nabiralarim ham ulg'aymoqda“, deya salmoqlab javob berdim. Men ham ko'proq farzand ko'rishni xohlaganman, biroq buning uchun na sog'liq, na kuch-quvvat, na imkoniyat bo'lgan. E, nimasini aytay... Ko'ngildagidek bilim ham olmadim. Nafaqaga qadar Politexnika institutida laborant bo'lib ishlaganman.

Hamisha yoshlar davrasida bo'lganim uchun ishim o'zimga yoqardi. Yoshlar bilan o'zingni hamisha tetik his qilasan...

Shtabimiz boshiig'i Ivan Mixaylovich Grinko ikki yil muqaddam biznikida mehmon bo'ldi. U allaqachon nafaqaga chiqqan. Mana shu stol atrofida o'tirganmiz. O'shanda ham shirinlik pishirgandim. Ular erim bilan urush yillarimi eslab, safdosh qizlarning ismini tilga olishdi. Men chiday olmay o'shqira ketdim: „Izzat-hurmat deysizlar-a?! Qizlarning ko'pchiligi so'qqabosh bo'lib qotishdi, hammasining ham alohida uyi yo'q. Butun umri „kommunalka“da – umumiy xonadonda o'tayotir. Ular ga kimning rahmi keldi? Kim hlmoya qildi? Sizlarmi?..“ Xullas, bayramona kayfiyatni bir pul qildim...

Shtab boshlig'i sizning joyingizda o'tirgandi. „Kim seni ranjitganim aytgin, – dedi u qat'iyat bilan. – Unga sizlar qanday jasur qizlar bo'lganingizni gapirib bera man!“ Xayrlasha turib: „Valya, ko'zyoshlarimdan bo'lak senga hech qanday dalda bera olmayman“, deb uzr so'radi. Endi bundan nima foyda. Vaqt o'tib bo'lgan...“

Ketar chog‘imda qancha rad etsam ham: „Bu sibircha shirinlik. Juda boshqacha“, deya qo‘yarda-qo‘ymay qo‘limga pirog tutqazdi. Shuningdek, manzillar va telefon raqamlari bitilgan uzun ro‘yxatni berib, ta’kidladi: „Sendan iltimos, barcha qizlarimizni izlab topgin. Hech birimiz tantiq emasmiz, qizlar taklifingni jon deb qabul qilishadi. Bu uchrashuvdan keyin tobim qochsa ham xotiralarimni tinglaganing uchun rahmat. Xotira qolgam yaxshi-da...“

„Bizni kichik medallar bilan taqdirlashdi...“

Saksominchi yilning (yodda qolgan) may oyi. Ikki yildan buyon kimlarnidir qidiraman, kimlar bilandir uchrashaman, mamlakatning turli burchaklariga o‘nlab maktub jo‘nataman. Xonadonim harbiy bo‘linma yoki muzey pochtasidan farq qilmaydi: „Aviapolk uchuvchisi Marina Raskovadan salom...“, „Sizga „Jeleznyak“ brigadasining partizan ayollari topshirig‘i bilan maktub yo‘llayapman...“, „Yashirin ish olib borgan minsklik ayollar... tabriklaymiz... Boshlagan ishingizda omad yor bo‘lsin...“, „Dala kir yuvish-hammom bo‘linmasining oddiy askarlari, sizga murojaat qilyapmiz...“ Va men ikki avlod – qirq birinchi yilning navqiron avlodni va hozir o‘sim tengi yigirma-o‘ttiz yoshlilar avlodni bilan bir vaqtning o‘zida hayot kechirmoqdaman. Idrokimda ikki voqelik, odamzodming ikki olami baqamti; ular goh yaqinlashib, goh yiroqlashadi, galma-galdan yiriklashib, kichrayadi, uyg‘unlashadi. Meming xotiram – ularning xotirasi. Ularning xotirasi – mening xotiram.

Ba’zida urush haqida yana qancha yozish mumkin, degan iddaolar qulog‘imga chalinadi. Darvoqe, nainki yondaftarlarimdan, balki yuragimdan ham joy olayotgan ma’lumotlarning odamga chidab bo‘lmash oq‘ir ta’siri

haqida o'ylaganman. Biz texnika juda takomillashgan davrda, odamzod shu paytgacha boshdan kechirgamidan ko'ra dahshatliroq urushlar xavfi ostida yashayapmiz, atrof-muhit halokati ham dahshatli, faqat eng kuchli quroq, eng yengilmas vosita – inson xotirasidan umid bor, xolos. Xotira! Uning chiziqlari, chizmalari qanchalar murakkab, qanchalar chalkash! – bunga izlanishlar davomida kun sayin ishonchim ortib bormoqda. Odamzodning xotirasi dahshatli jahannam mashinasining chizmasidan ham murakkab. Holbuki, namki yuzlab, minglab, balki bir yo'la millionlab odamlarni mahv etish uchun shunday mashinalar yaratilgan yoki yaratishni istayaptilar. Ular insoniyat bilan birgalikda uning xotirasini ham, mana shu nomoddiy moddiyatni ham yo'q qillshni xohlashadi, holbuki, odamzod xotirasiz o'z insoniy qiyofasini yo'qotadi. Xo'sh, xotirani qanday ilg'ab olsa, so'zlar vositasida muhrlasa bo'ladi?

Uchrashaylik, degan taklifimga suhbatdoshlarim bajonidil rozi bo'ladi, o'tgan butun davr mobaynida: „Yo'q, bu vahimali tushga o'xshaydi... Keragi yo'q!.. Illojim yo'q!..“ yoki: „Eslashni istamayman! Hech narsa yodimda yo'q... Eslagim ham kelmaydi!..“ qabilidagi rad javoblarimi faqat bir necha marta olganman. Afsuski, hamma ham o'z xotiralarini yozavermaydi, hamma ham bu ishni uddalay olmaydi, tuyg'ular va mulohazalarni qog'ozga tushirish oson emas, xat yozishlar ham aksiga olib kutilgan natijani bermaydi, yangi manzillar-u ismi shariflar ko'payadi, xolos.

„Tanamda metall parchalari istalgancha topiladi, – deb yozadi saninstruktor Valentina Dmitriyevna Gromova. – Vitebsk ostonalarida sanchilgan o'q parchasini yuragimdan uch santimetr berida, o'pkamda olib yuribman. Ik-

kinchi o‘q parchiasi esa – chap o‘pkamda. Qornimning ichida yana ikkita o‘q parchasi bor...

Urushga qizaloq paytimda ketgammim bo‘yicha nogiron bo‘lib qaytdim. Xastaliklarga taslim bo‘lmadim. Kechki maktabda tahsll oldim, texmkummi sirtdan bitirdim, biroq madaniyat institutini bitira olmadim. Sog‘lig‘im pand berdi.

Yolg‘iz yashayman. Jarohat va kontuziyalar sababli farzand ko‘rishim mumkin emas. Kelsangiz, gapirib beraman, hammasini yozib yuborishga holim yo‘q...“

„Frontdan qaytib kelganimda shifokorlar o‘qishga kirishga ruxsat berishmadi. La’nati urush. La’nati kontuziya...“

Umrim sargardonlikda o‘tdi. Farzand ko‘rmaganman. Erga ham tegmaganman. Hammasiga urush sababchi. Katta mukofotlar olmaganman, bir necha medalim bor, xolos. Bilmadim, hayotim sizni qiziqtirarmikan, lekin boshimdan kechirganlarimni kimgadir gapirib bersam deyman...“ (Voronova V.P., telefonchi).

Kichik leytenant, tankchi Aleksandra Leontevna Boyko maktubidan:

„...Biz erim bilan olis shimolda, Magadanda yashardik. Erim haydovchi, men esa pattachi bo‘lib ishlardim. Urush boshlanishi bilan bizni ham frontga jo‘natmlar, deb iltimos qildik. Bizga o‘z jabhangizda ham keraksiz, deb ruxsat berishmadi. Shunda o‘rtoq Stalin nomiga maktub yo‘llab, tank ishlab chiqarish uchun ellik ming rubl o‘tkazganimizni, ikkalamiz ham frontga borish niyatida ekanimizni yozib yuborib, hukumat nomidan minnatdorchilik maktubi oldik. Nihoyat, qirq uchinchi yili meni erim bilan Chelyabinsk tank-texnika bilim yurtiga o‘qishga yuborishdi, biz uni jadal sur’atda bitirdik.

Lagerdan tank oldik. Er-u xotin ikkalamiz hanı mexanik-haydovchimiz, tankda esa mexanik-haydovchi bitta bo‘ladi. Boshliqlar meni „IS-122“ tankining komandiri, erimni esa mexanik-haydovchi qilib tayinlashdi. Shu asno urush yo‘llarini bosib o‘tdik. Boltiqbo‘yi, Polsha, Chexoslovakiya, Germaniyani ozod etishda qatnashdik. Ikkalamiz ham yaralanganmiz, mukofotlarimiz bor.

O‘rtacha tanklarda talay tankchi qizlar jang qilgan, lekin og‘ir tankda yolg‘iz men komandir edim. Ba‘zan o‘yga tolaman: butun hayotimi birorta yozuvchiga gapirib bersam, butun boshli kitob bo‘lardi...“

Yetti yuz sakson to‘rtinchı zenit-artilleriya polkinining beshinchı divizioni sobiq komandiri Ivan Arsentevich Levitskiy esa maktubida shunday yozgandi:

„....Qirq ikkinchi yilda meni divizion komandiri etib tayinlashdi. Tamshganimizdan keyin polk komandiri shunday dedi: „Kapitan, siz noodatiy divizionni qabul qilib olayotgamingizni aslo unutmang. Divizionning teng yarmi qizlardan iborat, ularga alohida yondashuv, e’tibor va g‘amxo‘rlik zarur“. Men qo‘sishlar safida qizlar xizmat qilayotganini, albatta, bilardim, biroq to‘la tasavvur qila olmasdim. Hamisha erkaklarning ishi bo‘lgan harbiy ixtisosliklarni zaifalar egallagani, biz – doimiy xizmatdagi ofitserlarni biroz o‘ylantirib qo‘ygan. Hamshiralarga-ku ko‘nikib ketgandik. Ular Birinchi Jahon urushida, keyin esa fuqarolar urushida ham yaxshi xizmat qilishgan. Biroq bir necha pudli snaryadlarni ko‘tarish talab qilinadigan zenit qo‘sishlarida qizlardan mima naf? Bittagina yerto‘lasi bor batareyalarga ularni qanday sig‘dirish mumkin, axir bu yerda erkaklar ham bor. Asbob-uskunalarga soatlab tikilib o‘tirishga to‘g‘ri keladi, ular temirdan, zenit to‘plarining o‘rindiqlari ham

temir, qizlarga esa temir o'rindiqda o'tirish yaramaydi. Nihoyat, ular sochlarini qayerda yuvadi-yu, qayerda qu ritadi? O'z-o'zidan talay muammolar ko'ndalang bo'lar, bu shunaqa favqulodda holat edi...

Batareyalarim ko'zdan kechira boshiadim. Qizlar quroq bilan navbatchilikda turganini, minora tepasida binokl bilan kuzatayotganini ko'rib, rosti, hafsalam pir bo'ldi, men axir, oldingi marradan, frontdan kelganman. Biri tortinchoq bo'lsa, boshqasi har narsadan hadiksi raydi, birining sirkasi suv ko'tarmaydi, yana birining yuragida o'ti bor, qat'iyatli – hammasi har xil. Harbiy intizomga hammasi ham bo'ysunavermaydi, armiya tartib-intizomiga ayol tabiatan qarshilik qiladi. Gohida berilgan buyruqni unutib qo'yadimi-yey, goh uyidan kelgan maktubni o'qib, ertalabdan yig'lab oladi. Bir gal jazolasang, keyingi gal rahming keladi... „Bular meni adoyi tamom qiladi!“ degan fikr ko'nglimdan kechdi.

Ko'p o'tmay shubhalarim ortda qoldi. Qizlar ajoyib jangchi bo'lib yetishishdi. Ular sinchkovlik bilan, erkak-larga misbatan amiq ishlardi. Artilleriyada esa amiq ish-lash juda muhim. Qizlar bilan birga divizionimiz tashkil topgan Gorkiy shahridan Poznangacha bordik. Tankchim tankming zirhi, piyoda jangchini okop himoya qiladi. Zenitchi jangga kirishar ekan, yarog'ini imkon qadar ko'zdan pana qiladi-yu, o'zi ochiq maydonda qoladi. Zenitchi himoyalanish maqsadida okop qazimaydi, blindaj-lar qurmaydi, dushman samolyoti ustiga tikka bostirib kelganda ham to'pming yomidan jilmaydi. Bu juda ma shaqqatli ish, bu haqda kimadir gapirib berishni yoki yozishmi ko'pdan beri o'ylab yurardim...“

Moskva, Kiyev, Krasnodar o'lkasinimg Apsheronsk shahri, Vitebsk, Volgograd, Yalutorovsk, Galich, Smo-

lensk... manzillar juda xilma-xil. Navbatdag'i maktubni olganimda, notanish shahar yoki qo'rg'onni xaritadan axtarib, sarosimaga tushaman: u yerga qanday yetib boraman-u, muallif bilan qachon va qay asno uchrashaman? Imkon boricha ko'p ayolni hir joyga jamlashim kerak, degan fikr tug'iladi. Lekin ularni qanday qilib bir joyga yig'aman? Kutilmagan bir xabar mushkulimni oson qiladi. General P.I.Batovning oltmis beshinchı armiyasida jang qilganlardan pochta orqali taklifnomalar olaman:

„...Biz Moskvadagi Qizil maydonda o'n oltinchi-o'n yettinchi may kunlari to'planishni odad qilganmiz. Ko'p yillardan buyon yig'ilamiz. Ham an'ana, ham odad tusini olgan. Yo'l yura oladiganlarning hammasi keladi. Murmansk, Qarag'anda va boshqa turli shaharlardan keli-shadi. Xullas, uchrashuvga sizni ham taklif qilamiz...“

Moskvadagi Aleksandrovsk bog'ida yodgorlik o'rnatilgan. Qizil rangli xotira toshi... alvonrang may gul-dastalarining oqimi mana shu yodgorlik sari ohista su-zib boradi: agar yuqoridan nazar tashlansa, gullar juda ko'pligidan alangani eslatgan bo'lardi. Mazkur oqimning sokin to'lqinlari ichra men ham ohista ketib boraman. Qulog'imga esa baxtiyor odamlarning gaplari chalinadi: „Mariya, senmisan? Tanimay qolibman, lekim ko'zla-ring... Hamon o'sha-o'sha...“, „O'g'ling Fyodormi bu? Xuddi o'zing-a. Kelining ham, nabirang ham shu yerda-mi? Serjant butun bo'linmasi bilan kelibdi-da...“, „Vanya, esingdami? Qirq birinchi yilda mana shu maydondan o'tganimiz yodingdami? Sening paytavang yo'q edi, bir ayol bo'ynidagi sharfini yechib bergandi. Esladingmi?“, „Kishinyov atirgullari... Samolyotda biroz so'ligan. Yodgorlik poyiga qo'yganim ma'qul...“

Atrofda esa kundalik tashvishlar-u tantanalardan iborat Moskva hayoti bir maromda davom etayotir. Moskva ahli ham bunday tantanavor, qayg‘uli yurishlarga ko‘nikib ketgan, shu bois bu kabi marosimlar o‘tkazilmasa, hayratlangan bo‘lardi. Hatto navnihol chehralarda ham ajablanish alomati aks etmaydi. Tosh qaziladigan tog‘ yonbag‘irlaridagi portlashlardan bo‘lak portlashni eshitmagan, jang ham qilmagan bizning avlod shuuriga urush bilan bog‘liq xotira irsiy yo‘l bilan muhrlangan: bir inson hayotidan ham qisqa vaqt oralig‘idagi urush xotirasi haqiqatan ham dahshatli. Bu dahshatli xotira, odatda, olomonga qo‘silib ketib, yashirinib oladi, ayni marosimda esa butun borliqdan ajralib, alohida ko‘zga tashlanadi, suv va o‘t balosi ham mana shunday yaqqol ajralib chiqadi, ularning o‘ziga xos qonuniyati bor. Barhayot urush xotirasi ham o‘z qonuniyatiga ega.

Oltmis beshinchı armiyaming sobiq jangchiları joylashgan „Moskva“ mehmonxonasıdagı vaziyat Sovet armiyasi uyining zalida yaqında hukm surgan bayramona kayfiyatni eslatadi. Hamma bir-birini bag‘riga bosib, ko‘zyosh to‘kib, suratga tushadi. Bu yerda tanish-notanish yo‘q, hamma qadrdon. Men kabi biron yosh-yalangga ko‘zi tushsa, sira ham begonasiramay savol beradi: „Kimning qizisan?“

Men ham: „Sizning qizingizman“, deya samimiyl javob beraman.

Yettinchi qavatdagi ellik ikkinchi xonada besh ming ikki yuz ellik yettinchi gospital xizmatchiları jam bo‘lishgan. Davraning to‘ridan joy olgan harbiy shifokor, kaptan Aleksandra Ivanovna Zaytseva mehr bilan so‘zlaydi: „Barcha qizlar mening fikrimni ma’qullaydi: hammamiz

yil bo‘yi mana shu kunni kutib yashaymiz. Farzandlarim ham, nabiralarim ham bor, lekin baribir birga jang qilgan qizlarday qadrdon, yaqin kishim yo‘q. Bum bolalarim ham biladi, xafa bo‘lishmaydi“.

Aleksandra Ivanovna meni hamma bilan tanishtiradi. Birma-bir yozib olaman: jarroh Galina Ivanovna Sazonova, shifokor Yelizaveta Mixaylovna Ayzenshteyn, jarrohlik hamshirasi Valentina Vasilevna Lukina, katta jarrohlik hamshirasi Anna Ignatevna Gorelik, hamshiralar – Nadejda Fyodorovna Potujnaya, Klavdiya Proxorovna Borodulina, Yelena Pavlovna Yakovleva, Angelina Nikolayevna Timofeyeva, Sofya Kamaldinovna Motrenko, Tamara Dmitriyevna Morozova, Sofya Filimonovna Semenyuk, Larisa Tixonovna Deykun...

Davrada suhbat qiziydi.

„Sasha to‘g‘ri aytdi. Mana men ertagayoq qaytib ketishim kerak. Alam qiladi. Rahbariyatdan o‘z hisobimdan yana bir kun ta’til beringlar, deb iltimos qildim, berishmadni. Ular yosh, bu uchrashuv biz uchun qanchalarni muhim ekanini tushunmaydi“.

Suhbat darhol boshqa mavzuga ko‘chadi. O‘nlab yillardan keyin ularni bir joyga to‘plagan, boshini biriktirgan olis voqealar yodga olinadi.

„Qizlar, esingizdam: issiq vagonlarda ketib boryapmiz, miltiqlarni qanday ushlab olganimizni ko‘rgan askarlar mayna qilganday kulardi. Belgilangan tartibda emas, aksincha, mana bunday ko‘tarardik... Hozir hatto ko‘rsata olmayman... Qo‘g‘irchoqday ushlab olgandik...“

„Odamlar „Urush!“ deya yig‘i-sig‘i qilar, qichqirardi ham. Mening ko‘nglimdan esa g‘alati fikr kechadi: „Qanaqa urush, ertaga institutda imtihon topshirishimiz kerak-ku? Imtihon juda muhim axir. Urushga balo bormi?“

Bir haftadan keyin esa bombardimon boshlandi, biz odamlarni qutqara boshladik. Tibbiyat institutining uchinchi bosqich talabalari – og‘ir sharoitda bu ancha kuch. Lekin ilk kunlarda shuncha ko‘p qon to‘kilganimi ko‘rdimki, hatto qondan qo‘rqa boshladim. Mana senga salkam shifokor, mana senga amaliyotda olingan „a’lo“ baholar. Lekin odamlar o‘zlarimi mardona tutar, mana shu xislat bizga qanot baxsh etardi.

Esingizdam, qizlar, sizlarga gapirib bergenman. Bombardimon tugadi, qarasam, ro‘paramdagi yer qimirlayapti. Yugurib borib, kovlashga kirishdim. Odamning yuzi, qo‘llarim bilan paypaslab, sochlarim his qildim. Ayol ekan... Umi tuproqning ichidan chiqarib olib, yig‘lashga tushdim. Ko‘zim ochganda, menga nima qildi, deb so‘ragani yo‘q, kutilmaganda shunday savol berdi:

- Sumkam qani?
- Sumka joningizdan ortiqmi? Topilar.
- Sumkamda partiya biletim bor, axir.

Tushunyapsizmi? Oyoq-qo‘lim butunmi deb emas, partiya biletim qani, deb so‘rayapti. Men darhol uming sumkasini axtara boshladim. Topdim. U esa sumkani bag‘riga bosgancha ko‘zlarini yumdi. Ko‘p o‘tmay samtar mashinasi keldi, biz umi mashinaga joyladik. Sumkasi joyidamikan, deb yana bir bor tekshirdim. Kechqurun uyga kelib onamga so‘zlab berdim-da, frontga jo‘nashim kerak, deb aytdim“.

„Frontga qanday yo‘l olganimiz hamon yodimda. Usti yopiq katta mashina to‘la qizlar. Tun qorong‘isida ketib boryapmiz, asablarimiz tarang, shox-shabbalar mashinaning brezentiga qarsillab uriladi, dushman o‘qqa tutayotganday tuyuladi...“

„Men onamning erkatoj qizi edim, o‘z shahrimdan sira chetga chiqmaganman, kutilmaganda minomyotchilar batareyasiga kichik shifokor bo‘lib tushib qoldim. Ahvolimni ko‘rsangiz edi. Minomyotlardan mina yog‘dirish boshlanishi bilan ikki qulog‘im ham tom bitib qoladi. O‘zingmi alanga ichida qolganday sezasan. Boshimni changallagancha: „Oyi, oyijon... Oyijon“, deb shivirlayman. Bizning qism o‘rmonda joylashgandi, saharlab tashqariga chiqsang – hamma yoq osuda, yaproqlarda shudringlar marjoni. Nahotki urush bo‘layotir? Olam shunchalar go‘zal, shunchalar sokin bir sharoitda-ya...“

Bizga harbiy kiyimlarni kiyinglar, deb buyruq herildi, mening bo‘yim esa atigi bir yarim metr. Harbiylar shimim kiygandim, ichida yo‘q bo‘lib ketdim. Shu bois egmimdagi ko‘ylagim bilan yuraverdim, lekin boshliqlardan qochib yurardim. Oxir-oqibat harbiy intizomni buzganim uchun gauptvaxtaga qamaldim“.

Hammasidek qiyini, eng og‘iri nima bo‘lgan, deb so‘rayman. Bir og‘iz so‘z bilan „kundalik ish“ deb javob berishadi. Batamom holdan toydiradigan mashaqqatli kundalik ish: „Yo‘lda keta turib ham uxlayveraman, deb sira o‘ylamagandim. Hamma bilan safda qadam tashlash barobarida uxlayverasan, oldingda borayotganga urilib ketib, bir lahzaga uyg‘onasan-da, yana uxlaysan. Bir gal oldinga emas, yon tomonga og‘ib ketibman, dala bo‘ylab yolg‘iz o‘zim uxlagancha ketib boryapman. Ni-hoyat, ailaqanday chuqurga tushib ketib uyg‘ondim-u, o‘zimiznikilarning ortidan yugurdim“.

Ayollar tilga olgan odatdagи „kundalik ish“ga urush yillari hisoboti shunday ta’rif beradi: jangchilar orasida yaralangan, kontuziya bo‘lgan, kuyganlar juda ko‘p edi, lekin har yuzta yarador jangchidan yetmish ikkitasi yana

safga qaytardi. Oldingi marradagi tibbiyot xodimlari safidagi yo‘qotishlar o‘qchi batalyonlardagi yo‘qotishlardan keyin ikkinchi o‘rinda turardi. Ayollarning xotirasida raqamlar qolmagan – o‘sha pallalarda sanash uchun imkoniyat qayoqda deysiz. Ular boshqa tafsilotlarni eslab qolganlar.

„Jarrohlik stolidan kun-u tun jilmasdik. Turgan joyingda qo‘llaring beixtiyor osilib qoladi. Mudroq bosib, stolda yotgan bemorga boshimizni urib olgan paytlarimiz ham bo‘lgan. Oyoqlarimiz shishib ketganidan, kirza etikka sig‘masdi. Ko‘zlarimiz shunchalar toliqar ediki, ularni yumib bo‘lmasdi“.

„Kun-u tun ishlaganmiz, ochlikdan hushimizdan ketib qolardik. Ovqatlangani qo‘limiz tegmasdi...“

„Hech esimdan chiqmaydi: bir yaradorni olib keliшди, uni zambilдан oldik, „Yo‘q, u o‘lgan“, deb atishdi. Birdan nafas ola boshlaganda, boshiga engashib oldim. Ham yig‘layman, ham qichqiraman: „Shifokorni chaqiringlar! Shifokorni!“ Shifokorni o‘rnidan turg‘azib, silkitishadi, u esa shunchalar qattiq uxlayaptiki, bir bog‘lam poxolday yana qulaydi. Uni hatto nashatir spirti iskatib ham uyg‘ota olishmadi. Surunkasiga uch kun uxlamagan ekan“.

Yodimda qolgan yana bir xotira:

„Bu chang‘ichilar batalyoni bo‘lib, o‘ninchi simfni bitirgan o‘smir yigitlardan iborat edi. Ularni pulemyotlardan ayovsiz o‘qqa tutishgandi. Yaradorlardan biri ko‘zyoshlarini to‘xtata olmaydi. Bizning yoshimiz ham ular qatori, lekin o‘zimizni kattalarday tutamiz. Yaradorni bag‘ringga bosib: „O‘zimning bolaginam...“ deb erkalaysan. Uning esa ensasi qotadi: „Qirg‘inbarot jang maydonida o‘zing bo‘lganingda meni „bolam“ deb yer-

ga urmagan bo‘larding...“ Ajal changatida tun bo‘yi: „Oyi!.. Oyi!..“ deb qichqiradi. Ularning orasida Kursk shahridan ikkita yigit bo‘lib, ularni „Kursk bulbullari“, deb atardik. Uyg‘otgani boshiga borsang, og‘zining chetidan so‘lagi oqib yotardi. Ona suti og‘zidan ketmagan go‘daklar-ey...“

Bu qizlar nima uchun tengdosh yigitlardan o‘zlarini kattaroq yoshda deb hisoblashgan? Ko‘p yillik kechinmalar ta’sirida shakllanadigan onalarga xos rahm-u shafqat qizlarning qalbida daf’atan qayoqdan paydo bo‘lgan? Buni shunday izohlashadi:

„Ayol mehr-u shafqat kuchi bilan ulg‘ayadi. Men u paytlarda yoshgina qizaloq, o‘zim rahm-u shafqatga muhtoj edim, hiroq urushning dastlabki yilidayoq shunchalik ko‘p dahshatlarning guvohi bo‘ldimki, o‘zimni yoshi katta ayolday sezsa boshladim. Yoshgina yigitning qo‘li yoki oyog‘ini ko‘z oldingda kesib tashlashsa, bolalikdan nom-nishon ham qolmaydi. Allaqaqachon nogiron bo‘lib qolgan yigitcha esa tun bo‘yi qichqiradi: „Yetib oldinglarmi? Olg‘a, yigitlar, olg‘a...“ Holbuki, qimirlashi mumkin emas. Jarohatlar bir xil bo‘lmasdi. Har bir jangchim urush turlicha mayib qilardi... Bir jangching ko‘ksi o‘pirilib ketganini ko‘rganman. Jon beryapti... Jarohatni bog‘layapman-u, dod solishdan o‘zimni arang tutib turibman. Tezroq tugatsam-u, biron burchakka tiqilib dodlasam. Yarador esa: „Baraka top, hamshirajon...“ deya allaqanday jajji taqinchoqni qo‘limga tutadi. Qarasam: o‘zaro payvasta kichkina qilich bilan miltiq. „Nega berding?“ deb so‘rayman. U esa: „Onam bu tumor seni omon saqlaydi, degandi. Lekin menga ortiq keragi yo‘q. Balki, sen mendan ko‘ra omadliroqdirsan...“ dedi-da, devorga o‘girildi.

Boshqasi esa: „Hamshira, oyog‘im og‘riyapti“, deya zorlanadi. Holbuki, oyog‘i yo‘q... Ayniqsa, o‘liklarni tashishdan ko‘rqardim, shamol choyshabni ko‘tarib yuborsa, senga tikilib turganday tuyuladi. Ko‘zi ochiq o‘liklarni tashiy olmasdim, shu bois agar ko‘zi ochiq bo‘lsa, asta yopib qo‘yardim...“

„Yaradorni keltirishdi, doka bilan o‘rab tashlangan, boshiga o‘q tekkan ekan, yuzi salgina ko‘rimb turibdi. Birozgina. Lekin unga kimnidir eslatdim, shekilli, men ga gapira boshladi: „Larisa... Larisa... Lorochka...“ Af tidan, meni ko‘rib sevgan qizini esladi. Bu o‘rtoqni hech ko‘rmaganman, u esa menga, yaqinroq kel, demoqda. Men yaqinroq bordim, lekin mima uchunligini tushuna ol may garangman. „Sen keldingmi? Keldingmi-a?“ Uning qo‘lidan ushlab, boshi uzra egildim... „Kelishingni bil gandim...“ U nimadir deb shivirladi, men esa nima deganini anglay olmadim. Hozir so‘zlab bera olmayman, bu voqeani eslasam, beixtiyor ko‘zim yoshga to‘ladi. „Men frontga otlanganda, – deydi u, – sendan bo‘sа olishga ham ulgurmadim. Meni o‘pgin...“ Ohista egilib, yuzidan o‘pdim. Ko‘zidan bir tomchi yosh yumalab, dokaga singib ketdi. Tamom. U o‘ldi...“

Yonimda bir ayol o‘tiribdi. Chiroyli yuzi keksa o‘qituvchilarning qiyofasidek jiddiy. Go‘yo odamlar davrasida emas, yolg‘iz o‘tirganday uzoq sukut saqlaydi. Qis mati hammaniki bilan bir xil. Faqat xotiralar bo‘lakcha.

„Odamlar o‘lishni istamasdi. Biz har bir ingrash, har bir nido sari talpinardik. Bitta yarador jon berayotgанини sezib, yelkamdan quchoqlab olib sira qo‘yib yubormaydi-da. Yonimda hamshira tursa o‘lmayman, deb o‘ylaganmi? U: „Yana besh daqiqa, loaqal ikki daqiqa yashasam edi...“ deb yolvorardi. Ayrimlar bir og‘iz

ham so‘z aytmay jon berar, boshqalar esa: „O‘lishni istamayman!“ deb qichqirardi. Odam jon taslim qilish asnosida ham o‘limni o‘ylamaydi, o‘layotganiga ishonmaydi. Sen esa sochlarining ostidan sap-sariq ajal ko‘lankasi chiqib kelib, bosh-u oyog‘ini qoplab olganiga guvoh bo‘lasan... Bechora o‘lib yotibdi-yu, yuzida esa allaqanday ajablanish muhri: men o‘ldimnii, nahotki o‘lgan bo‘lsam, deb o‘layotganday. Unga, yo‘q-yo‘q, o‘lmaysiz, deb so‘nggi lahzagacha dalda berasan, behuda gaplarni gapirmang, deya o‘pasan, bag‘ringga bosasan. Ism-shariflari xotiradan o‘chlb ketgan, lekin qiyofalar ko‘z oldingda...“

Umumiy suhbat barham topadi. Ko‘pchilik yig‘ilganda o‘zi shunaqa bo‘ladi, ikki-uch kishi alohida gaplasha boshlaydi. „Yodingdami-a...“, „Eslaysizlarmi...“, „Shunday bo‘lgandi...“ Kinidir eshikni taqillatib kirib keldi. Keyingi kirganlarni o‘zingiz bilan stul ola kiringlar, deb ogohlantirishdi.

– O‘zimning samovarinim va qo‘lbola shirinlik ham olib kelsam maylimi?

– Marhamat.

Uchrashuv munosabati bilan shaharning narigi chekkasidan keltirilgan samovar stolda qaynay boshlaydi.

„Urushda toblangan do‘s-t-u qadrdonlarmiz“, dedi davradagilardan biri. Bir qarashda oddiy, biroq yigirma chog‘li odamning qaynoq nafasiga yo‘g‘rilgan bu so‘zlarining hayajonli mohiyati qalbimni larzaga soldi. Bu ular uchun shoirona mubolag‘a emas, balki ularning yoshligi, ta‘bir joiz bo‘lsa, sadoqat, do‘slik, hayot to‘g‘risidagi tu-shunchalari. Axir ular, bizning hugungi hayotimizga ham o‘sha olis zamon nuqtayi nazaridan, shiddatli va ulug‘vor davrning mezonlaridan kelib chiqib baho beradilar.

Nazarimda, chehralar va ovozlarni ortiq ajrata olmayman, faqat jo‘rovoz ayollarni ko‘ryapman va tinglayapman. Ayollar o‘z xotiralarini jo‘rovoz bo‘lib kuylayotganday, chunki davradagi erkaklar gapga qo‘silmasdan tinglab o‘tirishibdi. Odamzod hayoti qanday qurbanliklar evaziga saqlab qolinganim ayollar yaxshiroq hikoya qilishi shadi. Erkaklar shu xulosaga kelganday.

„Otam bizni front ortiga jo‘natib yubordim, ikkalasi ham omon qoldi, deb o‘ylagan. Lekin onam bilan gospitalga ishga kirdik. Men to‘la ma’lumotim bo‘lmagam uchun yaradorlarni u yoqdan bu yoqqa olib o‘tishga yordamlashardim. Onam: „Tegishli kurslarni tugatib, malakali hamshira bo‘la qolaylik“, deb mem ham ergashtirib ketdi. U urushdan oldim veterinariya institutida laborant bo‘lib ishlardi.

Saratovni bombardimon qilish boshlangach, gospitalda „Vatan xavf ostida“ mavzusida suhbat o‘tkazildi. Biz hamshiralar tayyorlash kursini endigina tugatgandik, onam menga frontga birga ketamiz, deb aytdi. U ko‘ngilli ravishda ariza berib, meni va kenja singlimni ham birga ola ketdi. Faqat olti oylik tibbiyot xodimlari kursini tugatgan bo‘lsa ham qobiliyatligi uchun tez orada jarrohlik hamshirasi bo‘lib ishlay bosbladi. Onam begona qizm ham asrab olgan, uni tug‘ishganimizday e’zozlardik, biroq uch opa-singil onamizni bir-birimizdan qizg‘anardik. Onam esa barchamizni birdek ko‘rardi, sharoit og‘ir bo‘lishiga qaramay, hech birimizdan mehrini darig‘ tutmasdi...“

„Qo‘l yoki oyoq kesib tashlanganda, darhol qon chiqmaydi... Avvaliga oppoq toza et ko‘rinadi, keyin qon chiqadi. Agar go‘shti oppoq va toza bo‘lsa, hozir ham tovuqni nimtalay olmayman. Og‘zim birdan namakob bilan to‘lib qoladi...“

Dushmanning hatto ayollarga nisbatan ham tasavvurga sig‘maydigan vahshiyligi hammasidan ko‘p dahshatga soldi. Bu xususda ayollar bir-biriga gal bermay so‘zlaydi:

„Biz chekinyapmiz, dushman bombardimon qilmoqda. Mashinalarimizga qizil xoch belgisi tushirilgan emasmi, sanitar mashinalar karvoni ketib borayotgani osmon-dan kaftdek ko‘zga tashlanadi. Lekin fashist uchuvchilari juda pastlab uchib, har bir odamni taqib qilardi. Biz o‘rmonga yashirinamiz. Dushman samolyoti esa to‘g‘ri senga qarab uchib keladi. Men uchuvchim, uning yuzini ham ko‘raman. Ular biz qizlar ekanimizni ham, qayin ortiga berkinganimizni ham ko‘radi, shunday bo‘lsa ham o‘qni boshimiz ustidan yomg‘irday yog‘diradi, ustiga ustak tirjayib ham qo‘yadi. Sovuqdan sovuq, vahimali tirjaygan fashist uchuvchisining yuzi esimda qolgan“.

„Ular boshimizdan bombalar yog‘dirgani kamday, yo‘l bo‘ylab pastlab uchgancha hujum qila boshladи. Men qochib boryapman, bitta samolyot esa ortimdan soyaday ergashadi: jo‘xorizorga kirsam ham ortimdan qolmaydi, o‘rmonga qochay desam yo‘limni to‘sadi. Niroyat, bir amallab o‘rmonga kirib oldim – qandaydir chuqurga tushib ketdim yoki yaproqlar ichida ko‘milib qoldimmi... Qo‘rqqanidandan burmim qonab ketdi, tirik-o‘likligimni ham bilmayman, qo‘l-oyog‘imm qimirlatib ko‘rgach, Xudoga shukr, tirik ekanman dedim. Shu-shu samolyotdan qo‘rqaman. Yiroqdan tovushini eshitsam, bas, vahimaga tushaman, samolyot uchib kelmoqda, bekinishim zarur, tovushimi eshitmayin ham, o‘zini ko‘rmayin ham, biron joyda jon saqlashim kerak, deb o‘yay boshlayman. Haligacha samolyot tovushiga bardosh bera olmayman. Samolyotda uchishni-ku gapirmang. Urush shu ko‘yga solib qo‘ydi...“

Mana bunday voqeani ham eslaydilar:

„Stansiyada yaradorlar tushgan va otlar joylangan eshelon turardi. Bombardimon boshlandi. Biz yaradorlar tushgan vagonlarning eshiklarini ochdik, ular esa o‘z jonlarini qutqarish o‘rniga yonayotgan otlarni xalos qilishga kirishib ketdi. Yarador odam dod solsa, juda vahimali eshitiladi, biroq yarador otlar kishnaganiga chidab bo‘lmas ekan. Axir, ularda mima ayb, odamlarning qilmishlari uchun otlar javobgar emas-ku. Hech kim o‘rmon ichiga qochib qolgani yo‘q, aksincha, hamma otlarni qutqarishga tutindi. Bu bilan nima demoqchiman? Gap shundaki, dahshatli urush bo‘layotgamiga qaramay, odamlar vahshiylashgani yo‘q. Fashistlarning samolyotlari juda pastlab uchardi. Keyin o‘yladimki, nemis uchuvchilari hammasini ko‘rishdi, balki, qilgan ishidan xijolat bo‘lishgandir...“

„O‘rmonga o‘t ketgan, g‘alla ham yonardi... Nafasni bo‘g‘adigan, zaharday achchiq tutun... Temir-tersaklar ham o‘t ichida qolgandi... Bunday qo‘lansa hidga ham ko‘nikish kerak edi...“

„Endigina yetib kelib, gospitalni tiklaganimiz hamon, yaradorlar kelib ulgurmasdan evakuatsiya haqidagi shoshilinch buyruq berildi. Yaradorlarning ayrimlarini mashinalarga chiqarishga ulgursak, yana kimdir qolib ketadi. Mashinalar yo‘q, yordamchilar ham yo‘q. „Yaradorlar qolaversin, o‘zingiz ketavering“, deb aytishadi. Ketishga chog‘langanda, ular ortingdan mo‘ltirab qolishadi. Yo‘l yura oladiganlar biz bilan birga otlanadi. O‘rnidan turolmaydiganlar esa qolaveradi. Ularga yordam bera olmaysan, ko‘zlariga qaramaslikka urinasan... Yosh edim, faqat ko‘zyosh to‘kishga kuchim yetardi...“

Hujumga o'tganimizdan keyin bironta ham yaradorni tashlab ketmaganmiz. Hatto yarador nemislarga ham shafqat qilardik... Ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatgan kezlarim bo'lgan. Dushman ekamimi ham unutib, yaralarimi bog'lardim. Qirq birinchi yilda chekinganmizda noiloj qoldirib ketilgan yaradorlarimizga nisbatan beshafqat munosabatda bo'lishganini eslaganda, o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Shunda bironta ham nemis yaradoriga ortiq yaqin yo'lamayman, degan fikr ko'nglimdan kechardi... Ertasiga esa og'ir ahvolda yotgan dushman jangchisining jarohatini hech mima bo'lma-ganday bog'layverardim...

Nima esimda qolgan, qanday holat xotiramga muhr-langan? Mana shunday og'ir yaradorlar yotadigan pala-talardagi osudalik, g'ayrioddij sukonat“.

„Jangchilar har xil yaralanar, ayrimlarining umurtqa pog'onasi majaqlangan bo'lardi, faqat qo'li qimirlaydi, boshqa a'zolari toshday qotib qolgan. Yosh bola kabi tagi-mi tozalaysan... Go'dak kabi mehrga muhtoj. Rahming keladi. Barcha yaradorlarga achinasan. Nainki odamlar, bar-chaga jonzotlarga achinasan. Beozor qushlarning ham holi tang... Ular ham alanga ichida qoladi, nobud bo'ladi...“

Bombardimon qilishdi. Suvsiz ariq o'zamiga berkin-dik, qishloqdan bir echki yugurib kelib, yonimizga yotib oldi. Yotibdi-yu, tinmay ma'raydi. Bombardimon to'xtadi, echki ham ortimizdan ergashadi va bizga suykalib panoh axtaradi, uning ham joni bor, qo'rjadi. Qandaydir qishloqqa yetib kelgach, bir ayloga: „Shu echkini bo-qib oling, uvol bo'lmasin“, deb aytdik. Echki bechorani qutqaraylik dedik-da...“

Do'zaxdan farq qilmaydigan og'ir urush sharoiti-da insoniy qiyofasini saqlab qolgan, qushlar, jonivor-

lar, dov-daraxtlar, o't-o'lanlar, jamiki tirik mavjudot qanchalar aziyat chekkamini eslab qolish uchun mehr-shafqat ham, kuch-quvvat ham topa olgan insonni yengib bo'ladimi? Odamlar tirik qolgan jonzotlarga ham panoh bo'lgan, ularning qisnatini yengillashtirgan, birgalikda iztirob chekkan. Dushman mahv etilgan, yaralangan, asir olingan bo'lsa, hatto uni ham kechirgan, nafaqat kechirgan, balki yarasiga malham qo'yib, davolagan. Bu hammasidan ko'proq hayratga soladi, binobarin bunday xayrixohlikni bugungi, osoyishta zamon nuqtayi nazaridan tushunsa bo'ladi, biroq ona yurting urush alangasida yonayotgan, qadrdon yor-u birodarlaring halok bo'layotgan sharoitda bunday bag'rikenglik qilishning o'zi bir azob edi. Ayollar esa bu voqealarni chinakam mson uchun ham qarz, ham farz deb bilgani bois xotirjam hikoya qiladi.

„Mening palatamda hitta nemis bilan o'zimizning kuygan tankchimiz yotardi. Men ularning holidan xabar olaman:

– Ahvolingiz yaxshimi?
– Ancha durust, – deydi bizning tankchimiz. – Lekin manavi bechoraning ahvoli og'ir...

– Bu axir fashist-ku...
– Men yaxshiman, biroq manavi qiynałyapti.

Bobruysk yaqinida nemislarning gospitalini egalladik. Yaradorlarni bezovta qilmadik, biroq ularni nemis shifokorlari davolardi. O'sha shifokorlardan biri bemorni narkoz bermay operatsiya qilganini ko'rib qoldim.

– Nima uchun narkoz bermasdan operatsiya qilyapsiz? – deb so'radim.

U esa pinagini ham buzmay shunday dedi:

– Operatsiya stolida o‘ladimi yoki sizlarning qo‘lingizda halok bo‘ladimi, mima farqi bor?

Shifokor bo‘la turib shunday deganiga sira ishongim kelmasdi...“

„Biz axir Gippokrat qasamini ichganmiz, biz axir shifokormiz, boshiga kulfat tushgan har qanday odamga yordam berishimiz shart. Har qanday odamga...

Eseschilarni, eses ofitserlarining yaralarini qayta bog‘lash uchun olib kelishdi. Hamshira yaqin kelib so‘radi:

– Ularning yaralarini qanday qayta bog‘laymiz? Ayab o‘tirmaymizmi yoki risoladagidek qilibmi?

– Albatta, risoladagidek qilib. Bular axir, yaradorlar...

Hammasingning yarasini avaylab qaytadan bog‘ladik. Keyin ikkitasi qochib ketdi. Ularni tutib keltirishdi, yana qochib ketmasliklari uchun ichki ishtonlarining tugmalarini uzib tashiadim...“

„Biz odanilarni qutqarardik. Lekin ko‘pchilik qo‘lida quroli yo‘qligidan, tibbiyot xodimi sifatida dushman yarasini ham bog‘lashga majbur bo‘lganidan juda afsuslanardi“.

Ularning har biri ilgari qadrdon uyi, ota-onasini teztez esga olsa, urush oxiriga kelib irim qilib ularni imkon boricha tilga olmasdi. Urush hech bo‘limganda uylari, onalari, jajji singillarini chetlab o‘tganiga ishongilar kelardi. Urush dahshatlarini loaqal o‘shalar ko‘rmasin. Biroq ular bundan ham mahrum edi.

„Men urushga dadil otlanganman, hech balodan qo‘rmasdim. Tasavvurimda bombardimon qilissa, faqat binolar vayron bo‘ladiganday edi, snaryad yoki bomba tegib halok bo‘lishimga ishongim kelmasdi. Daydi o‘q tegishi mumkinligimi bilardim, bunga ishonardim, biroq snaryad yoki bomba sababli

nobud bo'lishimni aqlimga sig'dira olmasdim: bunday bo'lishi mumkin emas! Keyim esa o'z ko'zim bilan ko'rdim...

Hamshira qizlarimizdan biri asirga tushib qoldi, bir kundan keyim o'sha qishloqni yana ishg'ol qildik va hamshiranı topdik: ko'zları o'yib olingan, ko'kragi kesib tashlangan. Hatto qoziqqa o'tqazishgan... Qahraton sovuq, bechoraning rangida rang yo'q, sochlari ham opopoq... Atigi o'n to'qqiz yoshda edi... Shundan keyin asir tushgandan ko'ra o'zimizni otib tashlaganimiz ma'qul, degan niyatda so'nggi patronni o'zimiz uchun saqlab qo'yadigan bo'ldik. Faqat asir tushishdan qo'rqardik, boshqa hech nimadan cho'chimasdik.

Urush oxirlagan sayin uyga xat yozishdan hadiksi-raydigan bo'lib qoldim. Xat yozmaganim bo'lsin, degan qarorga kelaman, halok bo'lsam, onam bechora urush tugadi, qizim sho'rlik g'alaba arafasida halok bo'ldi, deb yig'lashi tayin. Hech kim buni oshkora aytmasa ham hamma shum o'ylardi. Tez orada g'alaba qilishimizni, bahor nafasini hamma sezardi“.

Uzoq kutilgan kun keldi. Uni har qancha intizor bo'lib kutishniasin, barcha uchun favqulodda hodisa bo'ldi. Urushning qaysi kuni esingizda qolgan, deb istalgan odamdan so'rang. Birinchi va so'nggi kum, deb javob beradi. Bu sanalarni eng mayda tafsilotlari-gacha juda aniq eslashadi. Mana bunday hayajonli holatlarni ham: „Urush tugadi!“ deb aytishganda, hech tap tortmay sterillangan stolga o'tirib oldim. Biz shifokor bilan „Urush tugadi!“ deb xabar qilishgan zahoti sterillangan stolga o'tirib olamiz, deb kelishib qo'ygandik. Biron ajabtovur ish qilamiz, degan miyatda edik. Holbulki, bu stolga hech kimni yaqin yo'latmasdim. Qo'limga

qo‘lqop, og‘zimga ham mqob taqib olgannian, egnimda toza oppoq xalat, kimga doka, biron tibbiyot asbobi kerak bo‘lsa, ehtiyyotlab uzataman... G‘alaba kuni esa hech ikkilanmay o‘sha stolga yalpayib o‘tirib oldim...

Nimani orzu qilardik? Birinchidan, albatta, g‘alaba qozonishmi, ikkinchidan tirik qolishni. Qizlardan biri: „Urush tugasa, bir etak bola tug‘ganim bo‘lsin“, desa, boshqasi: „Men institutga kiraman“, derdi. Yana biri esa ko‘nglidagini hech tortinmay aytardi: „Sartaroshxonadan sira chiqmagamim bo‘lsin. O‘zimga oro berib, go‘zallarning go‘zali bo‘laman“.

„Qishloqlarimizga kirib borarkanmiz, faqat mo‘rilarga duch kelardik. Ukrainadagi bir qishloqqa kirib keldik, hech vaqo yo‘q, dalada tarvuz pishib yotar, odamlar faqat shu bilan kun ko‘rishardi. Hech nimalari bo‘limgani uchun bizni qo‘llarida tarvuz bilan kutib olishgan.

Uyga qaytib keldim. Yerto‘lada onam uch bola bilan yashar, kuchukchamiz esa qaynatilgan laylak suyagini kemirardi. Laylak go‘shtini qozonga solib, sho‘rva pishirishadi-da, suyaklarimi kuchukka tashlashadi. Kuchuk ham jon deb yerd... Qishlog‘imizda urushdan oldin bulbul juda ko‘p bo‘lardi, urushdan keyim ikki yil mobaynida bulbul sayrashini hech eshitmadik. Hamma yoq ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketgandi. Bulbullar uch yildan keyimgina paydo bo‘ldi. Ular qayerda edi? Hech kim bilmaydi. O‘z joylariga uch yil o‘tgandan keyin qaytdi. Odamlar uy qurgandan so‘ng bulbullar keldi“.

Ularni kelajakda ayollarga xos barcha quvonch-u hasratlarga to‘la bir hayot kutib turardi. Lekin aslo unutib bo‘lmaydigan urush dahshatlarini boshdan kechirgandan so‘ng hamisha „o‘tmishdan ko‘z uza olmay“ kun kechirdilar.

„Urushda har bir kun esda qolardi, keyin esa yillar xotirada qola boshiadi: qachon erga tekkanim, qachon to‘ng‘ich farzandim tug‘ilgani, o‘g‘lim institutni bitirgan va uylangan yil, kumush to‘yimizni qachon nishonlaganimiz, nabiram tug‘ilgan yil... Umr ko‘z ochib-yumguncha o‘tib ketadi, axir. Urush to‘rt yil davom etdi, keyin, mana, qariyb qirq yil o‘tyapti, bundan qat’i nazar urush hayotimning teng yarmini tashkil etganday tuyulaveradi. O‘sha, atigi to‘rt yil...“

„Dalada gullar uza boshlasam, urushmi eslaynian. Urushda hech gul termaganmiz...“

Bolalar haqida, nabiralar haqida, tashvishlari, xastaliklari to‘g‘risida gapiradilar. Bir qaraganda el qatori oddiy ayollar. Onalar, buvilar. Lekin istalgan joyda, olomon orasida, g‘oyat shukuhli shodiyonalarda ham ularni baribir taniyman, endilikda hech yanglishmay ajrata olaman.

— Davramizda o‘tirgan erkaklarning har biri urushda kamida bir yoki ikki marta yaralangan. Ular bugun davramizda o‘tirgani, farzandlari borligi va nabiralari voyaga yetayotgami siz bilan bizning xizmatimiz emasmi? Bizni kamtarona orden-medallar bilan taqdirlashgan, biroq bularmi inson hayotini saqlab qolganimiz uchun berishgan, — Aleksandra Ivanovna Zaytseva so‘nggi qadah so‘zida shunday deb ta‘kidladi.

Moskvadagi Qizlar maydonida xalq mablag‘i hisobidan tibbiyot xodimlariga — Ikkinchı Jahon urushi qahramonlariga yodgorlik o‘matilgan. Ularga sof oltindan haykal yasalsa ham kam! Holbuki, bu yodgorlik ham o‘ziga xos oltindan, eng bebahoh oltindan, ya’ni insoniyat minnatdorchiligidan, odamzod xotirasidan bunyod etilgan yodgorlik.

„Bu men emasdim...“

Hikoyachi har bir ayol – o‘ziga xos qismat sohibasi. Moskvada bo‘lgan oltmisht beshinchi armiya faxriyalarining uchrashuvida Olga Yakovlevna Omelchenkoni ko‘rdim. Barcha ayollar bahorgi libosda, yorqin rangli durrachalar o‘rab olishgan, yolg‘iz u harbiy kiyimda edi. O‘tmishning mangu muhri bosilgan, o‘tgan vaqt ham yumshata olmagan qiyofasi e’tiborimni tortdi. Biz tanishdik, keyin esa Polotsk shahriga, Olga Yakovlevna ning uyiga mehmon bo‘lib bordim.

Uming tobi yo‘q ekan, shunday bo‘lsa ham o‘rnidan turdi:

– Qanaqa keyimgi safar? Bizning tengdoshlarimiz alaqachon yorug‘ dunyoni tark etayotir... Vinnitsadagi dugonamning manzilini sizga bermoqchi edim, kecha qo‘ng‘iroq qilishdi – vafot etibdi. Urush barchamizning ildizimizga bolta urdi!

Qator suhbatlarda: „Afsuski, kechikdinglar!..“ degan pinhoniy ta’nani payqayman. Bir necha maktublarim „Ortiq bu manzilda yashamaydi“, degan qayd bilan qaytib kelganim eslayman. Boshqa shahar yoki xonadonga ko‘chib o‘tmagan, balki bu dunyoda endi yo‘q. Inson ovozi boy berildi, odamzod xotirasi olam qa’riga singib ketdi. O‘zi bilan nimalarni manguga olib ketdi ekan? Buni ortiq hech kim bilmaydi.

Olga Yakovlevna urush voqealarini xotirjam, deyarli hayajonlanmay esga olar ekan, avvaliga bum tushunmadim ham, anglamadim ham. Bu ham meni tashvishga soldi, chunki urushda qatnashgan ayollarning ko‘zyosh qilishlari ga ko‘nikib qolgandim. Shunday holatlarda ularning dardini oson ilg‘ab olardim. Olga Yakovlevnaning nursiz, qurib qolgan ko‘zlaridagi g‘ussa esa juda teran edi...

Olga Yakovlevna Omelchenko, o'qchi rotanining san-instruktori:

„Onam o'zi bilan meni ham evakuatsiyaga olib ketishni istardi, urushga talpinganimdan xabar topib, yuklarimiz ortilgan kemaga bog'lab qo'ydi. Lekin men qo'limni asta yechib, qochib qoldim, bir qarich arqon qo'limda qolib ketdi.

Hamma ketayotir. Shoshilmoqda. Qayoqqa boshimni urishni bilmayman. Yo'lida bir guruh qizlarga duch keldim. Ulardan biri: „Onam yaqin o'rtada yashaydi, biznikiiga boramiz“, deb taklif qildi. Kechasi kelib, eshikni taqillatdik. Onasi eshikni ochib, kir-chir, yirtilgan kiyim-boshimizni ko'rgach, „Ostonada tura turinglar“, deb ichkariga kirib ketdi. Uni kuta boshladik. Bir payt katta tog'ora sudrab chiqdi, egnimizdag'i barcha kiyimlarni yechdik. Boshimizni kul bilan yuvib, issiq pechka yondan joy oldik. Men qotib uxbab qoldim. Bu qizning onasi ertalab ko'kat solib sho'rva pishirdi, kartoshka qo'shilgan bug'doy kepagidan non yopdi. Non ham, sho'rva ham bizga juda mazali tuyuldi!

Qizning onasi to'rt kun mobaynida bizni imkon boricha yeguliklar bilan siyladi. Ovqatni oz-ozdan berar, ko'p yeb qo'yib, bo'kib qolmanglar yana, deb xavfsirardi. Nihoyat, beshinchi kuni bizga oq yo'l tiladi. Bundan oldin qo'shni ayol kirganda biz pechkaning ustida bekinib o'tirdik. Qizning onasi jim o'tiringlar, deb ishora qildi. Qizi kelgamim hatto qo'shnilariga ham bildirmadi, hammaga qizim frontda, deb aytardi. Holbuki, bu uning yakka-yu yolg'iz qizi edi, hatto yolg'iz qizini ham ayamas, frontdan qaytib keldi, degan sharmandali malomatni ko'tara olmasdi. Kechasi bizni uyg'otib, yegulik solingan to'rvami qo'limizga tutqazib, kuzatib qo'ydi.

– Hatto qizini ham olib qolishmi istamadimi?

– Yo‘q, qizining yuzidan o‘pib, „Otang jang qilyapti, sen ham jang qilishing kerak“, deb aytdi.

Qizi esa hamshira ekanimi, ularning qismi qurshovga tushib qolgamini yo‘lda gapirib berdi.

Juda ko‘p sarson bo‘ldim, nihoyat, Tambov shahriga borib qolib, gospitalga joylashdim. Gospitalda hayotim izga tushdi, ochlikdan keyin o‘zimni o‘nglab, ancha to‘lishdim. O‘n olti yoshga to‘lganimda barcha shifokorlar, hamshiralari kabi men ham qon topshirishim mumkinligini aytishdi. Har oyda qon topshira boshladim. Buning evaziga quvvatimni tiklash uchun bir kilogrammdan shakar, bug‘doy yormasi, kolbasa olardim. Men enaga Nyura xola bilan juda inoq edim, uning yetti farzandi bo‘lib, eri urush boshlanganda halok bo‘lgandi. To‘ng‘ich o‘g‘li yetti yoshda bo‘lib, u yeguliklar olgani do‘konga qatnar, bir kuni oziq-ovqat kartochkasini yo‘qotib qo‘ygandi, shu bois donor sifatida oлган yeguliklarimmi ularga berardim. Ikki oyda bir marta yarim litrdan, bir yo‘la besh yuz kubikdan qon topshirardim. Bir gal shifokor menga: „Manzilingni yozib qo‘yaylik, balki, sening qoning quyligan odam izlab kelib qolar“, deb aytdi. Biz manzilim yozilgan yorliqm qon quylgan idishchaga yopishtirib qo‘ydik.

Rostdan ham birmuncha vaqt dan keyin, ko‘p emas, ikki oy o‘tgachi, navbatchilikni topshirib, yotoqxonaga kelib uxladim. Bir payt kimdir meni silkityapti:

– Tur! Tursang-chi, sem yo‘qlab akang keldi.

– Qaysi akam? Akam yo‘q mening!

Bizning yotoqxona eng yuqori qavatda joylashgandi, pastga tushsam, yoshgina kelishgan yigit turibdi. Asta so‘radim:

– Kim Omelchenkonni izlab keldi?

U yonimga keldi.

– Men yo‘qladim. – Shunday deb biz shifokor bilan yozgan yorliqmi ko‘rsatdi. – Mana... Men seming qondosh akangman.

Ikkita olma, bir xaltacha konfet olib kelibdi, u kezlar-da hech qayerdan konfet topib bo‘lmashdi. Voy, Xudo-yim! Biram shirin konfetlar ekan! Gospital boshlig‘ining huzuriga kirib, akam keldi, deb aytdim. Menga bir kun dam berishdi. Leytenant esa teatrqa taklif qildi. Men umrimda biron marta ham teatrda bo‘limgandim, kutil-maganda kelishgan yigit bilan teatrqa borish nasib qildi.

Bir necha kundan keyin Voronej frontiga yo‘llanma bilan jo‘nab ketdi. Xayrlashish uchun kelganda deraza-dan qo‘l silkib qo‘ya qoldim. Yaradorlar ko‘p bo‘lgani uchun menga kuzatib qo‘yishga ruxsat berishmadi.

Hech kimdan xat olmagandim, xat olishni hatto tasav-vur ham qila olmasdim. Kunlarning birida uchburchak xat oldim, unda: „Sizning do‘stingiz, pulemyot vzvo-dining komandiri... mardlarcha halok bo‘ldi“, deb yozil-gandi. Mening qonimni quyishgan, o‘sha qondosh akam halok bo‘lgan ekan. U yetimxonada voyaga yetgan, af-tidan, cho‘ntagida faqat mening manzilim bo‘lgan. U ke-tayotganida urushdan keyin topishi oson bo‘lishi uchun gospitalda qolishimni o‘tinib so‘ragandi. Bir oy o‘tib „U halok bo‘ldi“, degan qayg‘uli xat olsam-a, dahshatga tushdim. Frontga borib qondosh birodarim uchun qasos olishga qat’iy qaror qildim, axir jang maydonida mening ham qonim to‘kilgandi-da...

Frontga jo‘nashim oson kechmadi. Gospital bosh- lig‘iga uchta bildirgi yozdim, to‘rtimchi safar esa hu-zuriga kirib:

– Agar frontga ketishimga ruxsat bermasangiz, qo-chib ketaman, – deb dangal aytdim.

– Tushunarli. Qaysarlik qiladigan bo‘lsang, yo‘llanma bergenim bo‘lsin...

Dastlabki jang, albatta, juda dahshatli kechadi. Yer-u ko‘k gumburlaydi, o‘takang yorilguday bo‘lib, qochgani joy topolmaysan. Yer yoriladi, deb sira o‘ylama-gandim. Hamma yoqda shovqin-suron, qarsillagan tovush... Zamin beshikday tebranadi. Boshimni qayoqqa urishni bilmayman... Bu dahshatga qanday chidayman... Sabr-bardoshim yetmaydi, deb o‘yladim. Shu darajada vahima bosdi, nihoyat, komsomol biletimni olib, yaradorning qoniga botirdim-da, cho‘ntagimga solib, tugmasimi qadab qo‘ydim. Shu asno go‘yo qasamyod qildim: men chidashim kerak, eng muhimi, qo‘rqmasam bo‘ldi, ilk jangda qo‘rqoqlik qilsam, keyingi qadamni qo‘ya olmayman. Oldingi marradan olib, medsanbatga qaytarib yuborishadi. Men esa faqat oldingi marrada jang qilishni, qondosh akam uchun o‘zim qasos olishni istardim. Ni-hoyat, hiz hujumga o‘tdik, belimiz baravar o‘t-o‘lanlar oralab ketib boryapmiz... Bir necha yillardan buyon hech qanday ekin ekilmagan dala. Juda qiynalib ildamlardik. Bu voqealar Kursk yoyi jangida bo‘lgan...

Jangdan keyin shtab boshlig‘i meni huzuriga cha-qirdi. Vayron bo‘lgan qandaydir kulba, hech vaqo yo‘q. Uning huzuriga kirdim. O‘rtada bitta stul, boshliq esa oyoqda. Men o‘sha stulga o‘tirgach, u shunday dedi:

– Senga qarab hech tushuna olmayapman: bu jahan-namga bosh suqishga seni nima majbur qilayotir? Pash-shaday yanchib tashlashadi. Bu urush, axir! Kel, loaqal sanitar bo‘limiga o‘tkazib qo‘yay. Jangda halok bo‘lsang-ku, oson qutulasan-a, biroq ko‘zingdan yoki qo‘lingdan ajrasang nima bo‘ladi? Shuni hech o‘ylaganmisan?

Men esa shunday javob berdim:

– O‘ylaganman, o‘rtoq polkovnik. Faqat rotada qoldi-
rishingizni o‘tinib so‘rayman.

– Qaysarlik ham evi bilan-da, mayli, boraver! – pol-
kovnik shunday o‘shqirdiki, qo‘rqib ketdim.

Qaqshatqich janglar. Qo‘l jangida ham qatnash-
ganman... Dahshat. Odam o‘z qiyofasini butunlay yo‘qo-
tadi... bu insonning qo‘lidan keladigan ish emas... Jang-
chilar itday olishadi, miltiq xanjarini qoringa, ko‘zga,
duch kelgan joyga sanchishadi, chang sollib, bir-birini
bo‘g‘adi. Dod-voy, faryod, ingrashlar. Bu urushdagi eng
dahshatli manzara. Hammasini boshdan kechirganman,
afsuski, barini bilaman. Uchuvchilarga ham, tankchilarga
ham, artilleriyachilarga ham jang qilish qiyin, hammaga
qiyin, lekin piyoda askarlar qismatini hech biri bilan qi-
yoslab bo‘hnaydi.

Kimdir urushda vahimaga tushmaganman, desa ishon-
mayman. Mana, nemislar okoplardan chiqib, bostirib kela
boshlaydi, besh-o‘n daqiqadan keyin biz ham hujumga
o‘tishimiz kerak. A’zoyi badaning titray boshlaydi... Birin-
chi o‘q uzilguncha shunday holatda bo‘lasan. Buyruq be-
rilishi bilan hammasini unutasan va okopdan otilib chiqib,
yugura boshlaysan. Hech narsadan qo‘rqmaysan. Ertasiga esa u xlabel olmaysan, rosmana qo‘rquv iskanjasiga
tushasan. Hammasini, barcha tafsillotlarni eslaysan, seni
ham o‘ldirishlari mumkinligini anglab, aqldan ozguday
bo‘lasan. Hujum tugashi bilan jangchilarning yuziga qa-
ramagan ma’qul, chunki ularning rang-ro‘yi sira odamga
o‘xshamaydi. Bu holatni hatto ta’riflashga ham ojizman.
Hammasi esankiragan, biroz esi og‘ib qolganday tuyuladi.
Ularning yuziga qarashga ham yuraging dov bermaydi...

O‘lishdan qo‘rqarmidik? Albatta, qo‘rqardik. Lekin
biz boshqa narsani ham anglardik, Vatan uchun og‘ir

pallada qurbon bo'lish – ham qarz, ham farz. Shaxsan men shunday o'ylardim. Urushda tirik qolganimga haligacha ishongim kelmaydi. Yarador ham, kontuziya ham bo'lganman, biroq boshim omon. Ko'zimmi yumsam, urush butun dahshati bilan yana namoyon bo'ladi. O'q-dorilar omboriga snaryad tushib, yong'in chiqdi-yu, omborni qo'riqlab turgan askar alanga ichida qoldi. U endi odam emas, bir bo'lak qora etga aylangandi... Bechora jon talvasasida sakraydi, okopdagilar nima qilarini bilmay, tomoshabin bo'lib turibdi. Choyshabni oldimda, yugurib borib, o'sha askarga yopdim va uni yerga yotqizib ustiga yotib oldim. U tagimda tinmay tipirchilardi, faqat yuragi yorilib ketgandan keyin tinchib qoldi...

Esim og'ib qolay dedi, hamma yog'im qonga botdi. Yoshi kattaroq jangchilardan biri kelib bag'riga bosdi, uning gapi qulog'imga chalindi: „Urush ham bir kun tugaydi, bu qiz omon qolsa ham, baribir endi odam bo'lmaydi, bechora adoyi tamom bo'ldi“. Yuragim haqiqatan ham qimidan chiqay degandi, menday yosh qizning bunday dahshatga bardosh berishi dargumon, axir. Tutqanoq tutganday oyoq-qo'llim titrardi, qo'ltig'imdan ushiab yerto'laga olib tushishdi.

Shu orada yana jang boshiandi... Sevsk ostonalari-da nemislar kuniga yetti-sakkiz marta hujumga o'tardi. Ayni shu kuni bir necha jangchilarni quroli bilan birga jang maydonidan olib chiqdim. Oxirgi yaradoring oldiga emaklab borganimda bechoraning qo'li butkul majaqlangandi. Uning majaqlangan qo'lini darhol kesib tashlash kerak, jarohatni bog'lab bo'lmaydi. Menda esa pichoq ham, qaychi ham yo'q. Emaklaganimda sumkam silkinib, ikkalasi ham tushib qolibdi. Endi nima qilaman? Ko'p o'ylab o'tirmay majaqlangan qo'lni tishlarim

bilan uzib tashladim. G‘ajib uzib oldim-da, jarohatni doka bilan bog‘ladim... Jarohatni bog‘layapman-u, yadaror: „Tezroq bo‘la qol, hamshira, men hali yana jang qilishim kerak...“ deb g‘o‘ldiraydi. A’zoyi badani olov bo‘lib yonyapti...

Shu jangda nemislarning tanklari ustimizga bostirib kelayotganda ikki askar qo‘rroqlik qildi. Juda ko‘p jangchilarimiz halok bo‘ldi. Men portlash oqibatida hosil bo‘lgan chuqurga sudrab tushgan yaradorlar asir tushdi. Ularni olib ketish uchun mashina kelishi kerak edi... Ikki askar qo‘rroqlik qilgach, qolganlar ham sarosimaga tushib, hamma qocha boshladi. Yaradorlar qolib ketdi. Biz qaytib kelganda, bir yaradorning ko‘zi o‘yib olin-gan, boshqasining esa qorni yorib tashlangandi... Bizning yaradorlarga fashistlar sira shafqat qilmasdi...

O‘z ko‘zim bilan shularni ko‘rganimdan keyin tuni bo‘yi ko‘mirday qorayib ketdim. Ertalab butun batalyon saf tortdi, ikkita qo‘rroq safning ro‘parasida bosh egib turibdi. Bu xiyonatkorlarni otib tashlash haqida hukm o‘qildi. Hukmni ijro etish uchun yetti kishl talab qilinadi... Uch askar oldinga chiqdi, boshqalar esa joyida qoqqan qoziqday turibdi. Shartta avtomatni olib, oldinga chiqqandim, boshqalar ham ergashdi... Xiyonatkorlarni kechirib bo‘lmasdi. Ularning kasri urib, jasur yigitlar halok bo‘ldi axir. Nihoyatda dovyurak jangchilar nobud bo‘lishdi...

Razvedkachilar rotasining komandiri menga oshiq bo‘lib qoldi. Askarlari uning ishqiy xatlarini keltirib berardi. Bir gal uchrashuvga chiqib: „Sizga ko‘ngil qo‘ya olmayman, allaqachon bu dunyoni tark etgan yigitni hali ham sevaman“, deb aytdim. U menga juda yaqin kelib, ko‘zlarimga bir lahma tikildi-da, katta-katta qadam tash-

lab ketib qoldi. O'qlar tinmay yog'ilayotganiga qaramay, hatto egilmadi ham...

Keyinchalik Ukrainianada bir qishloqni ozod qildik. Men biroz sayr qilishga chog'landim. Havo ochiq, oqlangan qishloq uylari e'tiborni tortadi. Qishloqning yonidagi qabristonda yangi qabrlarga ko'zim tushdi... Mazkur qishloqni ozod qilishda halok bo'lganlar shu qabristonga dafn etilgandi... Bir qabrning tepasidagi surat ko'zimga issiq ko'rindi... Meni yaxshi ko'rib qolgan razvedkachilar rotasining komandiri... Ismi sharifi ham o'sha...

O'zimni yo'qotib, sarosimaga tushdim. Ayni shu palla uning rotasidagi yigitlar kelib qoldi. Ular bir paytalar menga ishqiy maktublar olib kelgan, hammasmi bishardi. Birortasi men tomonga qayrilib ham qaramadi, e'tibor ham bermadi. Keyinchalik ularni uchratganimda menga zimdan o'lim tilaganlarini ham sezdim. Meni ko'rgani ko'zları yo'q edi. Men hammasini sezardim...

Urushdan og'ir betob bo'llib qaytib, ko'plab shifoxonalarda davolandim. Faqat bir keksa professor dardimga malham bo'ldi. U menga dardimming sababini tushuntirib berdi. Aytishicha, o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshga to'lmasdan, ya'ni voyaga yetmay, o'n olti yoshda urushga ketganim menga pand bergen – navqiron tanam azoblarga dosh berolmay xastalikka chalingan.

„Dori-darmonlar bilan ham davolansa bo'ladi, – dedi u menga, – lekin to'la davolanib, sog'lom bo'lay, men ham barcha kabi yashay desangiz, sizga yagona maslahatim – turmushga chiqib, imkon boricha ko'proq farzand ko'ring. Sizni faqat mana shu qutqaradi. Har gal ko'z yorganingizda butun tanangiz qaytadan yan-gilanadi...“

– O'shanda necha yoshda edingiz?

– Urushdan o'n to'qqiz yoshda kelganman. Turmushga chiqishni, avvaliga, o'ylaganim ham yo'q.

– Nega?

– Juda toliqqandim, o'zimni tengdoshlarimdan kattaday, hatto keksayib qolganday his qilardim. Dugonalrim raqs tushar, yayrab quvonishar, men esa ularning davrasiga hech qo'shilolmasdim, hayotga boshqacha nigoh bilan qarardim. Bu sirtdan qaraganda bilinmas, yosh yigitlar ko'nglimni ovlashga urinar, men esa ruhan holdan toygandim. Men boshdan kechirgan dahshatlarga ayrim erkaklar ham bardosh berolmasdi... Operatsiya qilinadigan chodirning bir chetida kesilgan qo'l-oyoqlar tashlanadigan joy bor edi... Bir gal mana shu operatsiya chodiriga men bilan birga bir ofitser ham kirdi, uming jarohatini qayta bog'lab qo'yishim kerak edi. Chodirga kirib, kesilgan qo'l-oyoqlarga ko'zi tushdi-yu, hushini yo'qotib yuztuban yiqildi. Erkak ham dosh berolmadı.

Sevsk ostonalaridagi jang esa... Oltmisht yettita yaradorni jang maydonidan olib chiqqanimni sizga aytib berdim. Bu haqda maqola chiqqan front gazetasini ham saqlab qo'yganman. Maqolada men haqimda, bizning o'ttiz yettinchi gvardiya diviziyanining bir yuz o'n sakkizinchchi o'qchi polki tarkibidagi birinchi rota haqida yozilgan. Shu qadar shiddatli jang bo'lgan, asablarimiz shu qadar taranglashganki, hatto qulqlardan qon kelgan. Ertasiga xuddi og'ir bemorday o'mimizdan arang turganmiz...

– Turmushga chiqdingizmi?

– Ha. Besh o'g'il ko'rib, voyaga yetkazdim. Hozir nabiralarim ham katta bo'lib qolgan. Binoyidek ona, buvi ham bo'ldim. Urushdan kelganimda bunga qurbim yetmasa kerak, deb o'yagandim.

Hammasini esga olar ekanman, nazarimda, bu voqealar meming boshimdan kechmaganday, butunlay boshqa bir qizaloqning qismatiday tuyuladi...“

Ko'nglimda turli tuyg'ular: hayrat va sarosima, ishtiyoy va norozilik, dard va hamdardlik olishadi. Bu tuyg'ular ayni shu qiyofaga diqqat bilan tikilishga, mana shu ovozmi berilib tinglashga undaydi. Qolaversa, bir vaqtning o'zida ikki davrda – o'tmisht va bugungi kun bilan yashayotganlarning ahvoli haqida o'yplashga majbur etadi. Ular shunday dahshatlarni boshdan kechirganki, buni faqat taxmin qila olamiz. Holbuki, hammasimi aniq bilishimiz shart! Afsuski, hamisha ham bilgimiz kelavermaydi. Keling, ulug' Tolstoyni yodga olaylik. U ko'nglidagi shunday kechinmani darhol jilovlagan: „Eshikni asta ochasiz, qirq yoki ellikta, qo'li yo oyog'i kesilgan, ayrimlari karavotlarda, aksariyati esa polda yotgan juda og'ir yaradorlarning ko'rinishi va qo'lansa hidi daf'atan sarosimaga soladi. Sizni ostonada tutib turgan kechinmaga ishonmang – bu aldamchi kechinma...“

Biz mana shunday mudhish xotiralar bilan yashayotganlarga emas, o'zimizga achinishimiz kerak. Chinakaniiga achinish uchun vahimali xotiralardan yuz o'girish kerak emas, aksincha, ularni birgalikda baham ko'rish, ma'lum bir qismini qalbimizga jo qilishimiz kerak. Bu o'ziga xos hujjat bo'lib, uni qayta yozib bo'lmaydi, zotan mazkur hujjat 41-, 42-, 43-, 44-, 45-yillarning oppoq sahifalariga butun umrni baxshida etgan holda qon bilan bitilgan.

Adabiy-badiiy nashr

SVETLANA ALEKSIYEVICH

URUSH AYOLLAR ISHI EMAS

Hujjatli qissa

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Tarjimonlar:

Mirpo'lat MIRZO va Abduhamid PARDAYEV

Muharrir

Abdurahmon Jo'rarev

Badiiy muharrir

Hojakbar Saydaliyev

Musahhih

Gulandom Umarova

Sahifalovchi

Habibulloh Haydarov

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
26.03.2020 bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ^{1/32}.
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 9,24. Adadi 5000. Shartnoma № 68–20.
Buyurtma raqami 334-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

Aleksiyevich, Svetlana.

A 47 **Urush ayollar ishi emas.** [Matn]: hujjatli qissa. / Svetlana Aleksiyevich; tarjimonlar: Mirpo'lat Mirzo, Abduhamid Pardayev. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti 2020. – 176 b.

ISBN 978-9943-6339-7-1

**UO‘K: 821.161.3-31
KBK 84(4Bei)**